



7
Islom Karimov



**YUKSAK
MA'NAVIYAT –
YENGILMAS KUCH**





Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e ‘tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir ha-qiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.

A handwritten signature in black ink, appearing to read "Islam Karimov".

Islom KARIMOV

YUKSAK MA'NAVIYAT – YENGILMAS KUCH

Ikkinchı nashri




TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2010

Hurmatli o‘quvchi, bundan ikki yil muqaddam Yurtboshimiz Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobi chop etilganidan xabardorsiz. Xalqimiz tomonidan alohida qiziqish va e’tibor bilan kutib olingan bu fundamental asar mam-lakatimiz ma’naviyat hayotida tom ma’noda katta voqeа bo’ldi.

Kitob qoraqalpoq, tojik, turkman, qirg‘iz va qozoq tillariga tarjima qilinib, chop etildi.

O’tgan davr mobaynida bu kitob jahon miqyosida, xususan, musulmon olamida ham katta qiziqish uyg‘otdi va Quvayt davlatida arab tiliga, Turkiya Respublikasida turk tiliga tarjima qilindi. Misr Arab Respublikasi, Saudiya Arabistonni Podshohligi, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn kabi mamlakatlarda kitobning taqdimot marosimlari o’tkazildi.

Ushbu asarda yoritilgan muhim masalalar keyingi paytda yanada dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgani tufayli yurtimizdagi davlat va nodavlat tashkilotlar, ta’lim muassasalari, oddiy yurtdoshlarimiz tomonidan «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobini qayta nashr etish haqidagi bildirilgan ko‘plab takliflarni e’tiborga olgan holda, mazkur kitob ikkinchi bor nashr etilmoqda.



K 4702620204-15
M25(04)-10

ISBN 978-9943-04-067-0

© «Ma’naviyat», 2010

MUQADDIMA

Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz o‘z taqdirimizni o‘z qo‘limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo‘lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik bergenini bugun hammamiz chuqr anglaymiz.

Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama to‘g‘ri tushunib, tanlagan taraqqiyot yo‘limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo‘llab-quvvatlayotgani oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbayi va garovi ekanini hayotning o‘zi tasdiqlamoqda.

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

El-yurtimiz o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida bunday mash’um xatarlarni necha bor ko‘rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma’naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o‘tmish, bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘limiz barchamizga saboq bo‘lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo‘lib yashashga da’vat etishi lozim. **O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q.** Bu haqiqat kishilik tarixida ko‘p bora o‘z isbotini topgan.

Ma’lumki, biz boshimizdan kechirgan sobiq mustabid tuzum davrida milliy ma’naviyatni ri-

vojlantirishga mutlaqo yo‘l qo‘yilmagan. Aksincha, xalqimizning tabiatи, yashash tarziga yot bo‘lgan kommunistik mafkurani har qanday yo‘llar va zo‘ravonlik bilan joriy etishga harakat qilingan. Shuning uchun ham istiqlolning dastlabki kunlaridanoq bu sohadagi ahvolni tubdan o‘zgartirish yurtimizda eng dolzarb va hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi.

Shu o‘rinda biz bu o‘ta muhim masalaga qanday e’tibor berganimiz va uni bosqichma-bosqich hal qilib kelayotganimiz haqida to‘xtalib o‘tish joiz, deb o‘ylayman. Jumladan, 1994-yili 22-sentabrda parlament minbaridan yaqin tariximizda boshimizdan kechirgan voqealar, ya’ni, millatimizning qadr-qimmati, sha’ni va nomusi poymol qilingani, ko‘hna tariximiz va muqaddas qadriyatlarimiz toptalgani haqida quyidagi dardli-iztirobli fikrlar bildirilgan va ba’zi bir g‘oyat qiyin, ammo tabiiy savollar o‘rtaga tashlangan edi:

«— O‘zingiz o‘ylab ko‘ringlar, aziz do‘stlar, mustabid tuzum, mustamlakachilik davrida biz kim edik?

— Taqdirimiz, erkimiz kimlarning qo‘lida edi?

— Ka’ba deb qayerga sig‘inar edik? Har tong «Assalom!..» degan madhiya ohanglari ostida kim-larga qulluq qilib uyg‘onardik?

— Tilimiz, dinimiz qay ahvolda edi? Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqsh-bandlarning muqaddas xoklariga e’tibor bormidi?

Amir Temur, Bobur Mirzo va boshqa ulug‘ bobokalonlarimizning buyuk nomlari qaysi tuproqlarda qorishib yotgan edi?

— Milliy g‘ururimiz, insonlik sha’nimiz, urfatlarimiz qanday tushunchalarga almashtirilgan edi?

— Xo‘sish, o‘zimiz-chi? O‘zimiz o‘zligimizni bilarmidik? Qanday mo‘tabar zamin, ulug‘ ajdodlarimizning o‘lmas meroslari bilan oziqlangan elning farzandlari ekanimizni anglarmidik?

— Aytinglar, o‘sha kezlari O‘zbekistonni dunyoda birov bilarmidi? Birov biz bilan hisoblasharmidi?

— Yurtimiz qanday va qancha beqiyos boyliklar xazinasi ekanidan qay birimiz xabardor edik?

— Go‘yo milliy iftixor bo‘lmish paxta, haqiqatda milliy g‘urur o‘rniga bo‘yinturuq bo‘lib, xalqimizni yalangoyoq qilishdan, boshimizga azob-uqubat, ta’na-malomatdan boshqa nima keltirardi?»

Darhaqiqat, yaqin tarixda xalqimiz o‘z boshidan kechirgan bunday azob-uqubatlarni, taqdirimiz jar yoqasida turgan mash’um kunlarni unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q.

O‘tgan davr mobaynida eski tuzumdan og‘ir meros bo‘lib qolgan ana shunday illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko‘hna qadriyatlarimiz, din-u diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi

jamiyat qurish yo‘lida xalqimizning ma’naviy yuk-salishini o‘z oldimizga qo‘ygan olajanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo‘lib kelganini va bugun ham e’tiborimiz markazida turganini ta’kidlash lozim.

Shuni mammuniyat bilan qayd etish lozimki, ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qon-qoni va suyak-suyagiga singib ketgan. Uning tabiatiga xos bo‘lgan yuksak ma’naviyat necha asrlarki bizni ne-ne balo-qazolardan, to‘fon va bo‘ronlardan sog‘-omon asrab kelmoqda. Har qanday bosqin va istilolarga qaramasdan, har qanday og‘ir va murakkab sharoitda ham ota-bobolarimiz o‘zligini yo‘qotmasdan, ma’naviy hayat mezonlari, odob-axloq qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagani bugun ham barchamizga ibrat bo‘lib, kuch-quvvat bag‘ishlab kelmoqda.

Ma’lumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma’naviy qarashlari o‘z-o‘zidan, bo‘sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo‘lishini hammamiz yaxshi bilamiz.

Masalan, Sharq olamida, jumladan, o‘zimizning O‘rta Osiyo sharoitida jamoa bo‘lib yashash tuyg‘usi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo‘llab-

quvvatlab hayot kechirishga zamin tug‘diradi. Shu ma’noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqalarga hech o‘xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o‘zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo‘ladigan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘ramiz.

Misol uchun, tilimizdagи mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma’no-mazmun bilan boyitadigan va to‘ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g‘alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o‘zi mushkul bir muammo.

Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o‘ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so‘zlar emas. Bunday tushunchalar asr-lar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma’naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ong-u shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasiidir.

Masalan, ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo‘lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko‘rish mumkin. Bu avvalo insonning inson bilan, qo‘sning qo‘shti bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg‘un bo‘lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko‘r-

satisfish, sidqidildan, beg‘araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning ma’naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi.

Sharq xalqlari va yurtimiz ahliga mansub shunday belgi-alomatlar haqida gapirganda, ularning tarixiy-ijtimoiy zaminiga alohida e’tibor qaratish lozim, deb o’ylayman. Tarixdan ma’lumki, O’rta Osiyo hududida aholi azaldan vodiylarda, katta suv manbalari – daryo va anhorlar bo‘yida yashab keladi. Atrofi cho‘l va sahrolar bilan o’ralgan, tabiatni, iqlimi g‘oyat murakkab bo‘lgan mintaqaga sharoitining o‘zi ana shu elat va millatlarning ming yillar davomida bir-biriga moslashib, yaqin yelkadosh bo‘lib, bir-birining og‘irini yengil qilib yashashini taqozo etib keladi.

Chindan ham, bu zaminda istiqomat qiladigan odamlarning tarqoq bo‘lib yashashga imkon yo‘q, tabiatning o‘zi, hayotning o‘zi ularni shu ruhda tarbiyalagan. Turmush va tafakkur tarzimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan mana shunday azaliy tushunchalar mintaqamizda yashab o‘tgan ulug‘ allomalar, mutafakkir zotlarning qoldirgan bebafo merosida ham o‘zining yorqin ifodasini topgan. Misol uchun, Alisher Navoiy bobomiz bo‘ladimi, Rudakiy, Abay, Maxtumquli yoki To‘qtag‘ul kabi ulug‘ zotlar bo‘ladimi, ularning barchasi o‘z ijodi bilan nafaqat ikki daryo oralig‘idagi xalqlarni, balki butun bashariyat farzandlarini doimo mehr-oqibatli,

do'st-birodar bo'lib yashashga da'vat etgani bejiz emas, albatta.

Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday hamjihat bo'lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo'lsa, bugun ham, ta'bir joiz bo'lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o'zi bizni – butun O'rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do'stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da'vat etmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, tarixiy voqelikka mana shunday qarash, jamuljam bo'lib yashash tuyg'usi biz uchun hayot falsafasiga, yana ham aniqrog'i, hayot qoidasiga aylanib ketgan. Zamonaviy tilda aytadigan bo'lsak, bu milliy mentalitetimizning asosini tashkil etadigan, bizni boshqalardan ajratib turadigan shunday bir xususiyatki, uni sezmaslik, anglamaslik, ko'rmaslik umuman mumkin emas.

G'arb olamida esa odamlarning hayot tarzida jamoaviylikdan ko'ra individualizm, shaxsiy manfaat tamoyillari ustunlik qilishini kuzatish mumkin. Bu ham muayyan, obyektiv ijtimoiy-tarixiy omillar tufayli shakllangan voqelik bo'lib, uni ham inkor etib bo'lmaydi.

Albatta, O'rta Osiyo muhitida jamoa, mahalla bo'-lib, bir-biriga mehr-oqibatli bo'lib yashaydigan insonlar, davr qanchalik o'zgarmas, tarix sino-vidan o'tgan o'z qadriyatlariga sodiq bo'lib yashashni ma'qul ko'rар ekan, buni zamonaviy fikrlaydigan,

dunyoga teran nazar tashlaydigan odam to‘g‘ri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi lozim.

Ming afsuski, mana shunday tarixiy haqiqatni anglamaydigan yoki anglashni istamaydigan chet eldag'i ba'zi siyosatchi va arboblar nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot, balki ma'naviyat bobida ham bizga aql o'rgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dunyomizga yot bo'lgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqda.

Bunday kuchlarning g'arazli munosabati avvalo boy va qadimiy ma'naviyatimizga qarshi qaratilgani, ular xalqimizni ana shu bebaho boylikdan judo qilish uchun har xil usul va vositalar bilan zo'r berib urinayotgani barchamizni tashvishlantirmasdan qolmaydi, albatta.

Nega deganda, insoniyatning ko‘p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, **dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, avvalambor, uni quolsizlantirishga, ya’ni eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatları, tarixi va ma’naviyatidan judo qilishga urinadi.** Buning tasdig‘ini uzoq va yaqin tarixdagi ko‘p-ko‘p misollarda yaqqol ko‘rish mumkin. Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o‘sib kelayotgan farzandlarining kela-

jagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.

Kezi kelganda ilgari aytgan bir fikrimni takrorlamoqchiman: **bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq bo'lmaydi. Qayerdadir bo'shliq paydo bo'ldimi, hech shubhasiz, uni albatta kimdir to'ldirishga harakat qiladi.**

Hozirgi kunda kim ko'p – ana shunday ma'naviy bo'shliqni to'ldirishga urinadigan, shuning hisobidan o'zining g'arazli maqsadlarini amalga oshirishni o'ylab yurganlar ko'p. Ming afsuski, bu kuchlarning asl qiyofasi, maqsad-muddaolari va imkoniyatlarini to'la va aniq-ravshan tasavvur qilish oson emas. Nega deganda, ular ko'pincha turli niqoblar, jozibali shior va g'oyalar pardasi ostida ish ko'radi. Bunday kuchlarning ixtiyorida juda katta moddiy, moliyaviy resurslar va imkoniyatlar mavjud bo'lib, ularning puxta o'ylangan, uzoq va davomli yovuz maqsadlariga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'-qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qad-

riyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin.

Eng yomoni, bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo'lgan shaxsga aylantirishga qaratilganida namoyon bo'lmoqda.

Šuning uchun ham – bu Sharq yoki G'arb mamlakatlari bo'ladimi, olis Afrika yoki Osiyo qit'asi bo'ladimi – jahonning qaysi burchagida bo'lmasin, ma'naviyatga qarshi qandaydir tahdid paydo bo'ladigan bo'lsa, o'zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o'ylab yashaydigan har bir ongli inson, har bir xalq tashvishga tushishi tabiiy, albatta. Bu haqda gapirganda, faqat bitta millat yoki xalq haqida fikr yuritish masalani o'ta tor tushunish bo'lur edi. Ya'ni, bu o'rinda so'z faqat bizning ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan tajovuzlar haqida, azaliy fazilatlarimiz, milliy qadriyatlarimizni ana shunday hujumlardan asrash xususidagina borayotgani yo'q. Muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu muammoni keng miqyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o'r ganish, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir.

Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom

ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman.

Agarki masalaga amaliy ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday xuruj — bu millatimizni millat qiladigan, asrlar, ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlarga, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usiga, bizni doimiy ravishda tadrijiy taraqqiyotga chorlaydigan, shu yo'ldagi barcha asorat va illatlardan xalos bo'lib, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf-xatarlarni anglatadi.

Lo'nda qilib aytadigan bo'lsak, bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko'zlashini, o'ylaymanki, yurtimizda yashaydigan sog'lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi.

Bunday tajovuzkorona harakatlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg'ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir. Bunday holatlarga duch kelganda, umrida mamlakatimizga qadam qo'yagan, O'zbekistonni hatto xaritadan ham

ko'rsatib berolmaydigan, lekin o'zini mutlaq haqi-qatning yagona ifodachisi deb hisoblaydigan kim-salarning yengil-yelpi fikrlarini eshitganda, ularga qarata beixtiyor, e, baraka topkur, oldin yurtimizga bir kelib ko'ring, tariximiz, ma'naviyatimiz, hayot tarzimiz bilan tanishib, undan keyin gapiring, deb aytgingiz keladi.

Haqiqat va xolislikdan yiroq bo'lgan, faqat g'a-razli siyosiy manfaatlarni ko'zlaydigan bunday qarashlar hech kimga naf keltirmaydi va hech kimning obro'siga obro' qo'shmaydi, albatta.

Agarki biz bunday xatarlarga qarshi o'z vaqtida qat'iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o'z girdobiga tortib ketishini, oqibatda ularning ota-onas, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini o'ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Mana shu achchiq haqiqatni yurtimizdag'i har bir inson, har qaysi ota-onas, eng muhimmi, har qaysi yigit-qiz chuqur anglab olishini istardim.

Takror aytishga to'g'ri keladi — ota-onalar, us-toz-murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo'qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo'lmasligimiz zarur.

O'yaymanki, tarixda ko'p-ko'p sinov va ma-shaqqatlarni ko'rgan, aziz farzandining baxti va

kelajagini o‘z hayotining ma’no-mazmuni deb biladigan xalqimiz bunday xatarlarning mash’um oqibatlarini yaxshi anglaydi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddatli davrda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurashta olishi mumkin.

Nafaqat davlat rahbari, avvalambor, buyuk tarix, madaniyat va ma’naviyat egasi bo‘lgan xalqimizning bir farzandi sifatida, ana shu bebahoh boylikni asrabavaylash, uni har xil oshkora va pinhona hujumlardan himoya qilish haqida qayg‘uradigan bir inson sifatida yuqorida zikr etilgan o‘ta muhim va o‘ta nozik bu masalalar meni ham ko‘pdan buyon o‘ylantirib keladi.

Ushbu kitob insonning yuksalishida ma’naviyat olamining qanday ta’sir va ahamiyatga ega ekani, shuningdek, ma’naviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi haqida atroflicha fikr yuritish, xalqimiz yangi hayot, yangi jamiyat asoslarini qurayotgan hozirgi murakkab va tahlikali zamonda odamlarni bunday xatarlardan ogoh etish, el-yurtimiz, keng jamoatchilik e’tiborini bu masalalarga yana bir bor qaratish, keljak avlodimizni ma’naviy sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash bilan bog‘liq

vazifalarni aniq belgilab olish borasidagi hayotiy ehtiyoj mahsuli sifatida dunyoga keldi.

Agarki mendan, hozirgi kunda ma'naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo'yish kerak, deb so'rasha, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagи barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur, deb javob bergen bo'lardim.

Ishonchim komilki, ana shunday noyob insoniy fazilatlarga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan xalq hech kimga hech qachon qaram bo'lmaydi, o'zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi.



Birinchi bob

MA'NAVIYAT – INSONNING ULG'AYISH VA KUCH-QUDRAT MANBAYIDIR

Ma'naviyatni anglash

Biz odatda ma'naviyat haqida, uning ma'no-mazmuni, hayotimizdagi o'rni va ahamiyati haqida ko'p gapiramiz. Lekin negadir aksariyat hollarda ko'pchilik ma'naviyat o'zi nima, degan savolga aniq va lo'nda javob berishga qiynaladi. Men bunday holatga o'z shaxsiy tajribamda ko'p bor guvoh bo'lganman. Mas'ul rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni tanlashda o'tkaziladigan suhbat jarayonida ularning professional malakasi, bilimi, tashkilotchiligi, hayotiy tajribasi, insoniy fazilatlari bilan bir qatorda ma'naviy saviyasiga ham alohida e'tibor qarataman. Va ko'p hollarda, ma'naviyat haqida beriladigan savollarga har xil, ba'zan esa bir-biriga qarama-qarshi, qandaydir noaniq, sayoz javoblarni ham eshitishga to'g'ri keladi.

Albatta, «ma'naviyat» tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab ta'riflarini keltirish mumkin. Umuman, o'zida juda chuqur va keng qamrovli ma'no-mazmunni mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi ma'rifatli

inson o‘zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e’tiqodi, ong-u tafakkuridan kelib chiqqan holda turlicha ta’rif va tavsiflar berishi tabiiy. Shuning uchun ham bu masala bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda, kundalik matbuotda bir-biridan farq qiladigan fikr-mulo-hazalarni uchratganda bundan taajjublanmasdan, ularni har qaysi muallifning o‘ziga xos dunyo-qarashi, mushohada tarzi ifodasi sifatida qabul qilish o‘rinlidir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, keyingi yillarda bu mavzuda olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy risolalar, o‘quv qo‘llanmalari, lug‘atlarda «ma’naviyat» tushunchasi va uning asosiy tamoyillariga o‘ziga xos ta’riflar berilayotganini kuzatish mumkin. Men bu boradagi fikrlarni inkor etmagan holda, «ma’naviyat» tushunchasining mazmuni faqat «ma’ni», «ma’no» degan so‘zlar doirasida chegaralanib qolmaydi, deb o‘ylayman. Nega deganda, insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan alohida o‘rin tutadi.

Shu fikrni mantiqiy davom ettirib, **ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini bavuvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir**, desak, menimcha, tariximiz va

bugungi hayotimizda har tomonlama o‘z tasdig‘ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo‘lamiz.

Mening nazarimda, «ma’naviyat» tushunchasi jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma’nodagi «ma’naviyat» tu-shunchasi orqali ifoda etish mumkin.

Ma’naviyatning negizi va ma’no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlar, birinchi galda insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg‘ayishi haqida gapirar ekanmiz, bir masalaga alohida e’tibor berishimiz lozim.

Albatta, bu dunyoda halol va pok yashashni o‘zi uchun hayotiy e’tiqod, oliv maqsad deb biladigan odamlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Aynan ana shunday insonlar va ularning ezgu ishlari tufayli bu yorug‘ olamda ma’naviyat hamisha barqaror bo‘lib keladi.

Lekin, bunday oljanob fazilatlardan butunlay uzoq bo‘lib yashaydigan, hayotning ma’no-mazmunini o‘zicha talqin qiladigan shaxslar ham oz emas. Ming afsuski, ular o‘zini xuddiki dunyoning haqiqiy egasidek, bekam-u ko‘st, boshqalarning havasini tortadigan umr kechirayotgandek, baxt qushi boshiga qo‘ngandek his qilishga urinadi.

Tabiiyki, bunday holatlarni ko'rib-kuzatib, o'zi uchun ezgu niyatlarni yuksak maqsad qilib qo'ygan insonlar qalbida qandaydir ikkilanish va shubha paydo bo'lishi mumkin. Odamlarni o'ylantirib qo'yadigan bunday holatlar hayotda ko'p uchraydi. Bunga qanday izoh berish mumkin?

Hammamizga ma'lumki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajodolarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi, lekin, shu bilan birga, hayotda bu kabi da'vatlarga amal qilishga intiladigan odam ko'pincha turli qiyinchiliklar, hatto azob-u uqubatlarga duch kelishini kuzatish qiyin emas. Tan olish kerakki, yuksak ma'naviy tushunchalar bilan yashashga harakat qiladigan odamning bugun ham ko'p mashaqqatlarni, og'ir sinov va to'siqlar, muammolarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi.

Agarki e'tibor bersak, tilimizda halollik va no-poklik haqidagi ibratli hikmatlar bilan birga, «Yo'-lini topibdimi, qandini ursin», «Uzumini yeng-u, bog'ini surishtirmang» degan maqollar ham borligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Albatta, bunday maqol-matallar bejiz paydo bo'lmagan, ular ham ma'lum bir haqiqatning ifodasi. Binobarin, biz hayotning ma'no-mazmunini shunday tushunib, shu asosda yashashga intiladigan kishilar ham borligini inkor etolmaymiz.

Lekin, mening nazarimda, bunday gaplar odamning boylik va mol-dunyoni qanday yo'llar bilan topayotganiga loqayd va beparvo qaraydigan, manfaatparast shaxslar tomonidan to'qib chiqarilgandek tuyuladi. Ularning fikricha, inson o'z boyligini peshona teri to'kib, Olloh bergen aql-idrok va tafakkurini ishlatib topyaptimi yoki qing'ir-qiyshiq, harom-xarish yo'llar bilan orttiryaptimi – bu go'yoki hech kimni qiziqtirmasligi kerak.

Shu bois biz ma'naviyat haqida fikr yuritar ekanmiz, bu masalani atroflicha va chuqur tahlil etishimiz, uning faqat o'zimizga ma'qul, ijobiy tomonlari bilan cheklanib qolmasdan, ana shunday murakkab jihatlarini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz lozim.

Lo'nda qilib aytganda, bu o'rinda gap bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, bir-birini inkor qiladigan ikki xil hayotiy qarash haqida bormoqda.

Birinchisi – o'z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf yetkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo'lishi haqida o'ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar.

Ikkinchisi – bunga mutlaqo qarama-qarshi bo'lgan yondashuv, ya'ni, hayotning ma'no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o'zini qiynamasdan, faqat nafs qayg'usi va

o'tkinchi hoyu havasga, huzur-halovatga berilib, yengil-yelpi umr kechiradigan, o'zining ota-onasi va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo'lib yashaydigan odamlarning fikr-qarashlari.

Mana shunday ikki xil dunyoqarash asosida paydo bo'ladigan og'ir savollar odamzot ongli yashay boshlagan zamonlardan buyon uni o'ylantirib, qiyinab keladi. Hayot mohiyatini anglab yetishga o'z umri, bilim va salohiyatini bag'ishlagan ne-ne buyuk zotlar, mutafakkir faylasuflar, alloma va aziz-avliyolar – millati, tili va dinidan qat'i nazar – shu kabi murakkab muammolarga javob topish uchun izlangan, bu mavzuda qancha-qancha asarlar yaratgan. Lekin bu savol bugungi kunda ham hanuz o'tkir va dolzarb bo'lib qolayotganini inkor etib bo'lmaydi.

Barchamizga ma'lumki, Ollohnning o'zi inson zotini vujudga keltirar ekan, uni turli qiyofada, nafaqat yuz-ko'zi, balki fe'l-atvorini ham bir-biriga o'xshamaydigan qilib yaratgan. Yer yuzida qancha inson yashaydigan bo'lsa, barmog'inining izi ham, ichki dunyosi ham bir xil bo'lgan ikkita odamni topish, uchratish qiyin. Tabiiyki, bu insonlarning fikrlash va yashash tarzi ham bir-biridan farq qiladi. Ta'bir joiz bo'lsa, kimdir Rahmon izmida yursa, kimdir Shayton izmida yuradi.

Shu haqiqatning o'zi toki bu dunyoda hayot bor ekan, turfa xil odamlar va ularning ong-u tafak-

kuridagi o‘zaro tafovut va ziddiyatlar saqlanib qolaverishini ko‘rsatadi. Aynan ana shunday turli dunyoqarashlar, bir-birini inkor etadigan oqim va yo‘nalishlar mavjudligini tabiiy bir hol deb qabul qilishni hayot voqeligining o‘zi talab etadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, biz bu haqda gapirganda, avvalo ongli yashaydigan, mantiqiy fikrlashga qodir bo‘lgan, o‘z qarashlarining ma’no-mazmuni har tomonlama asoslab, isbotlab bera oladigan odamlarni nazarda tutamiz.

Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashganda, ana shunday bir-birini inkor etadigan dunyoqarashlarni inobatga oladigan bo‘lsak, bularning o‘zi tegishli xulosalarga olib kelishi muqarrar. Ya’ni, o‘z peshona teri bilan halol turmush kechiradigan inson hayotidan mamnun va rozi bo‘lib, qalbi va yuragi osoyishta, vijdoni pok, ruhiy olami barqaror bo‘lib, elning hurmatini qozonib yashaydi. Ikkinci tomondan, bu dunyoda yengil-yelpi, har xil nopol yo‘llarga berilib, insoniy burchini unutib, moldunyoga intilib yashagan odam, eng achinarlisi shuki, hayotining so‘ngida armon va nadomatlarga botib o‘z umrini tugatadi.

Dono xalqimiz, g‘araz va hasad bilan yashaydigan, o‘z shaxsiy manfaatiga o‘zgalar hisobidan erishishni ma’qul ko‘radigan, faqat o‘zini o‘ylaydigan kimsadan o‘zi asrasin, deydi. Bag‘rikeng, halol-pok, vijdonli, mehr-oqibatli, el-yurtning

g‘am-u tashvishi bilan yashaydigan kishilarni esa, aksincha, boshiga ko‘taradi va bunday odamlar jamiyat tomonidan qadr-qimmat, hurmat-e’tibor topadi.

Inson ma’naviy olamining yuksalishi bilan bog‘liq turli holatlar haqida ko‘p gapirish mumkin. Lekin, muxtasar qilib aytganda, Ollohnning o‘zi bizga buyurgan komil inson bo‘lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olajanob fazilatlarning ma’no-mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga amal qilib yashash – odamzotning ma’naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi. O‘ylaymanki, bunday xulosani insoniyat o‘z ongli hayoti davomida doimo orzu qilib, intilib kelgan yuksak ma’naviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabul qilish o‘rinlidir.

Ma’naviyatning yana bir muhim xususiyati odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qilishida yorqin namoyon bo‘ladi.

Uzoqqa bormasdan, xalqimiz o‘z boshidan kechirgan mustamlaka davrini bir ko‘z oldimizga keltiraylik. Qariyb 150 yil davom etgan, tariximizning tom ma’nodagi qora kunlari bo‘lmish o‘scha zamonda bir paytlar o‘zining qudratli davlatchiligi, buyuk farzandlari, yuksak ilm-u madaniyati, obod

shahar va qishloqlari bilan dunyoni hayratda qoldirgan el-yurtimiz qanday og‘ir mashaqqatlarga duchor bo‘lganini yaxshi bilamiz.

Lekin ana shunday dahshatli davrda ham har qanday zulm va istibdodga qaramasdan, xalqimiz o‘zini, o‘zligini yo‘qotmadi. Tilini va dinini, iymon-e’tiqodini saqlab qoldi. Nohaqlik va zo‘ravonlik hukmron bo‘lgan shunday zamonlarda ham yurtimizdan millat va xalq qayg‘usi bilan yashagan haqiqiy vatanparvar insonlar yetishib chiqdi. Xalqimizning asrlar sinovida yanada kuchayib, toblanib borgan mustahkam irodasi, iymon-e’tiqodi nafaqat qadimiy ma’naviyatimiz, balki milliy o‘zligimizni saqlab qolishga asos bo‘ldi.

Agar biz dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqa xalqlar ham ozodlik va mustaqillikni qo‘lga kiritish, milliy tiklanish, o‘z davlatchiligini, havas qilsa arziydigan fuqarolik jamiyatini mustahkamlash jarayonida ana shunday fazilatlarga tayanib va suyanib, barcha sohalarda – bu iqtisodiyot yoki ijtimoiy hayot bo‘ladimi, madaniyat, ta’lim-tarbiya va ilm-fan bo‘ladimi – o‘zining beqiyos ichki qobiliyat va salohiyatini ishga solish, uni ro‘yobga chiqarish hisobidan taraqqiyotga erishganini ko‘ramiz.

Masalan, Yaponiya yoki Janubiy Koreyani olaylik. Bu mamlakatlarning Ikkinchiji jahon urushidan keyin qanday og‘ir ahvolga tushib qolganini hammamiz

yaxshi bilamiz. Xo'sh, ular nimaning evaziga qisqa davr ichida bu qadar rivojlanishga erisha oldi? Axir, bu o'lkalarda mo'l-ko'l tabiiy xomashyo manbalari, mineral resurslar deyarli yo'q-ku! Albatta, bu borada o'sha paytda dunyoda mavjud bo'lgan siyosiy omillar, xalqaro vaziyatning ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Lekin yapon va koreys xalqi asrlar davomida shakllanib, katta bunyodkor kuchga aylangan o'ziga xos milliy ma'naviyati hisobidan ham rivojlangani bugungi kunda hech kimga sir emas. Shuning uchun «yapon mo'jizasi» yoki «koreys mo'jizasi» haqida gap ketganda, taniqli ekspert va mutaxassislar ham birinchi galda «yapon xarakteri», «koreys tabiatи» degan iboralarni tilga oladi. Tabiiyki, ular bu o'rinda avvalo mazkur xalqlarga mansub ma'naviy fazilatlar ni nazarda tutadi. Ya'ni, bu xalqlarning ichki dunyosi va irodasi ma'naviyat negizida yanada toblangan, kamolga yetgan.

Bunday xulosaning tasdig'ini nafaqat mazkur ikki davlat, balki boshqa mamlakat va xalqlar misolida ham ko'rish qiyin emas.

Vijdon pokligi va bedorligi asrlar, zamonlar osha inson ma'naviyatining tayanch ustunlaridan biri bo'lib kelmoqda. Jamiyat hayotidaadolat va haqiqat, mehr-shafqat, insof-u diyonat kabi tushunchalarni qaror toptirishda aynan mana shu omilning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Vijdoni uyg'oq odam yon-atrofida bo'layotgan voqealarga, yordam va ko'makka muh-

toj insonlarning muammolariga, adolatning toptalishiga befarq qaray olmaydi. Ayniqsa, el-yurt manfaatiga zarar yetkazadigan yovuz xatti-harakatlarga hech qachon chetdan jim qarab turolmaydi, o‘z yurti va xalqiga nisbatan xiyonat va sotqinlikni aslo qabul qilolmaydi. Bunday holatlarni ko‘rganda vijdoni qiynaladi, doimo yonib-kuyib yashaydi, qanday qilib bo‘lmasin, ularni bartaraf etishga intiladi, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda hatto jonini ham fido qiladi.

Chindan ham, agar odamzot bu dunyoda ruhan pok bo‘lib, irodasi baquvvat, iymoni butun, vijdoni uyg‘oq bo‘lib yashamas ekan, inson hayotining qanday ma’nosи qoladi?

Mana shu savol har bir sog‘lom fikrlaydigan odamni hamisha o‘ylantirishi, sergaklikka chorlab turishi zarur.

Bunday ezgu maqsadlarga esa, faqat yuksak ma’naviyat, uzluksiz ma’naviy tarbiya orqaligina erishish mumkin.

Ma’naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiysi, ajdodlar o‘giti, Vatan tuyg‘usi, bu hayotning ba’zida achchiq, ba’zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo‘lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o‘ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne’mat va go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish ma’naviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi.

Jahon xalqlari tajribasi, ularning bosib o'tgan murakkab rivojlanish yo'llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qayerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o'z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo'yib yashashi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, o'sha yerda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma'naviy yuksalish uchun yangi imkoniyatlar tug'iladi.

Umuman olganda, insoniyat tarixi ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbayi ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

O'ylaymanki, yer yuzida qancha inson, qancha taqdir bo'lsa, har birining o'z ma'naviy olami bor. **Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak.** Shuning uchun ham o'zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday odam bu haqda o'ylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin.

Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar

Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha

omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o‘rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, **ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar** eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Bizning qadimiy va go‘zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e’tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olim-u ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog‘liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga yetgan ulug‘ alalomarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g‘urur va iftixon bag‘ishlaydi.

Bu ko‘hna tuproqda milodgacha bo‘lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali-hanuz o‘zining ko‘rk-u tarovatini saqlab kela-yotgan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan o‘lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me’morlik va shaharsozlik san’ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Mamlakatimiz hu-

dudida mavjud bo‘lgan to‘rt mingdan ziyod moddiy-ma’naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyat, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me’morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimatbaho asarlar bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kamdan kam topiladi.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, «Avesto» deb atalgan beba ho ma’naviy obida alohida o‘rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo‘ri mahsuli bo‘lmish bu noyob yodgorlikning zamon to‘fonlaridan, qanchadan qancha og‘ir sinovlardan o‘tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o‘zida katta ma’no mujassam. Bunday o‘lmas osori atiqalar bu ko‘hna o‘lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qa-

dimdan buyuk madaniyat mavjud bo‘lganidan guvohlik beradi.

Ana shunday tarixiy yodgorlik namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan teran fikr va g‘oyalar, hayot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirishiga yana bir karra amin bo‘lamiz.

Misol uchun, «Avesto»ning tub ma’no-mohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal» degan tamoyilni oladigan bo‘lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo‘lgan saboqlar borligini ko‘rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya’ni, ezgu niyat, so‘z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g‘oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma’naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog‘liq, nechog‘liq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e’tiborlidir.

«Avesto»da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg‘unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog‘liq holda ko‘rsatilgani ko‘p narsani anglatadi. Bu holat insonning ma’naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta’sir o‘tkazib kelganiga yana bir bor e’tiborimizni jalb qiladi.

Ma’lumki, bu dunyoda har qaysi millatning o‘z afsonaviy qahramonlari, o‘zi sevib ardoqlaydigan pahlavonlari bo‘ladi. Xalqimiz azaldan o‘z vujudi, o‘z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo‘lmoqqa intilib, o‘z o‘g‘lonlarini mardlik va halollik,

jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham aya-maydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab kelgan.

Shu ma'noda, **xalq og'zaki ijodining** noyob durdonasi bo'lmish «Alpomish» dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki xalqimizning qadimiylari va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, oljanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o'z ifodasini topgan.

Shu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, otabobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi.

Bir paytlar, aniqrog'i, o'tgan asrning 50-yillarda, milliy merosimizning ko'pgina namunalari kabi, «Alpomish» dostoni ham millatchilik ruhidagi asar sifatida qoralanib, qatag'onga uchragan edi. O'sha og'ir yillarda fidoyi ziyolilarimiz jasorat ko'rsatib, uni saqlab qolishga muvaffaq bo'lganliklarini bugun minnatdorlik bilan eslaymiz.

Bu o'lmas asarni xalqimiz asrlar davomida yaratgan, o'z iymon-e'tiqodidek asrab-avaylagan,

qancha avlod-ajdodlarimiz «Alpomish» dostoni asosida tarbiya topgan, o'zligini anglagan, ma'naviy boylikka ega bo'lgan. Demak, xalqimiz bor ekan, Alpomish siymosi ham barhayot.

Chunki «Alpomish» dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma'naviy boyligimizning yorqin namunasi bo'lib, tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday tabiiy-ijtimoiy muhitda shakllanib, rivojlanganini, ajdodlarimizning olis davrlarda ham jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib, o'z boshiga tushgan qiyinchiliklarni birgalikda yengib yashaganini yorqin bo'yoqlarda tasvirlab beradi.

Shu o'rinda asardagi kichik bir misolga murojaat qilaylik. Ota-bobolarimizning qadimiyligi tasavvuriga ko'ra, o'q-yoy — hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish yetti yoshida o'n to'rt botmon birichdan — bronzadan yasalgan yoydan o'q otib, «alp» degan unvonga ega bo'ladi. Alp degani — hokimiyat egasi ekanini inobatga olsak, bu doston ko'p asrlik milliy davlatchiligidan badiiy ifodasi ekaniga ham ishonch hosil qilamiz.

Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning yengilmas bahodiri — Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo'lsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan azamat o'g'lonlarimiz — bugungi alpomishlarning ma'naviy qiyofasini ko'ramiz.

Ishonamanki, har bir avlod mana shu qahra-

monlik dostonini asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazadi. Bu qahramonlik eposini kuylab, uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa hech qanday kuch yenga olmaydi.

Milliy ma'naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotgani xalqimiz uchun eng aziz va eng milliy bayram — sharqona yangi yil bo'lmish Navro'z ayyomi misolida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi.

Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xur-sandchilik, shodiyona bilan o'tkazadigan Navro'z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, ko'p ming yillik milliy qiyofamiz, oljanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo'lib kelmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, yangilanish va ezgulik timsoli bo'lgan Navro'z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgani, ajdod-larimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g'oyalardan bahramand bo'lib, ma'naviy kamol topganining yana bir tasdig'idir, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Ko'hna tariximizni shu ma'noda ko'z o'ngimizdan o'tkazib, tahlil qiladigan bo'lsak, muhim va ibratli bir fikrni takroran aytishga to'g'ri keladi. Ya'ni, otabobolarimiz ruhiy olamining tomir-ildizlari aynan yuqorida zikr etilgan ma'naviy zaminda, tarixda

ham, bugun ham barchanining havasini tortib kela-yotgan olijanob fazilatlar asosida shakllangan.

Shu o'rinda ma'naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yana bir mezon – **muqaddas dinimiz** haqida alohida to'xtalib o'tishni zarur, deb bilaman.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'-risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qal-bidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qad-riyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xay-rixoh va tarafдорлари ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chor-

lashi, hayot sinovlarida o‘zini oqlagan qadriyat va an’analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq. Va xal-qimizning ma’naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Olloh marhamat qilgan bu hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta’sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo‘lmaydi, deb o‘ylayman.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g‘arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo‘htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizga to‘g‘ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g‘oyalarini keng targ‘ib etish vazifasi hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Taassufki, ba’zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g‘arazli maqsadda ularni teng qo‘yish kabi holatlar ham ko‘zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g‘o‘r yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirib, bosh-ko‘zini aylantirib, ulardan o‘zining nopok maqsadlari yo‘lida foydalanmoqda. Bunday nojo‘ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha’niga dog‘ bo‘lishini, oxir-oqibatda esa ma’naviy hayotimizga salbiy ta’sir ko‘rsatishini barchamiz

chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur.

Ma'lumki, xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shib keladi. Bu haqiqatni jahon jamoatchiligi, butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi – AYSESKO tomonidan Toshkent shahring 2007-yilda Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingani ham ana shunday yuksak e'tirofning yana bir tasdig'idir.

Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida «muhaddislar sulton» deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo'tabar zot merosining gultoji bo'lmish eng ishonchli hadislar to'plami – «Al-jome' as-sahih» kitobi islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi. Mana, o'n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo'liga chorlab kelmoqda.

Yana bir ulug' vatandoshimiz – Abu Iso Muham-

mad ibn Iso Termiziyning ma'naviy merosi, jumladan, «Sunani Termiziy» asari ham musulmon olamida ana shunday yuksak qadrlanadi. Allomaning asrlar davomida olim-u fuzalolarga dastur bo'lib kelgan insof va adolat, insonparvarlikni targ'ib etuvchi g'oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko'plab axloqiy-ma'naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e'tiborga molikdir.

Manbalarning guvohlik berishicha, Imom Buxoriy vafot etgan yili, ya'ni milodiy 870-yili tariximizdagi yana bir mumtoz siymo – Imom Moturidiy tavallud topgan ekan. Bu voqeа zamirida shaxsan menga ilohiy bir bog'liqlik, Ollohnинг buyuk marhamati bordek, bamisoli Imom Buxoriyning nurli qalamini Imom Moturidiy olib, ul zotning xayrli ishlarini davom ettirishga bel bog'lagandek tuyuladi. Imom Moturidiy bobomizning o'rta asrlardagi g'oyat xatarli va tahlikali bir vaziyatda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, avlodlarga ibrat bo'ladigan ma'naviy jasorat namunasini ko'rsatib, islom olamida «Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi» degan yuksak sharafga sazovor bo'lgани bu nodir shaxsnинг ulkan aql-zakovati va matonatidan dalolat beradi.

Ul zot asos solgan moturidiya maktabi Sharq mamlakatlarida bunday katta shuhrat topishining sababi shundaki, unda ilgari surilgan g'oyalarni islom dinimizning asosini to'g'rilik, ezgulik va insoniy-

likdan iborat deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohang edi.

O'zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratib, go'zal Farg'ona diyorini jahonga tarannum etgan islom huquqshunosligining yana bir ulkan namoyandası Burhoniddin Marg'inoniyning tabarruk nomini butun musulmon dunyosi yuz yillar davomida e'zozlab keladi. Bu mo'tabar allomaning Sharq olamida «Burhoniddin va milla», ya'ni «Din va millatning hujjati» degan yuksak unvonga sazovor bo'lgani ham buni yaqqol isbotlaydi.

Marg'inoniyning o'lmas merosi, xususan, ellik yetti kitobdan iborat «Hidoya» – «To'g'ri yo'l» deb atalgan asari, mana, sakkiz asrdirki, musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e'tirof etib kelinayotgani albatta bejiz emas.

Butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan buyuk alloma va aziz-avliyolarimiz orasida Abdulxoliq G'ijduvoniy va Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida ajralib turadi. Ota-bobolarimiz ulug' avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo'yib, uni «Bahouddini Balogardon» deb ta'riflab kelishida teran ma'no bor. Uning «Diling Ollohdha, qo'ling mehnatda bo'lsin» degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olajanob ma'no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki shu bugun aytilgandek jaranglaydi.

Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma’naviyat olami yangi ma’no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma’naviyatning shakllanishiga o‘ziga xos ta’sir o’tkazadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, zaminimizda yashab o’tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, **bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari** bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g‘urur bilan ta’kidlash lozim.

Masalan, Muhammad Muso Xorazmiyning o’nlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo‘lib ilm-fan sohasiga joriy etgani va shu asosda aniq fanlar rivoji uchun o‘z vaqtida mustahkam asos yaratgani umuminsoniy taraqqiyot rivojida qanday katta ahamiyatga ega bo‘lganini barchamiz yaxshi bilamiz. Bugungi kunda odamzotning ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar borasida erishayotgan ulkan yutuqlarini ko‘z oldimizga keltirar ekanmiz, beixtiyor ana shu buyuk bobomiz misolida bunday yuksak marralarga erishishda o‘zbek xalqining ham munosib hissasi borligidan qalbimiz iftixorga to‘ladi.

Yana bir ulug‘ ajdodimiz – Ahmad Farg‘oniy

insoniyat tarixidagi ilk Uyg' onish davrining eng zabardast va kuchli namoyandasasi, o'z zamonasining fundamental fan asoschilaridan biri sifatida bashariyat dunyoqarashi va ma'naviyatining rivojlanishiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. Uning bebahosini o'z davri olimlari uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilgani tarixiy manbalar orqali yaxshi ma'lum. Allomaning «Astronomiya asoslari haqida kitob» nomli asari o'n ikkinchi asrdayoq lotin va ivrit tillariga tarjima etilgani ham bu fikrning dalilidir.

Yevropada Al-Fraganus nomi bilan mashhur bo'lgan bu allomaning ilm-fan rivojidagi nufuzi shu qadar yuksak ediki, uning ismi sharifi yer kurrasidagina emas, balki samoda ham shuhrat topdi. O'n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga uning nomi berilgani bu fikrni isbotlaydi. Atoqli astronom Yan Geveliy tomonidan 1647-yili nashr qilingan «Selengografiya» kitobida Oydagi kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz – Ahmad Farg'oniy va Mirzo Ulug'bek nomi bilan ataladi.

Milliy tariximizning yana bir yorqin yulduzi Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb ta'riflaydi. Bunday yuksak va haqli baho avvalo qomusiy tafakkur sohibi bo'lmish buyuk vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasi bilan izohlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Beruniy ilmiy masalalarda ham,

tarixiy voqea-hodisalarga, o‘z zamondoshlariga baho berishda ham o‘ta xolislik va haqqoniylig bilan fikr yuritgan. Shu bois ham u hayotda ko‘p aziyatlar chekkan, hatto umrining oxirida turmush qiyinchiliklariga duchor bo‘lgan, ammo har qanday og‘ir sharoitga qaramasdan, e’tiqodidan qaytmagani uning o‘z ma’naviy ideallariga naqadar sodiq bo‘lganidan dalolat beradi.

Ana shunday noyob fazilatlar sohibi bo‘lmish mashhur alloma Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliy o‘quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o‘qitib kelingani, dunyo miqyosida «Meditsina», «Sog‘lom turmush tarzi» degan tushunchalarning fundamental asosi bo‘lib xizmat qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Aniqroq qilib aytganda, bu benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya’ni, ma’naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta’sir o‘tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor.

Yoki o‘rta asrlarda Xorazm diyoridan olis Arabistoniga borib, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan, ilm-fanning ko‘plab boshqa sohalarida ham shuhrat qozongan Mahmud Zamahshariy bobomizni esga olaylik. O‘zining jismoniy nogironligiga qaramay, dunyoning ko‘plab mamlakatlariga mashaqqatli safarlar qilgan, teran bilimi va ilmiy salohiyati bilan butun islom olamini

lol qoldirgan bu zot, hech shubhasiz, xalqimiz uchun ma'naviy yetuklik timsoli bo'lib qolaveradi.

Agarki mana shu muqaddas zaminimizda tavallud topib, voyaga yetgan, o'z hayoti va faoliyati bilan nafaqat tarixda, ayni vaqtida bashariyatning bugungi taraqqiyot sahifalarida ham o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir va allomalarimiz, aziz-avliyolarimizni ta'riflashda davom etadigan bo'lsak, o'ylaymanki, bu borada uzoq gapirish mumkin.

Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz esa, bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilm-u fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebahon boylikni har tomonlama chuqur o'rganish, uning ma'nomazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyorilarimiz, butun jamoatchiligidan uchun ham qarz, ham farz bo'lishi shart, deb hisoblayman. Nega deganda, o'zimiz – bugun shu yurda yashayotgan vatanparvar insonlar bu vazifani o'z zimmamizga olmasak, chetdan kelib hech kim hech qachon bu ishni qilib bermaydi.

Shu o'rinda buyuk bobolarimizning ma'naviy ola-mi xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to'xtalishimiz tabiiydir. Chunki

tengsiz azm-u shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan bu mumtoz siymo buyuk sultanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazarriy meros qoldirdi, ilm-u fan, madaniyat, bonyodkorlik, din va ma’naviyat rivojiga keng yo‘l ochdi.

Shaxsan men «Temur tuzuklari»ni har gal o‘qir ekanman, xuddiki o‘zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo‘lamon. O‘z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma’naviyati uchun bugun ham oziq bo‘ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko‘p bor ishonch hosil qilganman. Masalan, «Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirdor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshi-roqdir», degan so‘zlar bugungi kunda ham ma’naviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanı barchamizga ayon.

Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma’-noli hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo‘lgan «Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqrar» degan maqolga g‘oyat hamohang bo‘lib, insonni doimo aql-idrok,adolat va yuksak ma’naviyat asosida yashashga da’vat etishi bilan e’tiborlidir.

Buyuk Amir Temurning nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulug‘bekning o‘rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo‘ymaydi. Taqdir bu ulug‘

zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan sultanatning vorisi bo‘lishdek o‘ta mas’uliyatli vazifa aynan unga nasib etdi. Mirzo Ulug‘bek qariyb qirq yil mobaynida Mavarounnahr diyorining donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi – tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo‘lida ulkan shijoat va matonat ko‘rsatdi.

Bu benazir alloma o‘zida minglab yulduzlarning harakatini jamlagan mukammal astronomik jadvalni yaratdi. Ushbu jadvalda zikr etilgan ilmiy ma’lu-motlarning naqadar aniq va to‘g‘ri ekanini bugungi eng zamonaviy asboblar ham tasdiqlaydi. Ulug‘bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma’naviyati ning poydevoriga qo‘yilgan tamal toshlaridan biri bo‘lib, yurtimizda bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berilganini ko‘rsatadi. «Ziji jadidi Ko‘ragoniy» deb nomlangan Ulug‘bek astronomik jadvali o‘rtaschlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa olimlari orasida keng tarqalgani fikrimizning yaqqol isbotidir.

Bu haqda so‘z yuritar ekanmiz, beixtiyor 1996-yili Parijda YUNESKOning o‘sha paytdagi Bosh kotibi Federiko Mayor janoblari bilan bo‘lgan bir suhbat yodimga tushadi. O‘shanda janob Mayor Ulug‘bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi

kunda kompyuter yordamida tekshirib ko‘rilganda atigi bir necha daqiqaga farq qilishi aniqlandi, degan gapni aytib qoldi. Shunda men unga javoban, yo‘q, janob Federiko Mayor, Ulug‘bek xato qilgan bo‘lishi mumkin emas, balki kompyuterlar xato qilgan bo‘lishi mumkin, degan edim. Garchi bu gap do‘s-tona lutf tariqasida aytilgan bo‘lsa-da, o‘ylaymanki, uning zamirida chuqur haqiqat mujassam.

O‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ zotlardan yana biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo‘tabar nomi, ijodiy merosining bo‘qiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so‘z yuritamiz.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa.

Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.

Inson qalbining quvonch-u qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan

shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va bu-yukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ong-u shuuri-miz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebahohosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz.

Ma’lumki, biron-bir xalq ma’naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e’tirof xalqning g‘urur va iftixori, milliy o‘zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shu ma’noda, keyingi paytda buyuk ajdodlarimizning so’nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o’rganishga bo‘lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani bar-chamizni quvontiradi. Buning tasdig‘ini dunyoning turli mamlakatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e’lon qilinayotgan ilmiy va badiiy asarlar, ulug‘ ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ham ko‘rish mumkin. Shular qatorida Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug‘bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg‘oniy xotirasiga o’rnatilgan muhtasham haykallarni eslash joiz.

Xalqimizning asl tabiatida mavjud bo‘lgan ana shunday ilmiy-ma’naviy salohiyat va fazilatlar haqida gapirar ekanmiz, «Oqqan daryo oqaveradi», degan naql beixtiyor yodimizga tushadi. Chindan ham, tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilm-u ma’rifat va yuksak ma’naviyatga intilish hech qachon to‘xtamaganini, xalqimiz dahosining o‘lmash timsoli sifatida eng og‘ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo‘lib kelganini ko‘rishimiz mumkin.

Masalan, chorizm mustamlakasi davrida ma’rifat g‘oyasini baland ko‘tarib chiqqan jadid bobolarmizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo‘la oladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma’rifatparvar, fidoyi insonlarning o‘z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy top-tirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o‘chmaydi.

Ana shunday ulug‘ ajdodlarimizning ilmiy-ijodiy merosi va ibratli faoliyati keyinchalik diyorimizda Qori Niyoziy va Toshmuhammad Sarimsoqov, Habib Abdullayev va Sa’di Sirojiddinov, Obid Sodiqov va Sobir Yunusov, Yahyo G‘ulomov va Bo‘riboy Ahmedov, Oybek va G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya, Said Ahmad va Ozod Sharafiddinov, Lutfixonim Sarimsoqova va Halima Nosirova, Olim

Xo'jayev, Razzoq Hamroyev va boshqa ko'plab nomlari dunyoga tanilgan mashhur ilm-fan, adabi-yot va madaniyat arboblarining yetishib chiqishiga mustahkam zamin bo'lib xizmat qildi.

Yuqorida zikr etilgan misollarni umumlashtirgan holda, muhim bir fikrni xulosa tariqasida ta'kidlashni zarur, deb bilaman. Gap shundaki, tariximizda bunday benazir siymolarning mavjudligi – takroran aytishga to'g'ri keladi – o'ziga xos bir fenomen, ya'ni o'ta noyob hodisadir. Bu esa nafaqat bugungi, ayni paytda ertangi avlodlarimizning ham ma'naviy boyligiga aylanib, xalqimizga hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydigan ruhiy kuch-quvvat va madad berishi muqarrar.

Lekin ayni paytda, biz bir haqiqatni ham yaxshi anglaymizki, faqat o'tmishga, ajdodlar merosiga mahliyo bo'lib yurishning o'zi bilan uzoqqa borib bo'lmaydi.

Tariximiz sahifalari shundan dalolat beradiki, yurtimiz rivoji hamma zamонlarda ham bir tekis kechmagan.

Ayniqsa, temuriylar hukmronligidan so'ng – ya'ni XVII asrdan XX asrning boshlarigacha bo'lgan davrda Turkiston zamini siyosiy parokandalik, jaholat va qoloqlikka yuz tutdi. Uch xonlikka bo'linib ketgan mintaqaga uzoq muddat o'zaro ziddiyat va qarama-qirshiliklar, urush-janjallar girdobida qolib ketgani nafaqat iqtisodiy, moliyaviy va harbiy

salohiyat nuqtayi nazaridan, balki ijtimoiy-ma'naviy fikr rivojida ham ko'p salbiy oqibatlarni keltirib chiqargani barchamizga yaxshi ma'lum.

Tarix g'ildiragining aylanishi bilan, avvalambor, yurt hukmdorlari va amaldorlari xalqning taqdiri va kelajagi haqida qayg'urish o'rniga, o'z shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yib, jaholat va g'aflatga berilib ketishi oqibatida biz bugun yashayotgan mintaqqa umumbashariy taraqqiyot jarayonlaridan uzilib, rivojlanishdan keskin orqada qolib ketdi.

O'zaro nizo va adovatlarning kuchayishi, faqat o'z qobig'iga, umrini o'tab bo'lgan aqidalarga o'rashib yashash natijasida bir vaqtlar buyuk madaniyat va taraqqiyot davrlarini boshidan kechirgan el-yurtimizning bu paytga kelib qanday og'ir ahvolga tushib qolganini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, ko'p narsa o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

Bu hayotning shafqatsiz bir qonuniyati bor. Ya'ni, tarixning murakkab va hal qiluvchi burilish pallasida har qanday millat va elat o'z ahilli va birdamligini saqlab, o'z milliy manfaatlari yo'lida qat'iyat bilan turmasa, mas'uliyat va hushyorligini yo'qotadigan bo'lsa, oxir-oqibatda o'zining eng katta, tengsiz boyligi bo'lmish mustaqilligi va ozodligidan judo bo'lishi shubhasiz.

Ming afsuski, ana shunday mash'um qismat Turkiston xalqlarini ham chetlab o'tmadi: XIX asrdagi

chorizm istilosiga ko‘pgina sabablar bilan bir qatorda avvalambor o‘sha paytda mavjud bo‘lgan siyosiy boshboshdoqlik, hukmron kuchlarning uzoqni ko‘rolmasligi, ma’naviy zaifligi oqibatida ro‘y bergenini tarixiy misollar isbotlab turibdi. Bu achchiq haqiqat barchamizga, ayniqsa, bugun hayotga katta umid va ishonch bilan kirib kelayotgan yoshlarimizga doimo saboq bo‘lishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, biz o‘z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma’naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o‘z hissamizni qo‘sishimiz, shu asosda bugungi jahon ilm-u fani va madaniyatining yuksak cho‘qqilarini egallash-dek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo‘lishimiz darkor.

Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, **oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir**. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar — yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, ornомуш va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo‘ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqr anglash har

qaysi insonga xos bo‘lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma’naviy olamini tashkil etadi.

Ko‘p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqtolar shuni ko‘rsatadiki, inson o‘z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrida olar ekan.

Bolaning ongi asosan 5–7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta’sirida ma’naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi. Xalqimizning «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», degan dono maqoli, o‘ylaymanki, mana shu azaliy haqidatni yaqqol aks ettiradi.

Odamzot uchun bir umr zarur bo‘ladigan tabiiy ko‘nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o‘ziga xos va o‘ziga mos qobiliyati, atrofidagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o‘zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo‘lishi yoki ega bo‘lmagligi, kerak bo‘lsa, dunyo-qarashi – bularning barchasi avvalo uning tug‘ma tabiatini, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog‘liq ekanini hayot tajribasi ko‘p misollarda tasdiqlab beradi.

Aynan mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg‘ubor ongi bamisol bosma qog‘oz singari oiladagi, yonatrofdagi barcha voqealarni, ularning zami-

ridagi taassurotlarni o‘ziga shimib-singdirib oladi. Uning ota-onasiga, bobo va momolariga mehri va hurmati, o‘zini o‘rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan kunga takomillashib boradi.

Qisqacha aytganda, xonadondagi har bir narsa – daraxt va o‘simpliklar bo‘ladimi, turli o‘yinchoqlar, uy hayvonlari bo‘ladimi – bularning barchasi bolaning ko‘ziga go‘yoki olamning beqiyos mo‘jizasi bo‘lib ko‘rinadi va shu tariqa u yorug‘ dunyoni o‘zi uchun kashf qiladi.

Taassufki, ba’zi ota-onalar o‘z farzandining ana shunday qiziqishi va intilishlariga, uning ong-u tafakkurida har kuni bir o‘zgarish ro‘y berib, ko‘zida yangi-yangi savollar paydo bo‘layotganiga ahamiyat bermaydi. Boz ustiga, agar ota oilada o‘zini tutishni bilmasa, axloq-odob bobida farzandlariga o‘rnak bo‘lish o‘rniga qo‘pol muomala qiladigan bo‘lsa, bu holat, tabiiyki, bola ma’naviy olamining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, vaqtি-soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga noloyiq, xunuk bir odat sifatida namoyon bo‘ladi.

Yoki oilada qo‘ni-qo‘shnilarni ko‘rolmaslik, fisq-u fasod, ig‘vo muhiti hukmron bo‘lsa, hech shubhasiz, bularning barchasi bolaning xotirasida tuzatib bo‘lmaydigan og‘ir asorat qoldiradi. Ummumani, oiladagi ma’naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag‘ritosh bo‘lib voyaga yetishini tushunish qiyin emas.

Biz o‘z farzandlarimizning baxt-u saodatini, iqboli va kamolini ko‘rishni istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahalla-ko‘ydagi odamlarning xatti-harakati ham bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida doimo o‘ylashimiz, bu masalada zimmamizda qanday ulkan mas’uliyat borligini unutmasligimiz zarur.

Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma’naviy iqlimni o‘zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao bo‘lur edi. Bu haqda gapirganda, men mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning «O‘tgan kunlar» asaridagi qahramonlarning o‘zaro muomala va muloqotlari, ularning hatto kichik farzandlarini ham «siz»lab gapirishi misolida ota-bobolarimizning oila ma’naviyatiga qanchalik katta e’tibor bergeniga ishonch hosil qilaman.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda ham yurtimizda ana shunday go‘zal axloq mezonlari bilan yashab kelayotgan, o‘g‘il-qizlarini shu ruhda tarbiyalayotgan ko‘plab ibratli oilalar barchamizda havas uyg‘otishi tabiiydir.

Ma’lumki, o‘zbek xalqi azaldan o‘zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo‘yish, ularning qornini to‘q, ustini but qilish o‘z yo‘li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, axloq-

odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko'pgina hayotiy misollarda ko'rish mumkin.

O'z-o'zidan ravshanki, yuqorida zikr etilganidek, bola tarbiyasida sog'lom nasl masalasi ham muhim rol o'ynashini inkor etib bo'lmaydi. Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, **bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odam-zot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.**

Shaxsan menga «nasl» va «nasiba» degan so'zlar o'rtasida qandaydir ilohiy bog'liqlik bordek tuyuladi. Albatta, har bir bandaga rizq-nasibani Olloh taolo beradi. Lekin bu hayotda nasibasi butun va to'la bo'lishi uchun insonning o'zi ham chin dildan intilishi, surriyodini sog'lom muhitda tarbiyalashi katta ahamiyatga ega ekanini unutmasligimiz zarur.

Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlari-miz farzandlarimizning baxt-u saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxt-u saodat faqat boylik, mol-u mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqli, mehnatse-var, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

Shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib

tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'l mish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishini istardim.

Shu bois biz mustaqillik davrida oila institutini jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari, yurtimizdag'i ma'naviy o'zgarishlar bilan uyg'un tarzda rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishi sifatida doimiy e'tibor berib kelmoqdamiz.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida oilaning ijtimoiy maqomi aniq belgilab qo'yilgani, shu asosda Oila, Fuqarolik, Uy-joy kodekslari va boshqa zarur qonun hujjatlari qabul qilinib, bu borada tegishli huquqiy poydevor yaratilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Ma'lumki, keyingi yillarda yurtimizda har qaysi yilga aniq bir nom berib, shu asosda maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish yaxshi an'anaga aylanib qoldi.

Agar ushbu masalaning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu yo'ldagi dastlabki salmoqli qadamlarimiz 1998-yilni mamlakatimizda «Oila yili» deb e'lon qilish bilan boshlanganining o'zi ham, o'ylaymanki, ko'p narsani anglatadi.

Shu ma'noda, oilani, uning boqiy qadriyatlarini ulug'lab, mamlakatimizda «El-yurt tayanchi» degan

muazzam yodgorlik barpo etganimiz ko‘pchilikning ko‘nglidagi ish bo‘lganini ta’kidlash joiz.

Qadimiy Qarshi shahrining 2700 yillik to‘yi arafasida shu tabarruk zaminda qad rostlagan bu muhtasham badiiy obida orqali biz ming yillar davomida qancha-qancha sinov va mashaqqatlarni boshidan kechirib, o‘z ona yurtini har qanday balo-qazolardan asrab-avaylab kelgan, o‘g‘il-qizlarini aql-zakovat, mardlik va matonat sohibi etib tarbiyalagan bunyodkor xalqimizga, uning tom ma’noda tayanchi bo‘lgan oilaga cheksiz hurmat-ehtirom tuyg‘usini mujassam etishni maqsad qilib qo‘ydik. El-yurtimizning olijanob qarashlariga g‘oyat hamo-hang bo‘lgan ushbu yodgorlik majmuasi qisqa vaqt ichida tabarruk ziyoratgohga aylanib qolgani barchamizni quvontiradi.

Muxtasar aytganda, **hammamizga ayon bo‘lishi tabiiyki, oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir.**

Ma’naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, **mahallaning roli va ta’siri** xususida to‘xtalish albatta o‘rinlidir. Ma’lumki, azaldan o‘zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo‘lib keladi. O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘y-tomosha, hashar va ma’rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda

ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an’analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Xalqimizga xos o‘zini o‘zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani beziz emas. Biz «Mahalla – ham ota, ham ona» degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz.

Mahalla haqida gapirganda, ko‘pchilik ana shunday chuqur ma’noli so‘zlarni eslashi va tilga olishi tabiiy. Ular shu tariqa nainki o‘zlarining dard-u tashvishlarini hal qiladigan ta’sirchan ijtimoiy fuqarolik idorasi, ayni vaqtda ona yurt ramzi bo‘lgan mahallaga o‘zining munosabatini izhor etadi.

Mustaqillik yillarda mahalla hayoti bilan bog‘liq ko‘plab qadriyatlar, udum va an’analarimiz qayta tiklanib, zamon talablari asosida boyib bormoqda. Shu bilan birga, mahallaning huquq va vakolatlari kengaytirilmoqda, ular bugun o‘zini o‘zi boshqarish idorasi, haqiqiy demokratiya darsxonasi sifatida keng ko‘lamli faoliyat olib bormoqda. Davlatchiligidimiz tarixida birinchi marta «mahalla» tushunchasi Konsitutsiyamizga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va maqomi qat’iy belgilab qo‘yildi. Mahalla boshqaruviga bunday katta e’tibor bugun mam-lakatimizda olib borilayotgan siyosatning xalqchiligidan dalolat beradi. Ayni paytda u yurtimizda amalga oshirilayotgan «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat

sari» degan tamoyilning amaliy ifodasi bo'lib, ma'naviy hayotimizni yanada mustahkamlash, yosh avlodimizning ong-u tafakkurini zamonaviy asosda shakllantirish borasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mahallaning xalq ma'naviyati bilan bog'liq jihatlari haqida so'z yuritib, ularni ko'z o'ngimizdan o'tkazib, atroflicha tahlil qilar ekanmiz, hech ikkinmasdan aytish kerakki, biz har qaysi xonadon, butun el-yurtimizdagi ma'naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bo'lsak, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini avvalo mahalla hayotida xuddi oynadek yaqqol ko'rish imkoniga ega bo'lamiz.

Shu sababli biz ma'naviy hayotimizni, milliy ong va qadriyatlarimiz, e'tiqod va tafakkurimiz, urf-odat va an'analarimizni asrab-avaylash, ma'naviy olamimizni yuksaltirishga intilar ekanmiz, bularning barchasi mahalla idorasiga yanada ko'proq imkoniyat berish, uning huquqiy va amaliy vakolatlarini kengaytirish bilan bevosita aloqador ekanini o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz. Shu orqali biz o'zimizning ezgu maqsadimiz bo'lmish erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida, hech shubhasiz, ulkan qadam qo'ygan bo'lamiz.

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu **ta'-lim-tarbiya tizimi** bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebahol boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani

inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Albatta, ta’lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni, xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o’zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo’lmaydi.

Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yonda-shuvlarga, puxta o’ylanmagan ishlarga mutlaqo yo’l qo’yib bo’lmaydi. Maktab, ta’lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo’lishi Asosiy qonunimizda belgilab qo’yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo’llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir.

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poy-devori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq.

Buning uchun har qaysi ota-onas, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko’rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo’lishi lozim,

deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi — bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir» degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zлari o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lган bo'lsa, hozirgi vaqtida ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Nega deganda, bizga sobiq tuzumdan meros bo'lib qolgan maorif tizimining eng noma'qul tomoni shundan iborat ediki, unda o'quv jarayonida o'quvchi va talabalarning mustaqil va erkin fikrlashiga yo'll qo'yilmas edi. Har qaysi o'quv yurtini bitiruvchilarning bilimiga qarab emas, aksincha, ularning sobiq sovet tizimiga va soxta g'oyalarga sadoqatini hisobga olib baholash va hayotga yo'llash tamoyili asosiy o'rinni egallar edi. Ko'p hollarda sifat o'rniga son ketidan quvish ustunlik qilardi. Aksariyat yoshlar haqiqiy bilim yoki malaka orttirish maqsadida emas, ko'proq amalda diplomli bo'lib olish ilinjida texnikum yoki institutlarga kirar edi.

Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yil-

laridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish bilan bog'liq jarayon uzoq yillar mobaynida bu sohada talay muammolar yig'ilib qolganini ko'rsatdi. Men bunga ushbu dastur loyihasi ustida sakkiz oy mobaynida ishlash jarayonida shaxsan amin bo'ldim. Shuning uchun ham bu og'ir, mas'uliyatli, ammo hal qilishni aslo paysalga solib bo'lmaydigan ishni qadam-baqadam, izchillik bilan bajarishga bel bog'ladik.

Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda men jahon tajribasi va hayotda o'zini ko'p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi «port-lash effekti»ga, ya'ni, yangi ta'lim modelining kuchli samarasiga erishamiz, degan fikrni bildirgan edim.

Darhaqiqat, istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlarimiz misolida ana shunday orzu-intilishlarimiz bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lmoqdamiz.

Eng muhim shundaki, «portlash effekti»ning haqiqiy mohiyati va ahamiyati vaqt o'tishi bilan, biz tarbiya qilayotgan sog'lom va barkamol avlodning safimizga tobora ildam kirib borishi bilan yanada yaqqolroq seziladi.


Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish jarayonida maktab ta'limi, ayniqsa, umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish biz uchun kun tartibidagi eng muhim va jiddiy masalaga aylandi.

Shu maqsadda yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uzviy va mantiqiy davomi bo'l-mish 2004–2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish umummiliy davlat dasturi qabul qilindi.

Ushbu dasturga muvofiq, yurtimizda mavjud bo'lgan o'n mingga yaqin umumta'lim maktabining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish, o'qituvchilarning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratdi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Samarkand. Registon maydoni






Toshkent. Ezgulik arkasi



Toshkent. Amir Temur haykali




Samarqand. Amir Temur haykali



Shahrisabz. Amir Temur haykali

Samarqand. Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi






Toshkent. Mustaqillik va ezgulik monumenti



Toshkent. «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasi



ZDASAN JIGARIM

ТЫ ВСЕГДА В НАШИХ СЕ

1 VA OZODLICIGI VAKHTU SAQDARI UCHUN NAUQON OILGAN VATANDOSHLARI IV XOTIRASI HA ISHA
IMIX SOOPECHETSHENIKOV ODAVISHI SVOI ZHIZN' SVOBAJU I NEZAVISIMOSTY. CHASTYE HAШELO H

УЧЕНЫЕ И ПОДДЕРЖКА УЧЕНЫМ

Toshkent. Motamsaro ona monumenti




Toshkent. Alisher Navoiy haykali



Buxoro. Bahouddin Naqshband ziyoratgohi



Farg'ona. Ahmad Farg'ony haykali




Termiz. Alpomish yodgorligi



Marg'ilon. Burhoniddin Marg'inoniy yodgorligi



Urganch. Jaloliddin Manguberdi haykali



Samarcand. Shohi Zinda

Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi

Ma'naviyatning inson va jamiyat hayotidagi mohiyati va ahamiyati haqida fikr yuritganda, bu borada asrlar davomida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan bir masalaga alohida to'xtalib o'tish lozim, deb o'ylayman. Ya'ni, odamning kundalik hayoti va faoliyatida moddiy va ma'naviy asoslar bir-biriga nisbatan qanday o'rinn tutishi, ularning qaysi biri ustuvorlik kasb etishi haqida turli-tuman, ba'zan esa ziddiyatli fikr va qarashlar mavjud bo'l-ganini va bunday tortishuvlar hozirgacha davom etayotganini kuzatish qiyin emas.

Bashariyat tarixida yashab o'tgan ne-ne buyuk allomalar bu masala bo'yicha ko'plab asarlar yaratib qoldirgani ham shundan dalolat beradi.

Misol uchun, qadimiy hind, xitoy yoki yunon faylasuflarini olasizmi, o'rta asrlardagi Sharq va G'arb Uyg'onish davri namoyandalarini olasizmi, islom olamida nom qozongan mutafakkir zotlarni olasizmi – ularning ilmiy merosida moddiy va ma'naviy olam o'rtasidagi munosabatlarga keng o'rinn berilganini ko'rish mumkin.

Masalan, antik davr faylasuflari bo'lmish Sokrat va Platon, Epikur va Demokrit, xitoy donishmandi Konfutsiy va boshqa allomalarining bu boradagi nazariy qarashlari fan tarixidan yaxshi ma'lum. Ularning ayrimlari ruhiy olamni birlamchi deb bilsa, ba'zilari esa moddiy olamni asosiy o'ringa qo'yadi.

Ana shunday tushuncha va tasavvurlar asosida keyinchalik materializm va idealizm kabi ta'limotlar maydonga chiqdi. O'ylaymanki, bu o'rinda ularning tarixi, ma'no-mazmuni haqida batafsil to'xtalib o'tirishning hojati bo'lmasa kerak.

Albatta, bunday falsafiy yondashuvlarning har biri o'z davridagi mayjud siyosiy-ijtimoiy vaziyat, hukmron mafkura, jamiyatning huquqiy va madaniy saviyasi, turli sotsial guruh va toifalarning qarashlarini ifoda etishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida bunday bahslar sof nazariy masala doirasidan chiqib, ma'lum bir tuzum yoki davlatning rasmiy mafkurasi maqomini ham olgan. Buning tasdig'ini uzoqqa bormasdan yaqin tariximizda — sho'ro zamonida materialistik qarashni ustun qo'yish natijasida materiya birlamchi, ong esa ikkilamchi, degan tamoyilning hukmron dunyoqarash darajasiga ko'tarilgani, buning oqibatida insonning ma'naviy qadriyatları, ayniqsa, uning milliy va diniy tuyg'ulariga bepisand qarab kelingani misolida ham ko'rish mumkin.

Ushbu masalaga chuqurroq va atroflicha nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo shuni aytish kerakki, bu ko'hna dunyo, biz yashayotgan hayot yagona, yaxlit bir voqelikdir. Shunday ekan, moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo'yish, ularning birini ustun deb bilgan holda,

tiriklikning asosiy maqsadi sifatida qabul qilish qandaydir biryoqlama qarash ifodasi, deb aytsak, xato bo'lmaydi.

Qolaversa, bu masalaga bunday keskin yonda-shuv, xususan, odamning ruhiy dunyosini mensi-maslik, uni ikkilamchi o'ringa qo'yish oxir-oqibatda jamiyat hayotida inqirozga olib kelishi muqarrar ekanini tarix ko'p marotaba isbotlagan.

Bir so'z bilan aytganda, inson o'z timsolida ham moddiy, ham ma'naviy xususiyat va alomatlarni mu-jassam etgan noyob xilqat, Yaratganning buyuk va sirli mo'jizasidir. Shuning uchun ham uning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxiriga-cha anglash, tushunishning o'zi o'ta murakkab bir masala.

Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisol parvoz qila-yotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylay-manki, o'rinali bo'ladi.

Qachonki ana shu ikki muhim omil o'zaro uy-g'unlashsa, tom ma'nodagi qo'sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi.

Biz istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab xal-qimizning asrlar davomida intilib kelgan orzu-maqsadlari va zamon talablarini, dunyoviy taraqqiyot

mezonlarini hisobga olgan holda, jamiyatimiz ha-yotida ana shu ikki omilning uyg‘un tarzda rivoj-lanishiga alohida e’tibor qaratdik. Mustaqillik biz uchun nafaqat iqtisodiy, balki beqiyos ma’naviy imkoniyatlar manbayi ekanini anglab, mamlakati-mizning ichki va tashqi siyosatini, iqtisodiy-ijtimoiy yangilanish jarayonlarini aynan shu asosda tashkil etishga ustuvor ahamiyat berdik.

Shu o‘rinda ba’zi bir siyosatchi va nazariyot-chilarning, oldin moddiy hayotni, keyin ma’naviy masalalarini o‘ylash kerak, degan mazmundagi fikrlari mutlaqo xato bo‘lib, yangi jamiyat, yangi hayot qurish jarayonida faqat zarar yetkazishi mumkinligini bugun hayotning o‘zi har qadamda tasdiqlab bermoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bozor munosabatlariga o‘tish davrida jamiyat a’zolarining o‘z salohiyati va iste’dodini ro‘yobga chiqarishi uchun ularga bиринчи galda teng imkoniyat va erkinlik muhitini, ham qonuniy, ham amaliy shart-sharoitlarni yaratib berish zarur. Oddiy qilib aytganda, kuch-g‘ayrat bilan birga, bilim va tajribasi, aql-idroki, kasb malakasi yetarli bo‘lgan, qonunlarni, o‘z haq-huquqlari va majburiyatlarini yaxshi bilgan odamgina tadbirkorlik yoki fermerlik bilan shug‘ullanishi, o‘z xususiy ishini oqilona va samarali tashkil etishi mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, moddiy va ma’naviy hayot

tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro bog‘lanib, bir-birini to‘ldiradi. Yuksak taraq-qiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o‘z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog‘liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi.

Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, biz iqtisodiy o‘nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ma’naviy poklanish, ma’naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg‘un ravishda rivojlanib borishini doimo davlatimiz va jamiyatimizning e’tibor markaziga qo‘yib kelmoqdamiz.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining joriy etilishi tufayli yurtdoshlarimizning ong-u tafakkuri va dunyoqarashi qanchalik o‘zgarib ketgani ham shundan dalolat beradi. Ko‘pchilikka yaxshi ayonki, 90-yillarning boshlarida aksariyat odamlar bizda ham kimningdir xususiy zavodi yoki fermasi u yoqda tursin, kichkinagini do‘konni bo‘lishi mumkinligini ham tasavvur eta olmas, tasavvur etgan taqdirda ham o‘ziga qabul qila olmas edi. Chunki hamma narsa davlat mulki bo‘lgan eski tuzumda xususiy mulkka ega bo‘lish, tadbirkorlik va kichik biznes bilan shug‘ullanish bizga begona bo‘lgan tushunchalar sifatida baholanar edi. Bugungi kunda esa xususiy mulk tushunchasiga nisbatan munosabat qanday o‘zgarib, u hayotimizdan qanchalar chuqr

joy olib borayotganiga barchamiz guvohmiz va bu holat hech kimni hayron qoldirmaydi.

Kishilik tarixi, bugun dunyodagi ko‘pgina taraqqiy topgan, barqaror va badavlat yashab kelayotgan davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, avvalo o‘zining xususiy mulkiga ega bo‘lgan shaxs va bunday shaxslardan tashkil topgan toifa o‘zini va oilasini boqishga, shu bilan birga, orttirgan daromadi hisobidan o‘z yaqinlari va muhtoj insonlarga beg‘araz yordam ko‘rsatish, el-yurt uchun xizmat qiladigan maktab, kasalxona, madaniyat va sport maskanlari barpo etish, bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, davlat va jamiyat zimmasidagi ko‘pgina vazifalarni amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Eng muhimi, bunday insonlar yurtimizda tinchlik-osoyishtalik va barqarorlikni saqlash va himoyalash, yorug‘ kelajagimizni qurish yo‘lida astoydil jon kuydirib mehnat qiladi.

Bularning barchasi ma’naviy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizdan oziqlangan iqtisodiy taraqqiyot yo‘limiz jamiyatimiz hayotiga qanday ijobjiy ta’sir ko‘rsatayotganining yorqin ifodasıdır. Eng muhimi, yurtimizda moddiy va ma’naviy jarayonlarning o‘zaro mutanosib tarzda rivojlantirilayotgani siyosiy-ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam garovi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ikkinch bob

MUSTAQILLIK – MA’NAVIY TIKLANISH VA YUKSALISH

Milliy g‘oya va ma’naviy hayot

Insoniyatning ko‘p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, bu dunyoda o‘zining milliy davlatini qurishga azm-u qaror qilgan har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo‘lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg‘otish, eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga o‘tishda o‘ziga qo‘srimcha kuch-quvvat va madad topishda umumiyligi, yagona maqsad va orzu-intilish ifodasi bo‘lgan milliy g‘oyani tayanch va suyanch deb biladi.

Milliy g‘oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o‘tib, asrlar davomida e’zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta’bir joiz bo‘lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlarini o‘zimizga tasavvur qiladigan bo‘lsak, o‘yaymanki, bunday keng ma’noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo‘lamiz.

Istiqlolimizni qo‘lga kiritgan ilk kunlardan boshlab, biz milliy g‘oyamizning eng asosiy tushuncha

va tamoyillarini belgilab olish va ishlab chiqishga harakat qildik. Shu maqsadda ijtimoiy fanlar sohasidagi yetakchi olimlar, siyosatshunos va iqtisodchilar, ijodkor ziyolilar, keng jamoatchiligidan e'tiborini ana shu muhim masalaga qaratdik. Xalqimizning asriy orzusi, ko'zlagan yuksak maqsadlarimizga yetishning asosiy omili – avvalambor mustaqillikni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash bilan bog'liq ekanidan kelib chiqqan holda, milliy g'oyamizning ma'no-mazmunini ham ana shunday mezonlar negizida belgilashni vazifa qilib qo'ydi va bu borada bir qancha e'tiborga loyiq ishlarni amalga oshirdik.

Ayni paytda hozirgi murakkab va tahlikali zamon talablari, jamiyatimizni yangilash, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bilan bog'liq maqsadlarimizga uyg'un va hamohang ravishda hayotning o'zi oldimizga yangi-yangi vazifalarini qo'ymoqda.

Tabiiyki, milliy g'oyamiz shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning olijanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Butun insoniyat tarixi, xalqimizning necha ming yillik o'tmishi achchiq saboq va xulosalar asosida bir haqiqatni isbotlab bermoqda. Ya'ni, biz barqaror taraqqiyot va farovon hayotga erishish yo'lida o'z oldimizga qanday reja va dasturlarni qo'ymay-

lik, barcha olijanob orzu-intilishlarimizni amalga oshirishning yagona sharti va garovi – bu tinchlik va osoyishtalikdir. Bejiz emaski, yurtimizdagi qaysi xonadonga kirmang, qanday yig‘in yoki ma’raka bo‘lmasin, fotihaga qo‘l ochilganda, yosh-u qari, erkag-u ayol – barchamiz Yaratgandan tinchlik va osoyishtalikni so‘rab duo qilamiz.

Ma’lumki, insonning eng ustuvor va muqaddas huquqlaridan biri – bu tinch yashash huquqidir. Davlat va jamiyatning burchi ana shu huquqni barcha qonuniy vositalar bilan kafolatlab berishdan iborat. Bu huquqni amalga oshirish – davlat va jamiyatni demokratlashtirishning eng muhim shartidir. Demokratianing insonparvarligi ham birinchi galda ana shu mezon bilan o‘lchanadi.

Milliy g‘oyamizning asosiy mazmunini ifoda etadigan yo‘nalishlar haqida gapirganda, hech shubhasiz, biz Vatan ravnaqi va taraqqiyotini o‘zimizga tasavvur qilamiz.

O‘z kindik qoni to‘kilgan, ota-bobolari xoki yotgan ona yurtni dunyoda tensiz, muqaddas Vatan deb biladigan odamning maqsad-muddaolari aniq, g‘urur va iftixori yuksak bo‘ladi.

Vatan ravnaqi avvalo uning farzandlariga, ularning ma’naviy va jismoniy kamolotiga bevosita bog‘liq. Bu o‘z navbatida har bir yurtdoshimizni zimmasidagi yuksak fuqarolik mas’uliyatini his etishga, o‘z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan

uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi. Va har qaysi fuqaro o'z mamlakatining xalqaro hamjamiyat safidan munosib o'rinni olishi, bugungi kunda taraqqiy topgan tinch va badavlat yashayotgan davlatlar qatoriga ko'tarilishidan manfaatdor bo'lishi shubhasiz.

Bir so'z bilan aytganda, bu ikki tushuncha – Vatan ravnaqi va farovonlik masalasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanini tushunish qiyin emas.

Ana shunday mantiqiy xulosadan kelib chiqqan holda, xalq farovonligi degan ezgu tushunchani ham milliy g'oyamizning negizini tashkil etadigan tamoyillar qatoriga qo'yishimiz tabiiydir.

Nega deganda, bu dunyoda har bir odam to'q va badavlat hayot kechirish, el-yurt uchun munosib farzand tarbiyalash, ularga bilim berish, uyli-joyli qilish, ularning baxt-u kamolini ko'rish orzusi bilan yashaydi.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning pirovard maqsadi – odamlarimizning ana shunday orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish, xalqimizga har tomonlama munosib turmush sharoiti yaratib berishdan iborat ekani haqida takroran gapirishning hojati yo'q, deb o'ylayman.

Bu maqsadga erishish uchun yurtimizda barcha asoslar – tabiiy boyliklar, unumdor yer, katta iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, insoniy va ma'nnaviy salohiyat mavjud. Eng muhimi, bu diyorda ana shu

farovon hayotni o‘z kuchi, o‘z aql-zakovati bilan barpo etishga qodir bo‘lgan mehnatsevar va iste’dodli xalq yashaydi.

Muxtasar qilib aytganda, milliy g‘oyamizga qaysi tomondan ta’rif va baho bermaylik, xalqimizni birlashtiradigan bu oliy maqsadlar asrlar davomida uning yuragidan, qalbidan joy olib kelgan orzu-armon va ezgu intilishlar bilan chambarchas bog‘liq ekaniga ishonch hosil qilamiz.

Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa – ana shu yuksak tushunchalar bilan birga **milliy g‘oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi tamoyillarning** ma’no-mohiyatini bugungi kunda mam-lakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim-tarbiya ishlarining markaziga qo‘yish, ularni yangi bosqichga ko‘tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat.

Ta’kidlash joizki, biz fuqarolar dunyoqarashini boshqarish fikridan yiroqmiz, balki odamlarning tafakkurini boyitish, uni yangi ma’no va mazmun bilan to‘ldirish tarafdomiz.

Albatta, barchamiz yaxshi tushunamizki, «milliy g‘oya» degan so‘z faqat bir millatga mansub bo‘lib qolmasdan, mana shu tabarruk diyorimiz – O‘zbekiston tuprog‘ida yashayotgan, uni o‘z ona Vatani

deb biladigan barcha millat va elatlarga birdek daxldordir.

Milliy g‘oyada mujassam bo‘lgan buyuk maqsadlarni ro‘yobga chiqarish avvalambor jamiyatimiz va shu jamiyat a’zosi bo‘lmish har qaysi insonning ma’naviy olami va dunyoqarashidagi ijobiy o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq ekanini unutmasligimiz zarur.

Shu o‘rinda bir fikrni alohida urg‘u berib aytishni joiz deb bilaman.

Bizning eng ulug‘ maqsadimiz, eng ulug‘ g‘oyamiz shuki, O‘zbekistonning bitta yo‘li bor: mustaqillikni mustahkamlab, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib, yorug‘ va erkin hayot sari olg‘a yurish.

Mafkuramiz, tutgan yo‘limiz, bor kuch-g‘ayratimiz ana shu ulug‘vor niyatni amalga oshirishga yo‘naltirilishi kerak. Xalqimizni, yurtimizdagi barcha siyosiy kuchlarni, nodavlat tashkilotlarni yagona umumiy maqsad atrofida birlashtiradigan, bir tan-u bir jon qiladigan milliy g‘oya ham aslida shu.

Ma’naviyat va jamiyatning yangilanishi

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish masalasi biz uchun g‘oyat dolzarb ahamiyatga ega.

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizning sama-

radorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lif rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir.

Shu boisdan ham, o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofida sodir bo'layotgan voqeа-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi istiqlol yillarida biz uchun hal qiluvchi masalaga aylandi.

Ta'kidlash joizki, bu jarayon yurtimizda o'ta murakkab sharoitda — mustabid sho'ro tuzumi barbod bo'lgan va yangicha ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan keskin bir vaziyatda yuz berdi.

Mana shunday o'ta qaltis va murakkab bir davrda yurtimizdagи tinchlik va barqarorlikni asrab qolish, Markazdan bo'layotgan turli zararli ta'sirlardan xalqimizni himoya qilish, o'z mustaqil siyosatimizni ishlаб chiqish va amalga oshirish maqsadida 1990-yilning 24-mart kuni respublika Oliy Kengashining birinchi sessiyasida prezidentlik boshqaruvi joriy etildi.

Ta'kidlash joizki, o'shanda SSSR hududidagi respublikalar orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shunday yuksak lavozim joriy etilgan va shu tariqa

biz yurtimizni mustaqillik yo'liga boshlagan dastlabki qadamni qo'ygan edik.

O'sha sessiya majlisida respublikamizda vujudga kelgan og'ir vaziyat va uni tuzatish bo'yicha oldimizda turgan eng asosiy vazifalar haqida so'z borganda, bir-biridan dolzarb, bir-biridan muhim muammo-larni yechish borasida aynan ma'naviyat masalasiga alohida to'xtalib, xalq noiblari, butun xalqimizga qarata men quyidagi fikrlarni bildirgan edim:

«Bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalarni ko'z o'ngimizdan o'tkazar ekanmiz, aholining kundalik ehtiyojlariga bevosita daxldor dolzarb masalalarni hal qilish bilan bir qatorda biz eski tuzum davrida inson hayotining negizi va murakkab tomonlari, milliy qadriyatlar, tarixiy an'analar, umuminsoniy ma'naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik jamiyatimizga qanchadan qancha zarar keltirganini unutmasligimiz kerak.

Bu borada asosiy ishlarimiz nimalardan iborat bo'lishi lozim?

Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan.

Bizning vazifamiz – shu xazinani ko'z qorachi-g'imizdek asrash va yanada boyitish.

So'zda emas, amalda har bir kishining vijdon

erkinligini, e'tiqod erkinligini ta'minlashimiz kerak. Biz odamlarning ma'naviy tarbiyasini o'ylab, tinchlik va xayrli ishlarni ko'zlab harakat qilayotgan har bir kishini qo'llab-quvvatlaymiz, ular bilan hamkorlik qilamiz.

Masalaning boshqa tomoni – ma'rifat va madaniyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash. Insonning to'laqonli hayoti uchun nihoyatda zarur bo'lgan maktablar, kutubxonalar, teatr va boshqa madaniyat o'choqlarini ko'paytirish, ularning sharoitini yaxshilash.

Biz ko'p yillar davomida ma'rifat va madaniyatga noto'g'ri munosabatda bo'ldik. Unga sarflanayotgan mablag'lar doim boshqa sohalardan kam bo'ldi. Natijada biz bu masalada orqada qolib ketdik.

Bundan buyon barcha rejalarimizda madaniyat, ma'rifat, jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy olishi lozim.

Va nihoyat, shu sohalarda ishlayotgan kadrlar masalasi. O'qituvchilar va shifokorlar, madaniyoqartuv muassasalaridagi va boshqa sohalardagi ko'plab mutaxassislar – chinakam ziyolillardir.

Ayniqsa, olimlar va ijodkor xodimlarimizga e'tiborni kuchaytirish kerak. Chunki ma'naviy boyliklarni aynan shular yaratadi. Ularga g'amxo'rlik qilish, samarali faoliyati uchun barcha zarur moddiy-ma'naviy sharoitlarni yaratib berish davlat

hokimiysi va xo‘jalik tashkilotlari rahbarlarining burchi va mas’uliyatli vazifasidir.

Yana bir dolzarb vazifa – o‘sib kelayotgan avlodga, uning ma’naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlardan xalq ma’naviyatining munosib egalaridir. Shuning uchun har bir o‘g‘il-qizimiz dastlabki qadamlaridan boshlab madaniy boylik-larimizdan bahramand bo‘lishi kerak.

Iste’dodli yoshlarimizning, yigit-qizlarimizning o‘z qiziqqan sohalarida yetuk insonlar bo‘lib yetishishi uchun tegishli shart-sharoitlar hali to‘la yaratilgani yo‘q.

Agarki biz o‘zimizning ma’naviy burchimizni oqlashni istasak, ularga otalarcha g‘amxo‘rlik qilishimiz kerak. Ana shu maqsadda biz ularning mamlakatimiz va chet ellardagi nufuzli ilmiy markazlarda ta’lim olishi uchun mablag‘lar ajratdik. Bu ishlar uchun hech narsani, shu jumladan, valyutani ham ayamaymiz.

Keyingi paytda san’atda oshkorlikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo‘limg‘ur lavhalarni aks ettirish, bema’nilik va hayosizlikni, ba’zan esa, hatto axloqiy buzuqlikni targ‘ib qilishlar ko‘payib qoldi.

Barchamiz – qayerda, qanday lavozimda ishlaymaylik, jamiyatimizning insoniylik va axloqiy aqidalarini poymol qiladigan ana shunday tajovuzkorlik ko‘rinishlariga qat’iy ravishda qarshi turishimiz lozim.

Bunday munosabat jamoatchiligimiz, xalqimizga ham ma'qul bo'ladi, deb ishonaman».

Oradan yillar o'tib, millatimiz, xalqimizning kelajagi, uning ma'naviy hayotini boyitish maqsadi bilan yo'g'rilgan bunday so'zlar hali istiqlolimizdan bir yil-u to'rt oy oldin, aynan ona tilimizda aytiganini hisobga oladigan bo'lsak, bugun hayotga kиrib kelayotgan yoshlarimiz uchun, o'ylaymanki, ko'p narsa ayon bo'ladi.

Ayni paytda yurtimizda milliy tiklanish jarayoni qariyb bir yarim asr davom etgan ijtimoiy-siyosiy qaramlikdan keyin dastlabki paytlarda mutlaqo tabiiy ravishda o'ziga xos «inkorni inkor» qonuniyati asosida kechganini aytish lozim. Lekin biz sobiq tuzumning mafkuraviy qarashlarini umuman inkor etishning o'zi hech qanday bunyodkorlik dasturiga ega bo'limgan siyosiy va madaniy ekstremizm xavfini tug'dirishi ehtimolini yaxshi anglar edik. Shu bilan birga, tarixiy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, turmush tarziga orqa-oldini o'yamasdan, yoppasiga betartib qaytish boshqa bir keskinlik, deylik, bu-gungi davr hayotini qabul qilmaslik, jamiyatni yangilash zaruratini inkor etish kabi nomaqbul holatlarga olib kelishi mumkinligini ham unutmaslik zarur edi.

Barchamizga ma'lumki, millat va xalqning ruhi, dunyoqarashi va turmush tarzini ifoda etadigan milliy ma'naviyatga munosabat, uni zamon talablari asosida

rivojlantirish, odamlarning dunyoqarashi va tafakkurini o'zgartirish masalasi har tomonlama chuqur va puxta o'yab ish yuritishni talab qiladi. O'sha paytda ba'zi odamlar, mana, biz mustaqillikka erishdik, endi faqat ota-bobolarimizdan qolgan qadriyatlar asosida yashashimiz kerak, boshqacha qarashlarning bizga hojati yo'q, degan asossiz fikrlarni ham bildirgan edi. Tabiiyki, bunday fikrlarga aslo qo'shilib bo'lmas edi.

Bu borada to'g'ri yo'l tutish uchun avvalambor milliy qadriyatning o'zi nima ekanini aniq tushunib olish zarur. Albatta, biz tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-tilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalarni qadriyat deb bilamiz.

Har qanday ijtimoiy hodisa singari milliy qadriyatlarning ham o'ziga xos rivojlanish qonuniyati bor. Bu haqiqatni unutish, milliy qadriyatlarni biryoqlama, sun'iy ravishda ulug'lash va ideal-lashtirishga urinish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanish salbiy oqibatlarga olib kelishi hayotda ko'p bora o'z isbotini topgan. Ayniqsa, O'zbekiston kabi ko'pmillatli, ko'pkonfessiyali mamlakatda bunday harakatlar oxir-oqibatda millatlararo ziddiyat, millatchilik, milliy va diniy betoqatlik kabi noxush holatlarga olib kelishi mumkin.

Biz xalqimizning aql-idroki, mustahkam irodasi, bag'rikengligi va insonparvarligiga tayangan holda,

bu borada amalga oshirgan bir qator ishlar bugungi kunda o‘zining ijobiy samarasini bermoqda.

Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir.

Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so‘zlari bilan aytganda, «Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur».

Bu haqda gapirganda, mustaqillik arafasida o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida qanday qizg‘in, ba’zida keskin va murosasiz bahs va tortishuvlar bo‘lib o‘tgani beixtiyor yodimizga tu-shadi. O‘sanda ayrim siyosiy guruhlar O‘zbekiston sharoitiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan, bir-biriga butunlay zid va qarama-qarshi fikrlarni olg‘a surgan, shuning hisobidan o‘ziga obro‘ topish, odamlarni ortidan ergashtirishga uringan edi. Nega deganda, til bilan bog‘liq muammolar orqali milliy tuyg‘ularni ro‘kach qilib, ulardan g‘arazli maqsadlarda foydanish mumkin.

Mana shunday o‘ta qaltis va murakkab vaziyatda agarki ozgina ehtirosga berilsak, hushyorlikni yo‘qotsak bormi, arzimagan uchqundan o‘t chiqib

ketishi hech gap emasdi. Markazda va o‘zimizda qulay bahona kutib, payt poylab turgan imperiyaparast kuchlarga aynan shu narsa kerak edi. Ammo biz ular kutgan yo‘ldan bormadik. Og‘ir-vazminlik bilan ish tutib, har tomonlama o‘ylab, mulohaza qilib, barcha siyosiy va ijtimoiy guruhlarning talablarini qondiradigan, eng muhimi, xalqimiz va Vatanimiz manfaatlariga javob beradigan yagona to‘g‘ri yo‘lni topishga erishdik.

Avvalo, respublika Oliy Kengashi qoshida davlat tili bo‘yicha taniqli olimlar, ijodkor ziyolilar, journalistlar va jamoatchilik vakillaridan iborat maxsus komissiya tashkil qilindi. Komissiya a’zolari ahollining turli ijtimoiy qatlamlari, siyosiy guruhlar, barcha millat va elat vakillari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarini atroflicha o‘rganib, respublika rahbariyati va keng jamoatchilikka doimiy axborot berib borar edi. Ana shunday ishchanlik ruhida Oliy Kengash sessiyasiga taqdim etiladigan loyihaning har bir moddasi bo‘yicha har taraflama fikr almashuv, bahs va munozaralar bo‘lib o‘tdi.

Nihoyat, 1989-yilning 19-oktabr kuni bu o‘ta muhim masala Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiqa qo‘yildi. Va qariyb bir yarim asrlik qaramlikdan so‘ng mamlakatimizda o‘zbek tili davlat tili deb e’lon qilindi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lmish ona tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va

himoyasiga ega bo'ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma'nodagi buyuk voqeа edi.

Qabul qilingan qonunda davlat tili bilan birga yurtimizdagi barcha millat va elatlarning tillarini rivojlantirish, davlat yo'li bilan himoya qilish, tili, dini va millatidan qat'i nazar, har bir fuqaroning o'z ona tilida ta'lim, axborot, kerakli ma'lumot olish kabi huquqlarini kafolatlash masalalari aniq belgilab qo'yilgan edi. Bu qonun o'sha paytda boshqa respublikalarda qabul qilingan tilga oid hujjatlardan o'zining demokratik mohiyati bilan ajralib turishini alohida ta'kidlash lozim. Jumladan, mazkur qonun davlat idoralarida ishlash, ta'lim olish, mansab lavozimlari bo'yicha ko'tarilish, fuqarolik singari masalalarda odamlarning huquq va erkinliklarini kamsitadigan turli shartlar va «senz»lardan xoli ekani bilan jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan talab va qoidalarga to'liq javob berar edi. Shuning uchun ham u ko'pmillatli xalqimiz tomonidan ijobiy kutib olingani bejiz emas.

1992-yil 7-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining ma-qomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustah-kamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi.

O'tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalgamoshirildi.

Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shamoqda.

Ayniqsa, davlat tilining xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani e'tiborlidir. Xususan, xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan bo'ladigan uchrashuv va suhbatlar, muzokaralar, tegishli hujjatlarni imzolash marosimlarida, nufuzli sammitlarda, rasmiy matbuot anjumanlarida o'zbek tilining o'rni va ahamiyati ortib borayotgani hammamizga g'urur-iftixor bag'ishlaydi.

Shu borada o'zbek tilining kompyuter va Internet, aniq fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot kabi maxsus termin va tushunchalarni talab qiladigan sohalarda ham keng qo'llana boshlagani uning imkoniyatlari nechog'liq katta ekanini ko'rsatadi.

Holbuki, bundan yigirma yil oldin oddiygina ariza yoki ma'lumotnomani ham o'zbek tilida yozishning imkoni yo'q edi. Bugun bu haqda gapirsangiz,

ko‘pchilik yoshlarning ishonishi qiyin. Chunki hozirgi paytda oliy hokimiyat idoralaridan tortib mahalliy boshqaruv idoralarigacha ish yuritish ona tilimizda amalga oshirilmoqda.

Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan beba ho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug‘atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz.

Ma’lumki, o‘zbek tili asrlar davomida arab yozuvi asosida rivojlanib kelgan. Ayni paytda buyuk ajdodlarimiz, tilimizning o‘ziga xos grammatik xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning ulkan imkoniyatlariga mos yozuv tizimini yaratish haqida doimo bosh qotirib kelganlari ham tarixiy manballardan yaxshi ayon, deb o‘playman.

Jumladan, 1929-yilda ma’rifatparvar ziyolilarimizning sa’y-harakatlari bilan lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosi ishlab chiqildi va joriy etildi. Bu alifbo o‘n yil mobaynida amalda bo‘lib, lotin yozuvida

xalqimizning ma'naviy mulkiga aylanib qolgan ko'plab kitob va darsliklar, gazeta-jurnallar va boshqa matbaa mahsulotlari, tarixiy hujjatlar chop etildi.

Afsuski, hukmron mafkuraning sobiq SSSR hududidagi barcha xalqlar madaniyatini «yagona sovet madaniyati» degan sun'iy g'oya ostida birlashtirishga qaratilgan siyosati tufayli bu ijobiy tajriba nihoyasiga yetmasdan qolib ketdi.

Tabiiyki, mustaqillikka erishganimizdan so'ng xalqimiz ma'naviy hayotidagi boshqa ko'plab muammolar qatori til va alifbo masalasi ham biz uchun kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi. Ayniqsa, ona tilimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini yuksaltirish, mamlakatimizning jahon kommunikatsiya tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash, farzandlarimiz uchun chet tillar, axborot texnologiyalarini har tomonlama puxta egallash borasida qulay imkoniyatlar yaratish kabi bir-biridan muhim vazifalar bu masalani kechiktirmasdan hal qilishni talab etar edi.

Lekin shuni ham aytish kerakki, bu masala qanchalik o'tkir bo'lmasin, biz uni yechishda ortiqcha hissiyotlarga berilmasdan, ilmiy asosda, har tomonlama o'ylab, keng jamoatchilikning xohishistaklarini inobatga olib ish tutdik. Shu maqsadda 1993-yil 2-sentabrda yurtimizda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

O'tgan davr mobaynida ana shu qonun ijrosini ta'minlash bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirilganini ta'kidlash lozim. Avvalo, o'zbek tilining lotin yozuvi asosidagi imlo qoidalari ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi. Bugungi kunda mam-lakatimizda ta'limning barcha bosqichlarida ana shu alifbo asosida bilim berilmoxda. Lotin yozuvida chop etilayotgan kitob va darsliklar, o'quv qo'llanmalari, gazeta-jurnallar, reklama va e'londalar, davlat hujjatlari hozirgi vaqtida bu imlo madaniy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, bu masalaga mantiqiy ko'z bilan qaraydigan, eng muhimi, xalqimizning ko'pmillatli ekanini inobatga oladigan bo'lsak, ayrim milliy guruhlar kirill yozuvini ishlatishini nazarda tutib, yuqorida tilga olingan qonunda bu imlodan foydalinish uchun ham imkoniyat yaratish ko'zda тутилган.

Ayni vaqtida jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ish qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz zarur. Ayniqsa, ba'zan rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariга rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Bu haqda so'z yuritganda, bobomiz Alisher Navoiyning «Tilga e'tiborsiz – elga e'tiborsiz» degan so'zlarida naqadar

chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Barchamizga ma'lumki, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida **Vatanga muhabbat tuyg'usi** ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi.

Albatta, jahon – keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagona. Bu go'zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan. Mana shu ulug' tuyg'u har birimizning dilimizga jo bo'lishi, hayotimiz mazmuniga aylanishini istardim.

Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishqisi jo'sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Biz shunday ma'naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni yashnatib tursin.

Bu haqda gapirar ekanmiz, ayni vaqtida muhim bir masalaga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o'zini eng avvalo O'zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan bir hudud vakili, aytaylik, xorazmlik, samarqandlik yoki Farg'ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. Tabiiyki, bu holat har birimiz mansub bo'lgan «mo'jaz vatan»ning, tug'ilib o'sgan shahar

yoki qishloqning qadri va ahamiyatini aslo kamaytirmaydi. Biroq shuni esda tutish kerakki, haddan tashqari bo'rttirib yuborilgan mahalliy vatanparvarlik millatning, xalqning jipslashuviga xalaqit beradi.

Biz Vatan tuyg'usini mana shunday yaxlit holda, ya'ni dunyoda yagona o'zbek millati bor, xorazmlik, farg'onalik, surxondaryolik o'rtasida hech qanday milliy farq yo'q, ularning barchasi o'zbek xalqining farzandi deb anglashimiz, yosh avlodimizni aynan shu ruhda tarbiyalashimiz zarur.

Bugungi kunda yoshlارимиз yurtимизning ko'cha va xiyobonlari, metro va avtobus bekatlari, katta-katta maydonlar, binolarni bezab turgan o'zbekcha nomlar, shior va lavhalarni ko'rib, bularning barchasini odatiy bir hol sifatida qabul qiladi. Vaholanki, yaqin tarixимизда bu manzara butunlay boshqacha ko'rinishga ega edi. Birgina Toshkent shahridagi ko'chalarning nomlarini o'qib, beixtiyor qaysi mamlakatda yurga-ningizni bilmay qolar edingiz: Lenin, Marks, Engels, Lunacharskiy, Kirov, Voroshilov, Lopatin va hokazo. Shunisi ajablanarligi, bolsheviklar partiya-sining dohiylari bo'l mish bu insonlarning birortasi ham umrida yurtимизга qadam qo'yagan, bizning tarixимиз va qadriyatларимизга mutlaqo aloqasi bo'l magan kimsalar edi. Yoki shahardagi aksariyat turarjoy mavzelari «S-1», «S-2», «S-15» degan, odamda hech qanday his-tuyg'u, xotira uyg'otmaydigan mavhum nomlar bilan atab kelinganini eslaylik.

Bularning barchasi zamirida sovet mafkurasiga xos bo‘lgan, odamzotni tarixiy xotira, Vatan tuyg‘usidan judo qilishga qaratilgan g‘arazli intilishlar mujassam ekanini anglash, tushunish qiyin emas.

Holbuki, ajdodlarimiz o‘zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, bog‘-xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e’tibor bergen. Misol uchun, Toshkentning o‘n ikki darvozasiga berilgan chuqurma’noli, go‘zal nomlarni olaylik. Samarqand, Besh-yog‘och, Ko‘kcha, Chig‘atoy, Sag‘bon, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Kamolon, Qo‘ymas, Qo‘qon, Qashqar darvoza degan nomlar avvalambor o‘zining aniq tarixiy-jug‘rofiy ma’nosini bilan ajralib turadi.

Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o‘z aksini topgan. Masalan, Toshkentning Eski shahar qismidagi Pichoqchilik, Charxchilik, Ko‘nchilik, Degrezlik, Taqachi, Egarchi, O‘qchi, Zargarlik, Parchabof singari mahalla nomlari bu yerda hunarmandchilik naqadar rivojlanganidan, xalqimizning azaldan o‘troq hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo‘lganidan dalolat beradi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, keyingi yillarda poytaxtimizda milliy tariximizga begona bo‘lgan, yuqorida zikr etilgan yasama, siyosiy nomlar o‘rniga Mirobod, Rakat, Mingo‘rik, Darxonariq, Shayxontohur, Yakkasaroy, Zarqaynar, Uchtepa kabi

asl nomlarning tiklanganini, eng muhimi, bunday ishlar mamlakatimizning barcha mintqa va hududlari miqyosida amalga oshirilayotganini ta'kidlash joiz.

Ma'lumki, bugun biz yurtimizda xalqimiz xo-hish-irodasining ifodasi bo'lgan Konstitutsiya va qonunlar asosida demokratik, dunyoviy davlat barpo etmoqdamiz. Bu davlat avvalambor dunyoviy taraqqiyotga, uning eng ilg'or yutuq va natijalariga tayanadi.

Ayni paytda shuni ham unutmaslik kerakki, dunyoviylik – bu dahriylik degani emas. Din va diniy e'tiqod butunlay rad etiladigan hayot qanday g'ay-riinsoniy ko'rinishga ega ekanini biz kechagi tariximiz misolida yaxshi bilamiz. Bunday mafkruranning xatarli tomoni shundaki, u necha asrlar davomida din negizida shakllangan, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanib ketgan qadriyatlar – bu yozma yoki og'zaki, moddiy yoki ma'naviy meros bo'ladimi, axloq yoki an'analar bo'ladimi, milliy dunyoqarash yoki turmush tarzi bo'ladimi – bularning barchasini rad etadi. Natijada odamzot o'zining ichki dunyosi, his-tuyg'u va qarashlari, tayanib-suyanib turadigan poydevoridan mahrum bo'lib, «sho'ro dohiylari» aytganidek, ulkan davlat mashinasining «vintchasi»ga aylanadi. Oxir-oqibatda bunday odam ota-onasini ham, o'z millati, xalqi va Vatanini ham tanimaydigan ayanchli holatga tushib qoladi.

Sobiq mustabid tuzum aynan ana shunday yovuz maqsadlarni ko‘zlar edi. Shuning uchun kommunistik mafkura avj olgan davrlarda, xususan, o‘tgan asrning 80-yillari oxirlarida xalqimizning boshiga qanday azob-uqubatlar yog‘dirilganini, albatta, hech qachon unutib bo‘lmaydi.

O‘sha mash’um yillarda ko‘pchilik hatto janoza marosimlariga borish, yaqin kishisini yo‘qotgan odamlardan ko‘ngil so‘rashga ham hayiqib qolgan edi. U yog‘ini so‘rasangiz, ba’zi mas’ul lavozimda ishlaydigan odamlar mafkura tazyiqidan yurak oldirib, ota-onasi qazo qilganda dafn marosimlarida ishtirok etmaslikka ham majbur bo‘lgan edi.

Lekin har qanday shafqatsiz ta’qiblarga qaramasdan, xalqimiz baribir o‘z muqaddas diniga sodiq qoldi. Shuning o‘ziyoq dinni inson, xalq va jamiyat hayotidan aslo o‘chirib bo‘lmasligidan yana bir bor dalolat beradi.

Biz muqaddas dinimizning xalqimiz tarixidagi ana shunday beqiyos o‘rni va ta’sirini inobatga olgan holda, uni har tomonlama tiklab, hayotimizdan mustahkam va munosib o‘rin olishiga erishdik.

Ayni vaqtida bugungi murakkab va shiddatli zamonda jahonda o‘z o‘rnini topishga intiladigan har qanday xalq va millat umumbashariy taraqqiyot yutuqlarini har tomonlama chuqr va puxta egallashi shartligini barchamiz yaxshi tushunamiz. Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy

o'tgan asrning boshidayoq «Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur», degan haqqoniy fikrlar bilan Turkiston ahlining ong-u shuurini uyg'otishga da'vat etgani beziz emas, albatta. Bu so'zlarning qanchalik haqiqat ekanini bugungi yuksak tafakkur va texnologiyalar zamonini ham isbotlamoqda.

Chindan ham, agarki hozirgi vaqtida dunyoviy ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o'zlashtirmasak, faqat tariximiz, olis ajdodlarimizning kashfiyotlari bilan maqtanib, ularga mahliyo bo'lib yashaydigan bo'lsak, ana shu noyob merosni asrab-avaylab, yanada boyitib, unga o'z hissamizni qo'shmasak, zamon bilan ham-qadam bo'lib yurmasak, bizning jahon maydonida munosib o'rin egallashimiz qiyin bo'ladi.

Shuning uchun ham bu masalaga yondashuvda hadisi sharifda aytilgan «Bu dunyoni deb u dunyoni, oxiratni deb bu dunyoni unutmang» degan mazmundagi so'zlarni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur, deb o'layman.

Bizning ma'naviy hayotimiz ana shu ikki asos, ikki tayanch nuqtaning ustida mustahkam turishi lozim. Bordi-yu ana shu asoslardan birortasi bo'shashgudek bo'lsa, yana o'zgalarga tobe va qaram bo'lishimiz hech gap emas. Bugungi dunyoning past-u balandini tushunadigan har qanday aqli raso odam buni yaxshi anglaydi, albatta.

Farzandlarimizga ana shu haqiqatlarni, ya'ni dunyoviy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi nozik munosabatlarning mohiyatini har tomonlama to'g'ri tushuntirib berishimiz lozim. Tarix va hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini to'ldirmas ekan, bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topish oson bo'lmaydi.

Shu ma'noda, biz muqaddas dinimiz arkonlari va qadriyatlarini doimo ulug'lab, shu bilan birga, dunyoviy hayotga ham qat'iy ishonch bilan intilib yashagan taqdirdagina o'z ezgu maqsadlarimizga yeta olamiz.

Shuni aytish lozimki, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda **milliy urf-odatlarimiz** va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ma'naviy hayotimizning uzviy qismiga aylanib ketgan hashar odati istiqlol davrida yangicha ma'no-mazmunga ega bo'lib, umum-milliy an'ana tusini olgani barchamizni mamnun etadi.

Har yili Navro'z va Mustaqillik bayramlari arafasida o'tkaziladigan umumxalq hasharlari buning tasdig'idir. Ana shu hasharlar paytida mahalla va guzarlar, yo'llar va maydonlar, bog'-u rog'larni tartibga keltirish, dov-daraxtlar o'tqazish, kam

ta'minlangan, muhtoj oilalar, yolg'iz va qarovchisiz keksalarga amaliy yordam ko'rsatish, hech shubhasiz, jamiyat tafakkurining yangilanishiga kuchli ta'sir qilmoqda.

Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad-muddaovalari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada **tarixiy xotira** masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbanlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniyligini taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi.

Biz bu masalaga ana shunday ilmiy asosda yondashib, qadimiy tariximizni o'rganish va baho berishda uning biror-bir davri yoki jabhasini e'tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qildik. Jumladan, mustamlakachilik va sovet davridagi ommaviy qatag'onlar paytida zulm va zo'ravonlik qurbanini bo'lgan, istiqlol yo'lida jon fido etgan ajdollarimizning hurmati va xotirasini joyiga qo'yish, ularning el-yurt ozodligi yo'lidagi ishlari, qoldirgan merosini izlash va o'rganishni aynan ana shunday ma'naviy negizda yo'lga qo'yganimizni qayd etish zarur.

Ma'lumki, 1937–1953-yillarda sobiq SSSR hudojida mudhish ommaviy siyosiy qatag'onlar amalgalari

oshirilgan edi. Uning salbiy oqibatlarini o‘zimizga tasavvur etish uchun birgina O‘zbekiston bo‘yicha qariyb 100 ming kishi qatag‘onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlanganini eslash kifoya. Insoniy qadr-qimmati toptalgan, hayoti poymol etilgan bu odamlar orasida nafaqat arbob va ziyorolar, balki yuzlab oddiy insonlar, yurtimizda istiqomat qilgan deyarli barcha millat va elatlarning vakillari bor edi. Shu davrda qancha-qancha odamlarning o‘z oilasidan judo bo‘lgani, ayollar bevalikka, go‘daklar yetimlikka mahkum etilganini, minglab mirishkor dehqonlarning quloq sifatida olis o‘lkalarga surgun qilinganini inobatga olsak, xalqimiz boshiga tushgan bu fojianing dahshati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

El-yurtimiz taqdiriga daxldor bo‘lgan tarixiyadolatni tiklash, xalqimiz va millatimizning yaqin o‘tmishidagi yopiq sahifalarini to‘la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirish, begunoh qurban bo‘lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farz edi.

Ana shu insoniy burchimizni ado etish maqsadida 2000-yili poytaxtimizning Yunusobod tumanida qatag‘on yillarda xalqimizning minglab asl farzandlari qatl etilib, nom-nishonsiz ko‘mib tashlangan, necha yillar davomida qarovsiz qolib kelgan Bo‘zsuv kanali sohilidagi Alvastiko‘prik deb nom olgan jarlik

o‘rnida Shahidlar xotirasi xiyoboni va keyinchalik shu nomda muzey va jamg‘arma tashkil qilindi. 2001-yildan e’tiboran 31-avgust yurtimizda Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida nishonlanadigan bo‘ldi. Har yili 31-avgust tongida bu maskanda xalqimizning qadimiylariga ko‘ra osh tortib, Qur’on tilovat qilish, davlat va hukumat rahbarlari, keng jamoatchilik vakillarining bu yerga kelib, marhumlarni yod etishi, ularning ruhiga hurmat bajo keltirishi ibratli an’anaga aylanib qoldi.

Bu ishlar xalqimiz, unib-o‘sib kelayotgan farzandlarimizning ong-u shuurida tarixiy adolatga ishonch va insoniylik fazilatlarini qaror toptirish, ularning ma’naviy olamini kengaytirishda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekani bilan ayniqsa e’tiborlidir.

Ma’lumki, sobiq SSSR davrida 9-may har yili G‘alaba kuni sifatida bayram qilinar, Markazda va respublikalarda dabdabali harbiy paradlar o’tkazilar edi. Biz mazkur sananing asl insoniy ma’no-mohiyati hamda jamoatchiligidan bu boradagi taklif va mulohazalarini inobatga olgan holda, 9-may kunini mamlakatimizda Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlashga qaror qildik. Bu voqeа, hech shubhasiz, yurtimizda tarixiy xotirani to‘laqonli tiklash yo‘lida hayotning o‘zi taqozo etgan yana bir jiddiy qadam bo‘lganini aytish lozim. Shu munosabat bilan poytaxtimizda, viloyat va tumanlarda sovet mafkurasini o‘zida ifoda etgan eski yodgorliklar

o‘rniga xalqimizning ruhi va qarashlariga hamohang bo‘lgan Xotira maydonlari tashkil etilib, Motamsaro ona haykali o‘rnatildi.

Ana shu maydonlarda barpo etilgan yodgorlik majmualarida Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan yurtdoshlarimizning nomlari maxsus ishlangan lavhalarga zarhal harflar bilan yozib qo‘yilgani, ular haqidagi ma’lumotlar jamlangan 35 jilddan iborat «Xotira» kitobi chop etilgani, aytish mumkinki, mamlakatimiz tarixida ibratli ma’naviy voqeа bo‘ldi.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin, lekin, muxtasar qilib aytganda, ana shunday yangilanish jarayonlari tufayli bugun odamlarimizning ong-u tafakkuri, ularning Vatan taqdiriga, yonatrofda yuz berayotgan voqeа-hodisalarga munosabati tubdan o‘zgarmoqda. O‘tmish qoliplaridan voz kechgan jamiyatimiz a’zolari hayotdagi o‘z o‘rnini yangicha tasavvur etmoqda. El-yurtimizda yuksak ma’naviy fazilatlar, demokratik qadriyatlar mustahkamlanmoqda, eng muhimi, aholimizning amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli yangilanishlarga daxldorlik hissi, mamlakatimizning kelajagiga bo‘lgan ishonchi ortib bormoqda.

Albatta, hammamizga ayonki, jamiyat tafakkurini butunlay yangilash bir-ikki yillik ish emas, uzoq va uzlusiz davom etadigan jarayon. Qolaversa, bu yo‘lda tinimsiz izlanish va mehnat qilish, hali-beri

uchrab turgan eskicha fikrlash asoratlarini yengib o'tish oson emasligini ham yaxshi tushunamiz.

Ayni vaqtda biz jamiyatni va jamiyat tafakkurini yangilashning inqilobiy usullariga, bu jarayonni sun'iy ravishda chetdan turib, zo'ravonlik yo'li bilan tezlashtirishga qaratilgan har qanday urinishlarga mutlaqo qarshimiz. Biz barcha sohalarda, jumladan, ma'naviy sohada ham tadrijiy-evolyutsion islohotlar yo'li tarafдоримиз va bunga qat'iy amal qilamiz. Ya'ni, sodda qilib aytganda, odamlarning dunyoqarashi, e'tiqod va tafakkurida demokratik tamoyillar va demokratik qarashlarning kengayishi va mustahkam o'rin topishi avvalambor hayotning tabiiy yurishi bilan, ularning moddiy turmush darajasi va mada-niy saviyasi tobora rivojlanishi va yuksalishi bilan chambarchas bog'liq ekanini hayotning o'zi taqozo etadi.

Har qaysi jamiyatning demokratik nuqtayi na-zardan yangilanishi va yuksalishi shu jamiyatning, shu davlatning taraqqiyoti mahsuli ekanini ham-mamiz chuqr anglab olishimiz zarur.

Mana shunday qonuniyat va qarashlarni inkor etish, ularni tan olmaslik va bunga teskari yo'l tutish, hech shubhasiz, kutilmagan va teskari salbiy na-tijalarga olib kelishi muqarrarligini ko'p-ko'p mi-sollarda ko'rish qiyin emas, albatta.

Islohotlar va ularning ma'naviy mezoni

Jamiyat hayotida shunday davrlar bo'ladiki, o'z umrini yashab bo'lgan eski tuzum qonun-qoidalarini yangicha asosda o'zgartirish, barcha sohalarda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish zarurati eng muhim ehtiyoj, kerak bo'lsa, hayot-mamot masalasi sifatida kun tartibiga chiqadi.

Biz o'z mustaqilligimizni qo'lga kiritib, yangi taraqqiyot yo'liga qadam qo'yganimizdan so'ng xalqimizning xohish-irodasi, asriy orzu-intilishlariga tayangan holda, sho'ro davridan og'ir meros bo'lib qolgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimini tubdan isloh qilish, uning o'rnidida mohiyat e'tibori bilan butunlay yangi – erkin bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etishga azm-u qaror qildik. Tabiiyki, bu maqsadga erishish uchun qanday strategik yo'l, islohotlarning qanday shakl va usuli ma'qul ekani haqida olimlar va mutaxassislar, keng jamoatchilik, el-yurtimiz vakillari bilan birgalikda ko'p o'yladik, atroflicha maslahatlashdik. Bu borada taraqqiy topgan davlatlar misolida o'zini oqlagan ilg'or tajribalarni chuqr o'rgandik.

Eng muhimi, xalqimizning hayot tarzi, milliy an'ana va qadriyatlarimizni, aholining ruhi va kayfiyatini ham har tomonlama hisobga oldik. Chunki har qanday islohotning pirovard natijasi avvalo uning zaruratini aholining keng qatlamlari qay-

darajada tushunishi va qo'llab-quvvatlashi, bu o'zgarishlarning inson hayotiga, uning farovonligini oshirishga ko'rsatadigan amaliy ta'siri bilan o'lchanadi. Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, odamlarga islohotlarning ma'no-mohiyatini aniqravshan tushuntirib berish, shu asosda jamiyat a'zolarida ishonch uyg'otish, ularni bunyodkorlik sari safarbar etish muhim ahamiyatga ega.

Ana shunday keng miqyosdagi o'rganish va har tomonlama izlanishlar natijasida biz bugungi kunda butun dunyoda o'zbek modeli sifatida tan olingan taraqqiyot modelini ishlab chiqdik. **Bu modelning asosiy tamoyillari – ya'ni, iqtisodning siyosatdan xoli ekani, davlatning bosh islohotchi bo'lishi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat, islohotlarni tadrijiy asosda bosqichma-bosqich amalga oshirish prinsiplari barchamizga yaxshi ayon.**

Ta'kidlash joizki, bugun hayotda o'zini to'liq oqlagan bu modelning negizida avvalambor hayotga realistik qarash, pragmatik yondashuv mujassam, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Yosh davlatimiz murakkab sinov kunlarini bosidan kechirayotgan bir paytda, qanchalik qiyin bo'lmasin, biz faqat o'z kuch va imkoniyatlarimizga tayanib va suyanib ish tutishga majbur edik. Ana shunday vaziyatda ko'plab o'tkir va keskin savollarga javob izlash va topishga to'g'ri keldi. Masalan, qaysi davlat bizga qancha va qanday shartlar bilan sarmoya

va qarz beradi? Qarz bergan davlatlarning siyosiy shartlari bo‘lmaydimi? Birovdan qarz olib, keyin uning sirtmog‘iga tushib qolmaymizmi? Olgan qarz-kreditlarimiz bo‘ynimizda og‘ir yuk bo‘lib qolib ketmaydimi?

Qarz olish oson, bu hammamizga ma’lum, lekin uni bir kun kelib to‘lash ham kerak. Biz faqatgina bugungi kunni emas, balki ertamizni, kelajak avlodlarni ham o‘ylashimiz kerak. Biz hozir xato qilib qo‘ysak, farzandlarimiz kelajakda qoqilib qolishini hisobga olmasak, bu katta gunoh bo‘ladi.

Bugun, oradan necha yillar o‘tganidan keyin o‘ziga xos milliy taraqqiyot yo‘lini tanlagan dastlabki davrni ko‘z oldimizga keltiradigan bo‘lsak, bizning islohotlar siyosatimizda ma’naviy mezonlar doimo hal qiluvchi omil bo‘lib kelayotgani yanada yaqqol ayon bo‘ladi. O‘scha paytda sobiq ittifoq hududidagi ayrim mamlakatlarda «shok terapiyasi» degan usul bilan bir sakrab bozor iqtisodiyotiga o‘tish yoki alohida bir davlatda «demokratiya orolchasi» barpo etish haqida qancha-qancha shovshuylar ko‘tarilgan edi.

Bugun tabiiy savol tug‘iladi: qani o‘scha da’volarning amaliy natijasi? Qani o‘scha butun-butun xalqlar va mamlakatlarga misli ko‘rilmagan baxtli hayot, farovonlik va’da qilgan zotlar?

O‘scha paytda sobiq sovet hududida endigina mustaqillikka erishgan yosh davlatlarga nisbatan

ayrim qudratli mamlakatlar va siyosiy markazlarning manfaatlariga javob beradigan ana shunday tagi puch tavsiyalarni taklif qilish, ularni turli yo'llar bilan joriy etishga urinish harakatlari nihoyatda kuchaygan edi. Bunday keskin bir sharoitda yakka-yu yagona to'g'ri yo'lni adashmay tanlab olish va uni har qanday xurujlardan qat'iyat bilan himoya qilish oson emas edi.

Biz o'shanda chetdagi «maslahatchi»larning «dono kengashlari»dan emas, balki xalqimizning xohish-irodasi, yurtimizdagi haqiqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda og'ir-vazminlik bilan, har tomonlama chuqur o'ylab siyosat olib bordik.

Albatta, murakkab o'tish davrida boshqa ko'pgina muhim vazifalar qatori, xalqimizning bugungi va ertangi hayoti, uning ma'naviy olamiga zarar yetishiga, ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishiga, jumladan, aholining bir qismi o'ta boyib, aksariyati o'ta qashshoqlikka yuz tutishiga yo'l qo'ymaslik masalasi ham doimo diqqat-e'tiborimiz markazida turdi.

Aslida, har qanday islohotning eng muhim samarasi avvalo xalqning ma'naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ong-u tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga daxldor bo'lganini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Biz amalga oshirilayotgan

islohotlarimizda ana shunday natijalarga erishish uchun barcha o'zgarish va yangilanishlarning mar-kaziga inson va uning manfaatlarini qo'ydiq. Shuning uchun ham bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida **islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak**, degan maqsad mujassam ekanini va uning amaliy ifodasini barcha sohalarda ko'rish, kuzatish qiyin emas.

Agarki biz mustaqillikka erishganimizdan so'ng bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lini emas, balki «shok terapiyasi» deb nom olgan inqilobiy sakrash yo'lini tanlasak, eng qiyin vaziyatlarda aksariyat aholimiz qanday ahvolga tushib qolgan bo'lar edi? Hech shubhasiz, stixiyali tarzda yuz beradigan shiddatli o'zgarishlar to'fonida odamlarning moddiy turmush sharoiti keskin yomonlashib, ularning hayot tarzi, axloqiy qadriyatlari, milliy-ma'naviy qiyofasi butunlay izdan chiqib ketishi hech gap emas edi. Bir so'z bilan aytganda, bunday biryoqlama siyosat hech kutilmagan oqibatlarga, o'rnini yuz yillarda ham to'ldirib, qoplab bo'lmaydigan og'ir yo'qotishlarga olib kelishi muqarrar edi.

Shuning uchun ham biz, chetdan har qancha taklif va tavsiyalar, hatto talablar bo'lmasin, hech qachon inqilobiy sakrashlar yo'lidan bormadik. Yurtimizdagi bugungi tinch va osoyishta, bunyodkor hayot, barqaror taraqqiyot bunday yondashuvning

naqadar to‘g‘ri bo‘lganini va uzoqni ko‘zlaganini ko‘plab sohalardagi ijobiy natijalar misolida tasdiqlab bermoqda. O‘sha mas’uliyatli paytlarda, biz keskin ijtimoiy larzalarga olib keladigan har qanday inqilobiy harakatlarga qarshimiz, bizning tadrijiy rivojlanish tamoyillariga asoslangan o‘z yo‘limiz bor va bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz, deb aytgan qat’iy so‘zimiz, mustahkam pozitsiyamiz albatta bugun o‘z hosilini bermoqda.

Bizning islohotlar davomida nainki moddiy farovonlikka, ayni paytda ma’naviy yuksalishga ham erishishni o‘zimiz uchun asosiy mezon deb bilganimiz umumiy taraqqiyotimizda bir tomonga og‘ib ketmaslik, jamiyat hayotida suv bilan havodek zarur bo‘lgan muvozanat va barqarorlikni ta’minalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bozor iqtisodiyoti hamma narsani joyiga qo‘yadi, degan yengil-yelpi qarashga itoat qilib, faqat moddiy boylik ortidan quvish – xalqimizning azaliy orzu-tilishlariga ham, insoniylik bilan yo‘g‘rilgan milliy qadriyatlarimiz mohiyatiga ham to‘g‘ri kelmas edi. Shu bois islohotlarni amalga oshirishda ma’naviyat va iqtisodiyot bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini quvvatlab, o‘zaro ta’sirlanib, rivojlanib boradi, degan qoidani o‘zimiz uchun dasturilamal sifatida belgilab oldik.

Ma’naviyat va iqtisodiyot sohasining minglab hayotiy masalalar, ta’bir joiz bo‘lsa, jonli rishtalar

orqali o‘zaro chambarchas bog‘lanib ketganini inobatga olib, xalqimizning ruhiyati, turmush tarzi, qadimiy urf-odat va an’analarimizga har tomonlama mos bo‘lgan islohotlar yo‘lini tanladik.

Ayniqsa, o‘tish davrida davlatning bosh islohotchi sifatidagi rolini islohotlarni joriy etishning asosiy shartlaridan biri tariqasida qat’iy belgilab olganimiz iqtisodiyotning universal talab va mezonlarini milliy ma’naviyatimiz xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirishda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma’lumki, mustabid tuzum davridagi iqtisodiyot biryoqlama rivojlangan, ma’muriy-buyruqbozlik usuliga asoslangan bo‘lib, xalqning ma’naviy qarashlari va intilishlaridan yiroq edi. Ana shunday mushkul bir vaziyatda davlatning islohotchilik rolini tan olmaslik, bu masalani o‘zibo‘larchilik holatiga tashlab qo‘yish – eski tizimdan qolgan nochor va xasta iqtisodiyot o‘z-o‘zidan erkin bozor iqtisodiyotiga, sovet jamiyatni esa demokratik jamiyatga aylanib qoladi, deb xomxayol qilish bilan barobar edi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, demokratiya avvalambor ma’naviy mezonlar assosida boshqariladigan, kuchli huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyat demakdir. Aytish mumkinki, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat demokratiyaning o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan ikki jihat, ikki qanotidir. Aynan shu bois biz «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat

sari» konsepsiyasini ishlab chiqdik va bu g‘oyani iz-chil amalga oshirish masalasiga bиринчи darajali ahamiyat qaratib kelmoqdamiz.

E‘tiborli tomoni shundaki, islohotlarning dastlabki bosqichidan boshlab hozirga qadar keng ko‘lamli siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy dastur va rejalarimizning barchasida xalqimizning ma’naviy hayoti bilan bog‘liq masalalar alohida ustuvor yo‘nalish sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Tabiiyki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o‘tish jarayonida odamlar ongida, jamiyat mafkurasida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Biroq, ba’zi birovlarining hadiksirab, erkin bozor sharoitida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning qimmati tushib ketadi, madaniyat ikkinchi darajali narsaga aylanib qoladi, degan xavotirlari o‘rinsiz ekani O‘zbekistondagi bugungi o‘zgarishlar misolida yana bir bor yaqqol ayon bo‘lmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda davlat budgetining 50 foizdan ziyodi ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgani ham buni tasdiqlaydi.

Uchinchi bob.

MA’NAVIYATGA TAHDID – O’ZLIGIMIZ VA KELAJAGIMIZGA TAHDID

Globallashuv jarayonlari va ma’naviy tahdidlar

Bugun biz tez sur’atlar bilan o’zgarib bora-yotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o’ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta’riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.

Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma’lum ma’noda haqiqat, ratsional mag’iz bor. Chunki ularning har biri o’zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi-alomatini aks et-tirishi tabiiy. Ammo ko‘pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg’otmoqda. Bunday ta’rif, menimcha, ko‘p tomonidan masalaning mohiyatini to‘g’ri ifodalaydi. Nega deganda, hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqeа yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyo-

ning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas.

Ana shunday globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiylar nuqtayi nazaridan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Shu ma'noda, globallashuv – bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'o-yat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha

sohalarda ko‘rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko‘plab yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg‘unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyatlarining ortishi — tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda.

Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko‘rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda — ezgulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g‘oya va ta’limotlar bilan yovuz va zararli g‘oyalari o‘rtasida azaldan kurash mavjud bo‘lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko‘ramiz.

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig‘iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqealarni bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo‘q, deb beparvo qarab bo‘lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki

millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas.

Globallashuv jarayonining yana bir o‘ziga xos jihat shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog‘lom fikr-laydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi mu-qarrar.

Bu haqda gapirganda, men ilgari bildirgan ba’zi fikrlarni takrorlash o‘rinli, deb o‘ylayman.

Ta’bir joiz bo‘lsa, aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo‘lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo‘lsa, buni sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta’siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab yetish nihoyatda qiyin.

Mana shunday vaziyatda odam o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyo-qarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma’naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi ta’siriga bardosh berishi amrimahol. Buni kundalik hayotda uchrab turadigan ko‘plab voqealar misolida yaqqol kuzatish mumkin va ularning qanday og‘ir oqibatlarga olib kelishini

uzoq tushuntirib o'tirishning hojati yo'q, deb o'ylayman. O'tgan yillar davomida dunyoda va mintaqamizda ro'y bergan, biz bevosita o'z boshimizdan kechirgan voqealar, mafkuraviy jaryonlarning rivoji bu xulosaning to'g'ri ekanini qayta-qayta isbotlamoqda.

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televide niye, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yanmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz.

Binobarin, biz davlatimiz kelajagini o'z qobi-g'imizga o'ralib qolgan holda emas, balki umum-bashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'z-lashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foy-dalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkin-lashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o'z hayotimizga yanada kengroq

joriy qilishda ko‘ramiz. Biz butun ma’rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafborimiz.

Biz uchun shunday yo‘l ma’qul, uning boshqa muqobili yo‘q.

Muxtasar qilib aytganda, yoshlарimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur.

Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

Hammamiz yaxshi bilamizki, har qaysi davlatning chegaralarini daxlsiz saqlashda harbiy kuch-qudrat, qurolli kuchlar suv bilan havodek zarur. Ammo xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimiz ma’naviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib-suyanib ish olib borishimiz kerak, degan savol bugun barchamizni o‘ylantirishi tabiiy.

Men, hayotda ko‘p bora o‘z tasdig‘ini topgan haqiqatdan kelib chiqqan holda, bu masalada shunday degan bo‘lardim: tobora kuchayib bora-yotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh

va hushyor bo‘lib yashashimiz zarur. Bunday tahlidlarga qarshi har tomonlama chuqur o‘ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiya bilan javob berish mumkin.

Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qayerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Ayniqsa, bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o‘zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun «Erkinlik va demokratiyani olg‘a siljitish» niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko‘zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o‘z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi.

Shu borada ayrim qudratli davlatlar tomonidan muayyan mamlakatlarga, avvalambor, yer osti, yer usti boyliklariga ega bo‘lgan hududlarga nisbatan olib borilayotgan ana shunday g‘arazli siyosatni dunyoning ayrim mintaqalarida tinch hayotning izdan chiqishi, hokimiyat tepasiga aynan o‘sha davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishi bilan bog‘liq misollarda ko‘rish qiyin emas.

Ana shunday vaziyatni hisobga olgan holda, yana va yana bir bor xalqimizning ma’naviy olamini

bunday tahdidlardan asrash, hozirgi o‘ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga yetib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo‘lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e’tibor berishimiz lozim. Ya’ni, kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so‘ng jamiyatda paydo bo‘lgan g‘oyaviy bo‘shliqdan foydalaniб, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo‘lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egosentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi.

Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqadasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va

ko‘pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda.

Bu haqda fikr yuritganda, bizning ulug‘ aj-dodlarimiz o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuyini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiq-qanliklarini eslash o‘rinli, deb bilaman. Ota-bobolarimizning ong-u tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharm-u hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg‘u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadi, desak, o‘ylaymanki, xato qilmagan bo‘lamiz.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, uyat – o‘limdan qattiq, degan gaplar xalqimiz tilida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lмаган, aksincha, bunday iboralar el-yurtimizga mansub ezgu va go‘zal axloqiy qadriyatlarning asl mazmunini ifoda etadi.

Darhaqiqat, uyat va or-nomusini yo‘qotgan odam, Ahmad Yassaviy bobomiz aytganidek, xud-diki hayvon jinsiga aylanib qoladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning:

Oldig‘a qo‘yganni yemak – hayvon ishi,

Og‘ziga kelganni demak – nodon ishi, –

degan chuqur ma’noli so‘zlari ham bu fikrni tasdiqlab beradi.

O‘z-o‘zidan ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq ko‘z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon-atrofimizda mavjud bo‘lgan, tobora kuchayib borayotgan ma’naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri bahlab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. Shu bois yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz o‘yinlari to‘g‘risida biryoqlama va soxta tasavvur bo‘lmasligi kerak.

Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya

Hozirgi vaqtda ko‘z o‘ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqr o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, **fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.**

Ma’lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, otabobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta’bir joiz bo‘lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlарimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqr anglaydi-

gan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin. Ana shunda johil aqida-parastlarning «da’vati» ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi.

Yosh avlodimizni turli ma’naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, nafaqat xalqimizni ulug‘laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma’qul odatlar haqida ham ochiq so‘z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug‘chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish to‘g‘risida o‘ylashimiz lozim. Men bu o‘ta muhim vazifa keng jamoatchiligidimizning, ayniqsa, ziyolilarimiz, olim va adiblarimiz, san’at va madaniyat ahli, o‘zini ma’naviyat sohasiga bag‘ishlagan barcha insonlarning doimiy diqqat markazida bo‘lishini istardim.

Bu o‘rinda ana shunday salbiy xususiyatlarning eng xunuk ko‘rinishi bo‘lmish hasad to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish joiz deb o‘layman. Odamzot va jamiyat hayotida og‘ir asoratlar qoldiradigan hasad tuyg‘usi avvalambor boshqalarni ko‘rolmaslik, ularning yutug‘idan quvonish o‘rniga, qandaydir kuyinish, ichiqoralik oqibatida paydo bo‘ladi.

Shuning uchun ham muqaddas kitoblarimizda

hasad insoniylikka mutlaqo zid bo‘lgan jirkanch odat sifatida qattiq qoralanadi. Jumladan, muborak hadislarda «Birovga hasad qilishdan saqlaning, chunki olov o‘tinni qanday kuydirib tugatsa, hasad ham qilgan savob ishlaringizni xuddi shunday kuydirib tugatadi», deb aytilgani bejiz emas.

Azal-azaldan ochiqko‘ngil, samimiy va mehnatkash, yaxshilikni yuksak qadrlaydigan xalqimiz bunday illatlardan doimo hazar qilib keladi. Lekin, ming afsuski, umr yo‘llarida hasad balosiga ko‘p duch kelamiz. Olis va yaqin tariximizda ne-ne buyuk zotlar hasad va baxillik, ko‘rolmaslik tufayli qanday azob-uqubatlarni boshidan kechirgani, sog‘lig‘i, hatto hayotidan judo bo‘lganini achchiq misollarda ko‘rish mumkin.

O‘zbek nomini, o‘zbek ilm-fani va madaniyatini, bir so‘z bilan aytganda, xalqimizning yuksak salohiyatini, uning qanday buyuk ishlarga qodir ekanini dunyoga namoyish qilishda yurtimiz zaminidan yetishib chiqqan yuzlab ulug‘ zotlar fidoiylik namunalarini ko‘rsatib kelgan. Bunday insonlar diyormizda hozir ham ko‘plab topiladi va bundan keyin ham ularning saflari kengayib boraveradi. Hamma gap ana shunday insonlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lish, ularni qo‘llab-quvvatlashda. Agar biz mamlakatimizning qaysi shahar yoki qishlog‘ida bo‘lmisin, yilt etgan iste’dod uchqunini ko‘rganda, hammamiz uni o‘z vaqtida payqab,

ardoqlab, parvona bo‘lib, unga yo‘l ochib bersak, barcha sa’y-harakat va intilishlarimizni ana shunday olijanob maqsadga qaratsak, muxtasar aytganda, hasad qilib emas, havas qilib yashashni hayotimiz qoidasiga aylantirsak, hech shubhasiz, biz milliy taraqqiyot bobida yanada yuksak marralarni egallahsga erisha olamiz.

Bu haqda gapirar ekanmiz, ma’naviy hayotimizga jiddiy xavf soladigan yana bir illat haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman. Shaxsan o‘zim bu illatdan jirkamanan. Shu illatga chalingan odamni ko‘rarga ko‘zim yo‘q. Bu – sotqinlikdir. Men har qanday yovuzlikni sotqinlikdan ko‘raman. Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo‘limgan, ularga ishonmagan odam qo‘rqinchlidir. Tabiatida sotqinlik xususiyati bo‘lgan odam rahbarlik kursisiga o‘tirib qolsa bormi, u yerda osoyishtalik yo‘qoldi, deyavering. Ikkita odamning, ikkita mamlakatning o‘rtasidagi urushni ham aynan shunday odamlar boshlab beradi. Shu bois bunday odamlardan ogoh bo‘lishimiz, ularga yonimizda o‘rin bo‘imasligi lozim. Agar tevarak-atrofimizdagi birorta kishida shunday alomatlar sezilayotgan bo‘lsa, ularni darhol tarbiyamizga olib, to‘g‘ri yo‘lga boshlashimiz kerak.

Shu munosabat bilan tarixda ko‘p marta o‘z tasdig‘ini topgan, men ham o‘z tajribamda sinagan hayotiy bir haqiqatni yana bir bor takrorlashni zarur deb hisoblayman: **agar biz ahil bo‘lsak, el-**

yurt manfaati yo‘lida bir tan-u bir jon bo‘lib yashasak, o‘zimizdan sotqin chiqmasa, o‘zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi.

Bu hayotda odam ba’zan o‘zini yo‘qotib qo‘yadigan g‘oyat murakkab muammolarga duch keladi. Keskin vaziyatdan chiqishning iloji yo‘qdek tuyuladigan holatlar bor. Shunday paytda, ishda va hayotda, jamiyatda og‘ir savdolarga duch kelganda kim o‘zining yo‘lini yo‘qotmasligi mumkin? O‘yaymanki, birinchi navbatda o‘z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma’naviy olami baquvvat bo‘lgan odamgina bunday vaziyatdan yorug‘ yuz bilan chiqa oladi. Ma’naviy boylik shunday paytda odamga katta kuch va madad beradi.

Shu ma’noda, insonning ma’naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi, desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Iroda – bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o‘ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o‘z zimmasiga olishdan qo‘rqmaydi. Shuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin. Bunday kishilar boshingizga biror-bir tashvish yoki muammo tushgudek bo‘lsa, loqayd qarab turolmaydi. Hech ikkilansmasdan, yoningizda turib, qo‘lidan kelgancha yordam berishga, qiyinchiliklarni siz bilan birgalikda yengishga harakat qiladi.

Lekin birovning hayotiga, yon-atrofda sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalarga betaraf va beparvo

qarab, shunchaki kuzatuvchi bo‘lib yashaydigan odamdan qo‘rqish kerak. Ulardan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na iyomon, na iroda bo‘ladi. Ular hatto o‘z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydi.

Azaldan ma’lumki, beparvo odam dushmanidan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma’lum bo‘ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo‘lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib, sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyat yaratib beradi.

Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib, quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: «Dushmanlardan qo‘rqma – nari borsa, ular seni o‘ldirishi mumkin. Do‘stlardan qo‘rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq – ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi».

Har bir inson hayotida g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ana shunday fikrlarni unib-o‘sib kehayotgan yoshlarning ongiga singdirish, ularni hayot sinovlariga bardoshli etib tayyorlash bizning otona, ustoz-murabbiy, rahbar-rahnamo sifatidagi, shu muqaddas yurt fuqarosi sifatidagi muqaddas burchimizdir.

Bu boradagi eng dolzarb vazifamiz – yuqorida zikr etilgan barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o‘quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo‘nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylan-tirishdan iborat.

Buning uchun avvalambor taraqqiyotimizning har bir yo‘nalishi – jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy munosabatlarning rivoji haqidá maxsus adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Albatta, bu masala bo‘yicha ijtimoiy fanlar sohasida ma’lum ishlar qilinmoqda, ammo xolisona aytadigan bo‘lsak, bu borada chop etilgan ko‘pchilik darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ommabop ada-biyotlarning ham, aksariyat soha mutaxassislarining ham saviyasi talab darajasida emasligini qayd etishga majburmiz. Bunday noxush holatlarga barham be-rish vaqtি keldi.

Hech shubhasiz, yurtimizda erkin,adolatli va farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlар, odamlarning ongi va tafakkuri ham o‘ziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha ma’no kasb etib bormoqda. Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlар yangicha maz-mun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi

tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas.

Binobarin, bularning barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik prinsiplar mohiyatiga, o‘z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyatni talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi darkor.

Bu boradagi eng muhim vazifa shundan iboratki, har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga, ma’naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoya qilish masalasiga bo‘lgan o‘z burchi va mas’uliyatini aynan ana shu asosda aniqlab olishi zarur.

Bu masala haqida chuqurroq o‘ylab ko‘radigan bo‘lsak, shu tamoyillarga tayangan jamiyatning o‘ziga xos ijtimoiy shakl-shamoyili, uning qiyofasi, rivojlanish yo‘llari, ustuvor xususiyatlari to‘g‘risidagi aniq tasavvur turli fikr, bahs-munozaralar orqaligina ayon bo‘lishini e’tirof etishimiz va buni o‘zimizga mezon qilib olishimiz zarur.

Bunday keng ko‘lamli va o‘ta muhim masalalarni hal qilishda davlatimiz va jamiyatimiz ijtimoiy fanlar sohasida faoliyat olib borayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o‘quv yurtlari, turli ijtimoiy markazlar, avvalambor, Ma’naviyat targ‘ibot markazi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi

tomonidan har tomonlama asoslangan chuqur taklif va tavsiyalarni kutishga to‘la haqlidir.

Ayniqsa, bugungi murakkab mafkuraviy jaryonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroficha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo‘nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Faqat ana shunday asosda yoshlarni o‘z fikriga ega, turli ma’naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo‘lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insонlar etib tarbiyalashga erishish mumkin. Bu borada ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining ta’sirchalligini ta’minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo‘llanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishimiz zarur.

To 'rtinchi bob


VATANIMIZ TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI

Inson qalbiga yo'l

Ushbu kitobning oldingi boblarida biz ma'naviyatning mazmun-mohiyati, uni shakllantiradigan asosiy omillar, ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning ma'naviy mezonlari haqida, shuningdek, bugungi globallashuv davrida ma'naviy olamimizni turli salbiy ta'sir va tahdidlardan asrash va himoya qilish bilan bog'liq muammolar xususida batafsil to'xtalib o'tdik.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har qaysi inson va jamiyatning ma'naviy dunyosiga aynan shunday ko'z bilan qarash, odamni ongli yashashga, yetuklikka chorlaydigan bunday beqiyos qudrat manbayining hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini churqur va atroflicha tahlil qilish muhim bir haqiqatni, ya'ni yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch ekanini anglatadi va tasdiqlaydi.


Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi: ma'naviyatni chindan ham ana shunday qudratli kuchga aylantirish uchun biz qanday masalalarga birinchi



Nukus. Qoraqalpog'iston san'at muzeyi



Samarqand. Ulug‘bek rasadxonasi



Urganch. «Avestov» yodgorligi



Andijon. Bobur haykali




Namangan. Tinchlik stellasi



Qarshi. «El-yurt tayanchi» monumenti




Toshkent. Hazrati Imom majmuasi. Muqaddas Usmon Qur'oni



Toshkent. Bolalar ijodiyoti markazi

Toshkent. O'zbekiston davlat konservatoriysi



Toshkent. «Yoshlik» talabalar shaharchasi. Ma'naviyat va ma'rifat markazi



Toshkent. Tasviriy san'at galereyasi





Toshkent. O'zbek milliy a'zam akademik drama teatri

galda e'tibor berishimiz, qanday ishlarni amalga oshirishimiz zarur?

Ma'naviyat haqida har qancha da'vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o'ylangan tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko'zlangan maqsadga erisholmaymiz, ya'ni, inson qalbiga yo'l topolmaymiz.

Shuning uchun ham biz bugungi kunda ta'limtarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televideniye, Internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykal-taroshlik san'atigacha, bir so'z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur.

Ayniqsa, barcha davrlarda ham g'oyat murakkab va mas'uliyatli bo'lgan bu ishlarni o'z zimmasiga olgan, eski qoliplardan voz kechib, bu sohada yangi yo'llarni ochib berayotgan, odamlarning dunyo-qarashini yanada boyitish uchun tinimsiz mehnat qilayotgan fidoyi insonlarning bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan, lekin katta qunt, bilim va tajribani talab qiladigan intilish va amaliy harakatlarini keng qo'llab-quvvatlashimiz, ularning samarali natijalarga

erishishi uchun har tomonlama sharoit yaratib berishimiz lozim.

Bu haqda gapirganda, shuni ta'kidlash joizki, ana shu soha vakillari, ya'ni o'qituvchi va murabbiylar, yozuvchi va jurnalistlar, kino va teatr ahli, musiqachilar va rassomlar, umuman, ziyolilarimiz xalqimiz uchun yangicha voqelik bo'lmish bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida jamiyat oldidagi ma'naviy burchini chuqur his etgan holda, o'z iste'dod va mahoratini ayamasdan astoydil mehnat qilmoqda.

Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, otanolarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot — o'qituvchi va murabbiylarning oljanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz.

Bu yorug' olamda har bir odam o'zining mehribon ota-onasiga, ustoz va muallimlarga nisbatan hamisha minnatdorlik tuyg'usi bilan yashaydi. Inson o'z umri davomida qanday yutuq va natijalarga

erishmasin, qayerda, qanday lavozimda ishlamasin, maktab dargohida olgan ta'lim-tarbiyasi uning yetuk shaxs va malakali mutaxassis bo'lib shakllanishida ulkan ahamiyatga ega ekani shubhasiz.

Muxtasar aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'l-maydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ma'rifatparvar bobolarimizning fikrini davom ettirib, agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir, desak, o'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Chindan ham, o'qituvchi nainki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki ming-minglab murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini baxsh etadigan, o'z o'quvchilariga haqiqatan ham hayot maktabini beradigan mo'tabar zotdir. Ona tilimizda «maktab ko'rgan», «maktab yaratgan» degan chuqur ma'noli iboralarning mavjudligi ham bu muqaddas dargohning, zahmatkash o'qituvchi mehnating davlat va jamiyat hayotida qanchalik muhim o'rin tutishidan dalolat beradi.

Biz yurtimizda 1-oktabr sanasini O'qituvchilar va murabbiylar kuni sifatida umumxalq bayrami deb e'lon qilganimizning chuqur ma'nosi bor, albatta.

Bu bayram avvalo o‘zining bilim va tajribasi, iste’dod va mahorati, insoniy fazilatlarini, ko‘z nuri va qalb qo‘ri, butun borlig‘ini ayamasdan, ma’rifat yo‘lida beminnat xizmat qiladigan ustoz va murabbiylarimizga nisbatan xalqimizning azaliy hurmat-ehtiromining yaqqol namunasidir.

Yangi jamiyat bunyodkori bo‘lmish yangi insonni tarbiyalashda hozirgi paytda mahallalarimizda samarali faoliyat olib borayotgan, bu noyob tuzilmani tom ma’noda o‘zini o‘zi boshqarish idorasiga aylantirishga katta hissa qo‘sib kelayotgan mahalla oqsoqollari va faollari, fuqarolar yig‘inlarining diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy masalalar bo‘yicha maslahatchilarining ijobiy ta’siri tobora ortib bormoqda. Aynan ana shu insonlarning odamlar ko‘ngliga yo‘l topib, ularning dard-u tashvishiga sherik bo‘lib, o‘z vaqtida berayotgan amaliy yordamlari, to‘g‘ri va o‘rinli maslahatlari tufayli oila va mahalla muhitida, butun diyormizda tinchlik va osoyishtalik, o‘zaro mehr-oqibat tuyg‘ulari kuchayib borayotganini el-yurtimiz yuksak qadrlaydi. Ayniqsa, yosh yigit va qizlarimizning mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning jamiyatdan o‘ziga munosib o‘rin topishida bu fidoyi va mehribon, jonkuyar odamlarning qanchalik muhim rol o‘ynayotganini hurmat bilan e’tirof etishimiz lozim.

Jamiyatimiz ma’naviyatini yuksaltirish bilan

bog'liq jarayonlarning murakkab tomoni shundaki, bugungi kunda boshimizdan kechirayotgan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo'lida uchraydigan juda ko'p muammolarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan faqat o'z kuchimiz va salohiyatimizga tayanib hal etishga to'g'ri kelmoqda.

Shu maqsadda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarning amaliy natijasi o'laroq, adabiyot va san'at, madaniyat, matbuot sohasi mafkuraviy tazyiqdan butunlay xalos bo'lganini qayd etish joiz. Har qanday ijod namunasi, badiiy asar sinfiy bo'lishi va qandaydir g'oyaga, kommunistik mafkura manfaatlariga xizmat qilishi kerak, degan qarashlar bugun o'tmishta aylandi. Erkin ijod uchun, milliy qadriyatlarimiz va boy ma'naviyatimizni, xalqimiz tarixini, uning bugungi sermazmun hayotini to'laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Bugungi kunda o'z hayotini ana shunday mas'uliyatli sohaga bag'ishlagan ko'plab iste'dod sohiblari yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, komil insonni tarbiyalash yo'lida munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, hozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish, «ommaviy madaniyat»ning zararli ta'siridan farzandlarimizning ong-u tafakkurini himoya qilishda ilm-u fan va

madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o'rni va roli tobora ortib bormoqda.

Nega deganda, bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo'lgan ana shunday «madaniyat» namunalarini faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlash bilan biron natijaga erishib bo'lmaydi. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun avvalambor ezgu insoniy g'oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar orqali xalqimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, boshqacha aytganda, bugun jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz shart.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, hozirgi paytda hayotimizni elektron axborot vositalari, xususan, televideniye va radiosiz umuman tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda ular bir vaqtning o'zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda, desak, xato bo'lmaydi.

Shu sababli o'tkir ta'sir kuchiga ega bo'lgan televideniye va radio sohasini izchil taraqqiy ettirish jamiyatning doimiy e'tibor markazida bo'lishi tabiiy. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi asosiy milliy teleradiokanallar aholining xolis va haqqoniy axborotga

ega bo‘lish huquqini ta’minlash, yurtdoshlarimizning madaniy saviyasi, bilim va dunyoqarashini oshirish, qadimiy an’analarimiz, tarixiy merosimizni asrabavaylash va rivojlantirish, shu bilan birga, fuqarolarimiz ongida demokratik qadriyatlar, grajdanzlik pozitsiyasini shakllantirish, yosh avlodni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo‘lida munosib xizmat qilayotganini ta’kidlash kerak.

Ayni vaqtida hali bu sohada oldimizda amalga oshirishimiz zarur bo‘lgan ko‘pgina maqsadlar turganini ham aytish lozim. Avvalo, televideniyeni davlat va jamiyatimizni bamisoli bir ko‘prikdek bog‘lab turadigan jonli muloqot vositasiga aylantirish, efir orqali bugungi kunning dolzarb muammolarini ko‘proq aks ettirish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, fuqarolarimizning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, har qaysi insonning o‘z mustaqil fikrini ifoda etishiga imkon berish, turli ijtimoiy toifa va guruhlarning qiziqish va intilishlari, hayotiy manfaatlarini yoritib borish masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Hozirgi davrda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o‘z kelajagini o‘ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas.

Shu sababli ham ommaviy axborot vositalarini zamon talablari asosida rivojlantirish, matbuot va

so‘z erkinligi prinsiplarini amalda ta’minlashga erishish, matbuotda tanqid ruhini kuchaytirish biz uchun eng muhim maqsadlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor bo‘lish matbuot, axborot va media tarmoqlari, jumladan, televideniye va radio sohasida xizmat qilishga o‘zini bag‘ishlagan, yetuk mutaxassis bo‘lishga ahd qilgan va bu sohada o‘z kelajagini ko‘rmoqchi bo‘lgan ommaviy axborot vositalari xodimlarining faoliyat mezoniga aylanishi zarurligini barchamiz yaxshi anglaymiz.

Bugungi kunda har qaysi matbuot xodimi kasb mahoratini egallash bilan birga, o‘z hayotiy prinsiplariga ham ega bo‘lishi, haqiqat uchun kurashishga intilishi, shu yo‘lda qat’iyat va shijoat ko‘rsatishi, lo‘nda qilib aytganda, vijdon amri bilan yashashini zamonning o‘zi talab qilmoqda.

Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarining esa inson ruhining muhandislari, deb ta’riflanishi bejiz emas, albatta.

Xalqimiz orasidan mana shu g‘oyat mashaqqatli

sohaga butun hayoti va noyob iste'dodini bag'ishlab, adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallagan o'lmas asarlar yaratgan buyuk so'z san'atkorlari — ularni barchasining nomlarini zikr etish, albatta, ko'p vaqtini talab qilgan bo'lur edi — yetishib chiq-qani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz.

Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarda yurtimizda ma-naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'l-gan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuv-chilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar o'z hosilini berayotgani, badiiy adabiyotimiz mavzular ko'lami jihatidan ham, janrlar nuqtayi nazaridan ham rang-barang bo'lib borayotgani, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo'layotgani kitobxon xalqimizni albatta quvontiradi. Bularning barchasi milliy tiklanish jarayonlari qalam ahlining ijodiy izlanishlari uchun qanday katta ufqlar ochib bergenini yana bir bor ko'rsatadi. Deylik, hozirgi paytda tarixiy mavzuni yoritishda — bu Imom Buxoriy yoki Imom Termiziy bo'ladimi, Jaloliddin Manguberdi yoki Amir Temur siymosini yaratish bo'ladimi, olis va yaqin o'tmishimizning hali ochilmagan sahifalarini aks ettirish bo'ladimi — buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li tas-virlangan ko'plab asarlar dunyoga kelmoqda.

Sovet mafkurasi hukmron bo‘lgan zamonlarda bu haqda so‘z ochish, ko‘hna va boy tariximizga bunday munosabatda bo‘lish «tarixni ideallashtirish» deb tanqid qilinib, tazyiq o‘tkazib kelganini o‘sha davrlarni boshidan kechirgan, kommunistik mafkura jabrini tortgan yoshi ulug‘ adiblarimiz albatta yaxshi eslaydilar.

Hammamiz yaxshi tushunamiz — adabiyotda tarixiy haqiqatni tiklash bilan birga, xalqimiz adiblarimizdan bugungi kunimiz haqida, zamonamiz qahramonlari haqida yangi-yangi asarlar kutayotgani tabiiydir. Keyingi yillarda ana shunday ruh bilan yo‘g‘rilgan bir qancha she’riy asarlar paydo bo‘layotganini mamnuniyat bilan ta’kidlash joiz.

Ishonamizki, yozuvchi va dramaturglarimiz ham bugungi avlodlarning fidokorona mehnati, bунyodkorlik salohiyati, zamondoshlarimizning ma’naviy-ruhiy dunyosi, hayotga kirib kelayotgan va hal qiluvchi kuchga aylanayotgan yoshlарimizning pok orzu-intilishlari o‘zining teran badiiy ifodasini topgan yangi asarlar bilan xalqimizni xushnud etadilar.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat safidan munosib va mustahkam o‘rin egallab borayotgan O‘zbekistonimizga, uning tarixan qisqa davrda qo‘lga kiritgan ulkan marralariga, el-yurtimizning ma’naviy ildizlari, urf-odat va an’analariga, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek xarakteri, o‘zbek tabiatiga

butun dunyoda qiziqish va hurmat tobora ortib bor-moqda. Tabiiyki, uzoq-yaqindagi xorijiy do'st-u birodarlarimiz, jahon jamoatchiligi eng avvalo bizning zamonaviy adabiyotimiz va san'atimiz or-qali o'zlarini qiziqtiradigan ana shunday savollarga javob topishni istaydi.

Keyingi yillarda milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini chet tillarga tarjima qilish va shu asosda xalqimizning hayot tarzi va insoniy fazilatlarini keng namoyish etish borasida ham katta imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Lekin, afsuski, bu masalada biz hali-beri ko'zga ko'rinaradigan amaliy natijalarga erisha olganimiz yo'q.

Ilgari o'zbek adabiyotining namunalarini boshqa tillarga tarjima qilish asosan uchinchiligi til, ya'ni rus tili orqali amalga oshirilar edi. Bu borada qilingan katta ishlarni munosib baholagan holda, endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan g'arb va sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur. Buning uchun xorijiy tillarni, adabiyot va badiiy tarjima san'atining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari bizda mavjud.

Uzoq yillar davomida o'zbek adabiyotini to'g'-ridan to'g'ri ona tilimizdan tarjima qilib kelgan chet ellik tarjimonlar bilan birga, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan iste'dodli o'g'il-

qizlarimizni mana shu mashaqqatli, ayni paytda oljanob ishga jalb etish, bu masalaning yechimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tashkiliy-amaliy vazifalarni hal qilishimiz maqsadga muvofiq bo‘lur edi.

Agar biz O‘zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarini, buyuk shoirlarini, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug‘ adib Cho‘lpon aytganidek, adabiyot yashasa — millat yashaydi.

Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san’atisiz erishib bo‘lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o‘rin tutib keladi. Samarqand yaqinidagi Mo‘minobod qishlog‘idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg‘usi topilgani ham shundan dalolat beradi.

Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o‘zining «Zafarnoma» kitobida Amir Temur davrida o‘tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida to‘xtalib, «Yaxshi ovozli xonandalar kuylashni boshlab, g‘azal-u naqsh aytur erdilar. Va turk-u mo‘g‘ul, xitoy-u arab va ajamdin har kim o‘z rasmi bilan nag‘ma aytur erdi», degan ma’lumotlarni keltiradi.

Mustaqillik yillarida, ulug‘ bobolarimizning ana shunday an’analarini davom ettirgan holda, mam-lakatimizda musiqa san’atini keng rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mumtoz musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o‘rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish maqsadida ko‘plab ko‘rik-tanlovlар, nu-fuzli xalqaro musiqa anjumanlari muntazam ravishda o‘tkazib kelinmoqda.

Barchamizga ayonki, kuy-qo‘sinqqa, san’atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg‘u asbobi bo‘lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta’sirini o‘z hayotida sezmasdan yashay-digan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san’ati nav-qiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bu masalada ayniqsa yoshlар qalbini o‘ziga har tomonlama jalb etadigan estrada san’atining ahami-yati beqiyos ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Aytish mumkinki, o‘tgan asrning boshlarida ilk namunalari paydo bo‘lgan o‘zbek estradasi istiqlol yillarida sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bunday natijalarga erishishda milliy va umumbashariy musiqa san’ati yutuqlarini, jahon estradasining eng

yaxshi namunalarini o'rganish bo'yicha katta imkoniyatlar ochilgani, bu soha rivojiga ko'rsatilayotgan doimiy e'tibor, yosh iste'dodlarning o'zini namoyon etishi uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar muhim rol o'ynameqda.

Biz estrada san'atining bugungi va ertangi rivoji haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalambor «milliy estrada» degan iboraning ma'no-mazmuniga alohida e'tibor berishimiz, uni har qanday begona ta'sirdan, ayniqsa, «ommaviy madaniyat» ruhidagi oqimlar ta'siridan himoya qilishimiz tabiiy, albatta. Bu haqda gapirganda, bir holatni afsus bilan aytishga to'g'ri keladi. Ayrim yosh ijrochi va ijodiy guruhlarning jamoatchilik e'tiboriga taqdim etayotgan «asar»lari san'atning hech qanday talab va mezonlariga javob bermaydi. Nafaqat mavzu va musiqa, ijro usullari, balki sahma harakatlarida ham ochiqdan ochiq ajnabiy «ommaviy madaniyat» ko'rinishlariga taqlid qilish, «yulduzlik» kasaliga chalinish holatlari teztez uchrab turayotgani chinakam san'at muxlislarini ranjitmasdan qolmaydi, albatta.

Ayniqsa, bizning milliy an'analarimizga, axloq-odob qoidalariga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan kliplar, turli tillardagi so'zlarni qorishtirib yoki talaffuzni ataylab buzib aytish kabi nomunosib harakatlarni ayrim yosh ijrochilar o'zi uchun qandaydir yangicha uslub deb bilayotgani, menimcha, san'atni, uning mohiyati va ahamiyatini tushun-

maslikdan boshqa narsa emas. Madaniy jamoat-chiligidan, avvalambor musiqashunos olimlar, ustozi san'atkorlar, kompozitorlar, yozuvchi va jurnalistlar, ko'p sonli san'at ixlosmandlari bunday masalalar yuzasidan o'z fikrini ochiq bildirib borishi, shu tariqa yoshlarimizga to'g'ri tarbiya berishimiz ham qarz, ham farz, deb o'yayman.

Biz uchun axloqiy jihatdan noma'qul, milliy qadriyat va qarashlarimizga yot bo'lgan, lekin hozirgi vaqtda hayotimizga kirib borayotgan mana shunday ko'rinishlarni bamisoli yuqumli kasallik deb qabul qilishimiz lozim. Va ayni shu asosda bunday xurujlarning o'ta xavfli holat ekanini anglashimiz zarur.

Nega deganda, agar insonning qulog'i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam «Shashmaqom» singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun san'atkorlar orasida sog'lom ijodiy muhit tashkil qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning

milliy va jahon musiqa madaniyatining mumtoz asarlari bilan birga, ularning kayfiyati va intilishlariga mos keladigan zamonaviy estrada san'ati namunalardan keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lgan teatr san'ati xususida so'z borar ekan, buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning «Teatr – bu ibratxonadur», deb aytgan fikrini eslash o'rinlidir.

Bizning milliy teatr san'atimiz tarixan juda katta yo'lni bosib o'tgan bo'lib, uning qadimiyligi ildizlari xalq o'yin va tomoshalariga borib bog'lanadi. Lekin XX asrga kelib o'zbek teatr san'ati yangitdan – yurtimiz va jahon miqyosida shakllangan, davrlar sinovidan o'tib kelayotgan an'ana va tajribalar asosida vujudga kelgani va kamol topganini e'tirof etish zarur. Xususan, poytaxtimiz va viloyat teatrlarida namoyish etilgan dunyo sahma san'atining mumtoz namunalari o'z vaqtida nafaqat yurtimiz, balki chet el tomoshabinlarini ham hayratda qoldirgani bu fikrni isbotlaydi. Shu bilan birga, teatr ijodkorlarimiz tomonidan yaratilgan ko'plab milliy ruhdagi sahma asarlari xorijiy mamlakatlarda ham muvaffaqiyat bilan ijro etib kelinadi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtida respublikamiz

teatrlarida turli mavzu va janrlarda ko‘plab spektakllar yaratilmoqda, o‘ziga xos ijodiy izlanishlar davom etmoqda.

Ayni paytda teatr san’atimizda ham bugungi hayotimizni, zamonamiz qahramonlari qiyofasini har tomonlama chuqur ochib beradigan, tomoshabinni o‘ziga tortadigan, ham dramaturgiya, ham rejissura nuqtayi nazaridan badiiy yuksak asarlar, afsuski, kam ekanini tan olishimiz lozim. Aksincha, real haqiqatdan yiroq, odamga katta ma’naviy oziq bermaydigan asarlar bilan teatrlar kassasini to‘ldirish holatlari ko‘proq ko‘zga tashlanmoqda.

Albatta, hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti talablarini ham inobatga olish kerak. Lekin yuksak badiiyat va haqqoniylit, ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan sug‘orilgan asarlar yaratish – barcha san’at turlari kabi bu soha uchun ham asosiy mezon bo‘lishi tabiiy. Bu maqsadga erishish uchun yosh va iste’dodli dramaturg va rejissorlar, teatr aktyorlarini tarbiyalab voyaga yetkazish ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Eng ommaviy san’at turi bo‘lmish kino sohasini oladigan bo‘lsak, o‘z vaqtida bu borada bizda o‘ziga xos ijodiy maktab yaratilganini mammuniyat bilan qayd etish lozim.

Shaxsan men har safar «Tohir va Zuhra», «O’tgan kunlar», «Sen yetim emassan», «Mahallada duvduv gap» kabi mumtoz filmlarimizni ko‘rganda bu

haqiqatga ishonch hosil qilaman. Mana shunday tom ma'nodagi milliy asarlar nafaqat xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga, balki uning go'zal qadriyatlarini butun dunyoga tanitishga ham katta hissa qo'shib kelmoqda.

Kino san'atining inson ongi va tafakkuri, jamiyat hayotiga ta'siri beqiyos ekanini hisobga olgan holda, istiqlol yillarida milliy kinematografiyani ham har tomonlama rivojlantirish, bu borada zarur moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar tufayli yangi-yangi filmlar suratga olinmoqda, ular orqali tariximiz va bugungi hayotimiz bilan bog'liq turli mavzular yoritilmoqda. O'zbek kinolari nufuzli xalqaro festivallarda sovrinli o'rirlarga sazovor bo'layotgani, albatta, quvonarlidir.

Lekin shuni ham xolisona aytish kerakki, yosh-larning tarbiyasiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan zamonaviy qahramon obrazi kinoekranlarimizda hali yaratilganicha yo'q. Suratga olinayotgan aksariyat filmlarda kinochilarimizning bugungi kunning haqiqiy manzarasi, uning o'tkir muammolarini chuqur his eta olmasligi, oddiy odamlar hayotidan uzoqlashib qolgani sezilib turadi.

Buning sabablari haqida ko'p gapishtirish mumkin. Lekin asosiy sabablardan biri shundaki, kinosan'ati sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari ilgari O'zbekistonda umuman mavjud emas edi. Sobiq

Markazdagi kino institutlarida ta’lim olgan oz sonli o’zbek rejissorlari va kinodramaturlari esa, afsuski, milliy ruh, milliy zamindan begona bo’lgan mutaxassislar bo’lib yetishar edi va ana shunday holatning salbiy asorati va ta’siri aksariyat kino ijodkorlarimiz faoliyatida hozirga qadar saqlanib kelmoqda.

Shuning uchun keyingi yillarda milliy kinodramaturg va rejissorlar tayyorlash dolzarb masala bo’lib turibdi. Chunki, buni ochiq tan olishimiz kerak – professional kino mutaxassislari, xususan, rejissorlar, ssenaristlar tayyorlaydigan tom manodagi milliy maktab o’zimizda hanuzgacha shakllangani yo‘q.

Bu ahvolni tubdan o’zgartirish uchun yuksak badiiy mahorat bilan bir qatorda, milliy tafakkur salohiyatiga ega bo’lgan iste’dodli yoshlarni tarbiyalash va ularni qo’llab-quvvatlash masalasiga alohida e’tibor qaratishimiz lozim.

Albatta, bu yo’lda dastlabki qadamlar qo’yilayotganini aytish lozim. Masalan, Mustaqillik va Navro’z bayramlari, «Sharq taronalari» musiqa festivaliga bag’ishlangan asosiy tomosha va tannalarni tayyorlash bo’yicha teatr va televide niye rejissorligi, badiiy-publisistik ssenaristlik borasida ulkan tajriba to’plandi. Ana shu boy tajribalarni har tomonlama chuqur o’rganish, umumlashtirish va shu asosda yosh ijodkorlarni tarbiyalash bo’yicha

zarur nazariy va o'quv-uslubiy bazani shakllantirish, bugungi talablarga javob beradigan mutaxassislarini tayyorlash yuzasidan amaliy ishlarni keng yo'lga qo'yish bu muammolarni yechish imkonini berishi shubhasiz.

Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek rassomlarining keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritayotgani, bu sohaga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat bera-di. Bunday ijobiy o'zgarishlarni monumental san'at sohasida ham kuzatish mumkin. Ma'lumki, monumental san'at deganda, avvalo katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan mahobatli haykallar va yodgorlik majmularini tushunamiz.

O'rni kelganda aytish lozimki, sobiq sovet tuzumi davrida bu soha san'atning eng mafkuralashgan turiga aylanib qolgan edi.

Yaxshi eslayman, mafkuraviy ruhdagi ana shunday san'atning «yorqin namunasi» bo'lgan haykallardan biri hozirgi O'zbekiston Milliy bog'i hududida joylashgan eski «Komsomol ko'li»ning kiraverishida turar edi. Bu haykal juda bahaybat bo'lib, unga qancha-qancha material ishlatilgan edi. Odamni hayron qoldiradigan tomoni shundaki, bu haykal nima uchun, qanday maqsadda qo'yilgani va qanaqa ma'noni anglatishini ko'pchilik bilmas,

ochig‘i, bilishga qiziqmas ham edi. Ming afsuski, bunday haykallarni mamlakatimizning olis tuman va qishloqlarida ham ko‘rish mumkin edi. Ularda ko‘pincha yurtimizga, xalqimizning hayoti va qadriyatlariga mutlaqo daxli bo‘lmagan, umri bino bo‘lib O‘zbekistonga qadam bosmagan zotlarning qiyofasi aks ettirilar edi.

Nafaqat poytaxtda, hatto eng chekka hududlarda ham sho‘ro dohiylarining, ming-minglab yurtdoshlarimizning umriga zomin bo‘lgan, keyinchalik yovuz qilmishlari butun dunyoga oshkor etilgan shaxslarning haykallari savlat to‘kib turar edi. Turli bayramlar munosabati bilan ana shu haykallar poyiga gullar qo‘yilar edi. Lekin bu marosimlar o‘ta soxta va yuzaki bo‘lib, odamlar bu tadbirlarni chin yurakdan emas, shunchaki rasmiyat uchun ado etardi.

Yurtimizda ma’naviy tiklanish va yangilanish jarayonlari boshlanishi bilan boshqa san’at turlari kabi monumental san’atda ham yangi davr boshlandi. Ushbu soha shu qadar nozik va murakkabki, unda har bir detal, hatto eng mayda bo‘lib ko‘ringan masalaga ham jiddiy e’tibor qaratish talab etiladi.

Bu haqda uzoq gapirish mumkin, lekin men faqatgina bir misol keltirish bilan kifoyalanmoqchiman. Istiqlolga erishganimizdan so‘ng biz tarixiy adolatni qaror toptirish, xalqimizning toptalib kelgan milliy g‘ururini yuksaltirish maqsadida Sohibqiron Amir Temur bobomizning nafaqat

muborak nomi, boy merosi va xotirasini, ayni paytda tarixiy siyemosini ham tiklashga qaror qildik.

Sovet davrida bu masalada g‘arazli siyosat olib borilgani, asossiz ravishda bobomiz jaholat va yovuzlik timsoli sifatida ko‘rsatib kelingani bugun hech kimga sir emas. Nega deganda, mustabid tuzum tarixiy haqiqatni namoyon etishdan, bizning milliy o‘zligimizni anglashimizdan mutlaqo manfaatdor emasdi.

Ba’zi bir miniatura asarlarini hisobga olmaganda, o‘z vaqtida Amir Temurning portret-surati chizilmagan. Lekin ushbu miniaturalar buyuk Amir Temurning betakror shaxsiyatini har tomonlama to‘liq va haqqoniy aks ettira olmasligini tushunish qiyin emas. Chunki bu rasmlarning birida Sohibqiron mo‘g‘ulga, yana birida hindga, uchinchisida boshqa bir millat vakiliga o‘xshatib tasvirlanadi. Shu tufayli biz uning asl qiyofasi qanday bo‘lgani haqida aniq tasavvurga ega emas edik. Ko‘pchiligidan uni sho‘rolar davrida antropolog-haykaltarosh M. Gerasimov «yaratgan» qo‘rquinchli byust orqali bilardik, xolos.

Afsuski, tarix ilmida ham Amir Temur haqida bir-biriga zid va qarama-qarshi fikrlar, chalkash talqinlar ko‘p uchraydi. Shuning uchun ham buyuk ajdodimizning portretini qadimiylar manbalarni har tomonlama sinchiklab o‘rganib, tarixiy-ilmiy haqiqat asosida yaratish talab qilinar edi. Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, Amir Temur davriga oid ba’zi yozma

yodgorliklarda u zot haqida yetarli ma'lumotlar mavjud ekan.

Jumladan, Amir Temur saroyida yetti yil ya-shagan mashhur tarixchi Ibn Arabshoh bobomizning surati va siyratini shunday tasvirlaydi:

«Temur baland bo'yli, tik qomatli, keng peshonali, kallasi katta, bag'oyat kuchli va salobatli, oq-qizil yuzli, keng yelkali, qaddi-qomati kelistihan, sersoqol, o'ng qo'li bilan o'ng oyog'i zahmdor, ikki ko'zi bamisolik ikki shamday porlab turadigan, yo'g'on ovozli, ulug'ligi o'ziga yarashgan, qat'iy azm-u qaror bilan so'zlaydigan, haqgo'y kishi edi. U zimdan qarash va ko'z ishoratlarini sezadigan, idrokli, sinchkov, har qanday ishoratdan ogoh kishi bo'lib, yuz berishi mumkin bo'lgan hamma ishni oldindan ko'rib-bilib turar edi».

O'zingiz ayting, buyuk ajdodimizning aniq va haqqoniy portretini yaratmoqchi bo'lgan musavvir uchun bunday ma'lumotlar beba ho material bo'lib xizmat qilmaydimi? Biz bu ishning tarix va kelajak oldidagi mas'uliyatini har tomonlama chuqur his etib, turli manbalarda qayd etilgan ishonchli tarixiy dalillarga tayangan holda ish tutdik.

Ana shu talabdan kelib chiqib, avvalo Amir Temur portretining bir necha xomaki variantlari tayyorlandi. Ular dastlab tarixchi olimlar, adib va rassomlar, jamoatchilik vakillari muhokamasidan o'tkazilib, umumiyl xulosaga kelindi.

Men ishtirok etgan navbatdagi yig‘ilishda ana shunday muhokamalardan o‘tgan variant ustida fikr almashdik. Unda Amir Temur taxtda shohona liboslarda qo‘llarini qilich ustiga qo‘yib, o‘ychan bir qiyofada o‘tirar edi. Men umrining ko‘p qismi harbiy yurish va safarlarda, el-yurt tashvishida o‘tgan insonning qo‘llari, barmoqlari, gavdasi qanday bo‘lishi, yuz-ko‘zları qanday ma’no anglatishi zarurligi haqida o‘z mulohaza va takliflarimni aytdim.

Shundan so‘ng O‘zbekiston xalq rassomi Malik Nabihev ana shu fikrlar asosida portretni qayta ishladi va butunlay boshqa siymo – bugungi kunda butun xalqimizga yaxshi ma’lum bo‘lgan Sohibqironning mumtoz qiyofasi paydo bo‘ldi. Aynan ana shu siymo keyinchalik yurtimizda Amir Temur bobomizga atab barpo etilgan barcha haykallar uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

1993-yili Toshkent shahridagi Amir Temur xiyoboniga o‘rnataladigan haykalni ilk bor muhokama qilganimiz esimda. Haykaltaroshlar taqdim etgan variantda Sohibqiron qo‘liga nayza tutgan holda tasvirlangan edi. Men bunga e’tiroz bildirib, «Sohibqiron bobomiz qo‘lida nayza emas, otning jilovini tutib turgani ma’qul, – degan fikrni bildirdim. – Buning ramziy ma’nosи bor. Chunki, sultanatda nayza ko‘targan odamlar ko‘p bo‘lgan, ammo jilov Amir Temurning qo‘lida bo‘lgan. Bu mustahkam davlat tizimini qo‘lda mahkam tutib turishni anglatadi.

Shu bilan birga, buyuk ajdodimizning ikkinchi qo'lini baland ko'tarib, dunyodagi barcha insonlarga tinchlik-omonlik, baxt-u saodat tilayotgan asnoda aks ettirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Qolaversa, xalqimizda har bir ish bismilloh aytib, o'ng qo'l, o'ng oyoqdan boshlanadi. Bu haykalda esa ot nima uchundir chap oyoqdan odim tashlayapti».

Muhokama ishtirokchilari bu fikrga qo'shilishdi va haykaltaroshlar bildirilgan fikrlar asosida yangi variantni yaratishdi.

1996-yili Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Samarqand va Shahrисabz shahlarida ulug' bobomizga atab haykal o'rnatish bo'yicha amaliy ishlar bajarildi.

Dastlabki loyiha va takliflarga ko'ra, Samarqanddagи haykal timsolida Sohibqironning avji kuch-quvvatga to'lgan navqironlik pallasi, ya'ni yigitlik davrini, Shahrисabzdagi haykal orqali esa uning beg'ubor bolalik holatini ifodalash mo'ljallangan edi. Men muhokama paytida Sohibqiron siymosini xronologik tarzda emas, balki yagona, fundamental obraz sifatida tasvirlash maqsadga muvofiq ekani haqidа o'z fikrimni bildirdim: «Amir Temur obrazini turli davrlarga bo'lmasdan, uning favqulodda buyuk aql-zakovati, jasorati va azm-u shijoatini yaxlit holatda mujassam ifoda etish har jihatdan to'g'ri bo'lardi. Toki Amir Temur siymosini kim qayerda

ko‘rmasin, uning mardona, ulug‘vor va donishmand qiyofasini bexato taniy oladigan bo‘lsin».

Shu o‘rinda aytish joizki, Samarqand shahrida o‘rnatiladigan haykalning dastlabki varianti ham hoziridan biroz boshqacha edi. Unda Sohibqiron qo‘lida qilich ushlagan qiyofada tasvirlangan edi. Men bu masalaga bag‘ishlangan so‘nggi muhokamalarning birida bunday badiiy yechimga e’tiroz bildirib, «To‘g‘ri, Amir Temur davlat boshqaruvida harbiy kuchga ham tayangan, ammo uning o‘nta ishdan to‘qqiztasini kengash-u mashvarat bilan, qolgan bittasini qilich bilan bitirdim, degan so‘zlarini unutmaslik kerak», deb, qilichni Sohibqironning yonida, qiniga solingan holatda aks ettirish lozimligini ta’kidladim. Chunki shunda uning siymosida, men xalqimning himoyasi, yurtimning mudofaasi uchun har lahzada kurashga tayyorman, lekin dunyoda tinchlik-barqarorlik hukmron bo‘lishini istayman, degan g‘oya o‘z ifodasini topgan bo‘lar edi.

Biz ko‘p tortishuv va fikr almashuvlardan so‘ng Sohibqironning qo‘llarini bir-biriga qo‘yib turgan holatini ham o‘zgartirdik, barmog‘idagi «Kuch – adolatda» degan mashhur so‘zlar bitilgan uzugini bo‘rttirib ko‘rsatishga qaror qildik. Ma’lumki, bu uzuk va uning ko‘zidagi hikmatli ibora Amir Temurni butun dunyoga mashhur qilgan. Bu shiorda bobokalonimizning hayotiy e’tiqodi teran aks etgan.

Shuning uchun uzukni tasvirlashga albatta e'tibor qaratish kerak, degan xulosaga keldik.

Ushbu muhtasham haykallarni ming-minglab yurtdoshlarimiz, chet ellik mehmonlar ko'rishi, ulardan zavqlanishi, faxrlanishi, bizning kimligimiz, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanimizni aynan shunday asarlar orqali his etishini hisobga olib, men, Sohibqironning yuzidan nur yog'ilib turishi kerak, degan mazmundagi fikrni bildirdim.

Bugungi kunda poytaxtimizning Amir Temur xiyoboniga, Samarqanddagi Ko'ksaroy, Shahrisabzdagi Oqsaroy maydoniga xoh erta tongda, xoh kechqurun — qachonki borib qaramang, chindan ham Sohibqiron siyemosida doimo nur jilvalanib turganini ko'rishingiz mumkin.

Biz ana shunday izlanish va tajribalar asosida keyinchalik Farg'ona shahrida — Ahmad Farg'oniy, Urganchda — Muhammad Muso Xorazmiy va Jaloliddin Manguberdi, Navoiy shahrida — Alisher Navoiy, poytaxtimizda — G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya singari allomalarimiz, yozuvchi va shoirlarimiz haykallarini, Termiz shahrida Al-pomish, Qarshi shahrida esa «El-yurt tayanchi» va boshqa o'nlab monumental san'at asarlarini barpo etishga muyassar bo'ldik.

Ayniqsa, keyingi yillarda tanib bo'lmas darajada o'zgarib, yangicha qiyofa kasb etib borayotgan azim Toshkent shahrining qoq markazida — Mustaqillik

va Xotira maydonlarida zamonaviy monumental san'atimizning noyob namunasi sifatida tan olingen Mustaqillik va ezgulik monumentini, Motamsaro ona haykalini bunyod etganimiz barchamizga g'ururiftixor bag'ishlaydi. Men ishonaman, oradan yillar, asrlar o'tadi, zamonlar o'zgaradi, lekin o'zining ma'nosи va qiyofasi bilan bir-birini to'ldiradigan bu ikki yodgorlik majmuasi nodir va o'lmas badiiy obida sifatida xalqimiz ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib qoladi.

Bizning monumental san'at sohasida amalgalashirgan yana bir ulkan ishimiz tabarruk zaminimizda tug'ilib voyaga yetgan va mangu orom topgan buyuk aziz-avliyolarimiz xotirasiga yodgorlik majmualari barpo etganimizda namoyon bo'ldi. Jumladan, Buxoroda Abdulxoliq G'ijduvoniy va Bahouddin Naqshband, Samarqandda Imom Buxoriy va Imom Moturidiy, Marg'ilonda Burhoniddin Marg'inoniy, Toshkent shahrida Hazrati Imom singari yodgorlik majmularini yaratdik. Xalqimiz hayotida chuqur iz qoldirgan, bugungi kunda tom ma'noda muqaddas ziyoratgohlarga aylangan bunday majmular ma'naviy olamimizni yuksaltirishga ulkan hissa bo'lib qo'shildi, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

Ayni paytda yurtimizda monumental san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha oldimizda ko'pgina vazifalar turganini ta'kidlash lozim. Xususan, bu sohada ham zamonaviy ijodiy maktab yaratish, shu

maqsadda keng miqyosda fikrlaydigan, qadimiy tariximiz, milliy tabiatimizni chuqur biladigan, o‘zi yaratayotgan obrazning barcha xususiyatlarini avvalambor yuragidan, qalbidan o‘tkazib ijod qilishga qodir bo‘lgan yetuk haykaltarosh va me’morlarni tarbiyalash dolzARB masala bo‘lib turibdi.

Yoshlarning ma’naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g‘oyalar asosida shakllantirish va kamol toptirish haqida gap borar ekan, yana bir muhim masala xususida to‘xtalib o‘tish o‘rinli, deb o‘yayman. U ham bo‘lsa, dunyoga hayrat ko‘zi bilan boqib, undan o‘zicha ma’no topishga intiladigan murg‘ak farzandlarimizning qiziqishi va hissiyotlari ga mos qo‘g‘irchoq va o‘yinchoqlar ishlab chiqarish masalasidir.

Bir qaraganda, bu muammo arzimas narsa bo‘lib tuyulishi mumkin. Lekin har qaysi go‘dak ilk bor olamni o‘z atrofidagi ashyo va buyumlar, jumladan, o‘yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo‘lsak, ularning inson tarbiyasidagi o‘rni beqiyos ekani ayon bo‘ladi. O‘yinchoqlar obrazi bolaning murg‘ak tasavvuriga bamisol toshga o‘yilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Go‘dakning ulg‘ayib, kasb tanlashi, kelajakda qanday yo‘ldan borishi, o‘zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma’naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday o‘yinchoqlar bilan oshno bo‘lib o‘sgani bilan belgilanadi.

Afsuski, hozirgi vaqtida farzandlarimiz ko‘pincha xorijda ishlab chiqarilgan, bizning milliy tabiatimizdan uzoq bo‘lgan o‘yinchoq va qo‘g‘irchoqlarni o‘ynab ulg‘aymoqda.

Marg‘ilon shahrining 2000 yillik to‘yi munosabati bilan bu yerda xalq amaliy san’ati vakillari bilan uchrashganimda, ular orasida milliy qo‘g‘irchoqlar tayyorlash bilan shug‘ullanadigan bir ayolning ajoyib ishlari e’tiborimni o‘ziga tortgan edi. Mana shunday fidoyi insonlar yurtimizda ko‘plab topiladi, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ma’naviy tarbiya masalasiga, ayni vaqtida milliy hunarmandchilikning bu noyob turini rivojlantirishga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lur edi.

Bu masalada ish olib boradigan insonlar nafaqat pedagog, psixolog yoki dizayner bo‘lishi, shu bilan birga, tariximiz va madaniyatimizni har tomonlama chuqur bilishi kerak. Shu ma’noda, o‘yinchoq va qo‘g‘irchoqlarga tariximizdagi ibratli qahramonlar, xalqimizning boy va betakror estetik dunyosini aks ettiradigan personajlar, milliy qadriyatlarimiz asos qilib olinsa, maqsadga muvofiq bo‘lur edi, deb o‘ylayman.

San’at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo‘l topish haqida so‘z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste’dod egasi o‘ziga xos bir olam, shu sababli ijod ahliga qandaydir aql o‘rgatish, eng asosiysi, ularni bosh-

qarishga urinish mumkin emas. Lekin bu hayotda ularni birlashtiradigan, yangi ijodiy marralar sari ilhomlantiradigan muqaddas tushunchalar borki, ular Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Agarki har qaysi ijodkor o'z asarlarida ana shu o'lmas g'oyalarni bosh maqsad qilib qo'ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz, adabiyot ham, madaniyat va san'at ham tom ma'noda ma'naviy yuksalishga xizmat qilib, o'zining ijtimoiy vazifasini to'liq ado etishga erishgan bo'ladi.

Eng buyuk jasorat

Buyuk sivilizatsiya va madaniyat beshigi bo'lgan, ko'hna va hayratomuz tarixni o'zida mujassam etgan Vatanimizdagi bebahoh yodgorliklar, osori atiqalar haqida so'z yuritar ekanmiz, shu zaminda yashayotgan barcha insonlar ularni avvalo xalqimiz da-hosining yorqin namunasi, ta'bir joiz bo'lsa, uning yuksak ma'naviyatiga qo'yilgan muazzam haykallar deb qabul qiladi.

Yer yuzidagi barcha o'lmas obidalar, insoniyat hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan jamiki ulug' kashfiyat va ixtiolar, mumtoz san'at va adabiyot durdonalari, mardlik va qahramonlik namunalari odamzotning aql-tafakkuri, salohiyati va ma'naviy jasorati mahsulidir. Shuning uchun ham **bu yorug' olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hech**

ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat – bu ma’naviy jasorat, deb javob bersak, o’ylaymanki, yanglish-magan bo’lamiz.

Jahon tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qalbida, yuragida ana shunday jasorat hissi nihoyatda kuchli bo‘lgan insonlar har qanday murakkab vaziyatda ham adolat va haqiqat yo‘lida o‘zini ayamay, el-yurt uchun, Vatan uchun qanday ibratli ishlarni amalga oshirganini ko‘rish mumkin. Aynan ana shunday odamlarning ma’naviy fazilatlari tufayli ezgu his-tuyg‘ular, muqaddas va ulug‘ tushunchalar dunyoda hanuz barqaror bo‘lib kelmoqda. Bunday benazir zotlarning barcha xalqlar va millatlar orasida ko‘plab topilishi – ma’naviy jasorat tuyg‘usi butun bashariyatga xos xususiyat ekanidan dalolat beradi.

Masalan, necha asrlardan buyon yuksak tafakkur va aql-zakovat timsoli bo‘lib kelayotgan antik davrga mansub yunon faylasufi Platonning hayot yo‘lini o‘zimizga bir tasavvur qilib ko‘raylik. Ma’lumki, Platon butun umrini ilm-u ma’rifatga bag‘ishlagan ulug‘ donishmand – Sokratning munosib shogirdi edi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Sokratning o‘limidan keyin yunon falsafasining taqdiri xavf ostida qoladi.

Faqatgina Platonning fidoiyligi va beqiyos xizmatlari evaziga bu fan yangi bosqichga ko‘tariladi. Uning qanchadan qancha qiyinchilik, sarson-sargardonlikdan so‘ng bor mol-mulkini sarflab,

Afina shahri yaqinidan maxsus yer sotib olib, olimlar to‘planib, bahs-munozara olib boradigan joy – akademiya tashkil etishi chinakam ma’naviy jasorat namunasi edi. Platon asos solgan bu ilmiy maskan ming yil davomida nafaqat yunon, balki butun Sharq-u G‘arb olamining rivojiga kuchli ta’sir o‘tkazadi, insoniyat tafakkur taraqqiyotining istiqbolini belgilab beradi. Shu bois ham Platon Sharq ilm-fanida «ustodi avval», ya’ni birinchi muallim degan sharaflı nom bilan shuhrat qozonadi.

Bunday misollarni yurtimiz zaminidan yetishib chiqqan, Bag‘doddagi «Baytul-hikma» va Xorazm Ma’mun akademiyasida faoliyat olib borgan, ilm-fan sohasidagi tengsiz kashfiyotlari, ma’naviy jasorati bilan tarixda o‘chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir ajdodlarimiz haqida ham ko‘plab keltirish mumkin.

Xususan, Xorazm Ma’mun akademiyasi faoliyatini oladigan bo‘lsak, bu mo‘tabar ilmiy maskanda Sharq va G‘arb o‘lkalaridan kelgan, turli millat va dinka mansub bo‘lgan olimlar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa-da, uning negizini Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino, Mahmud Xo‘jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy va Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi mana shu bizning mintaqamizda tug‘ilib, kamol topgan yetuk allomalar tashkil etgani barchamizga g‘urur va iftixon bag‘ishlaydi.

Ulkan ma'naviy jasorat sohiblari bo'lgan bunday alloma zotlar dunyoning qayerida yashamasin, ezgulik va ma'rifat yo'lida doimo odamlarga ibrat bo'lib kelgan. Chunonchi, o'rta asrlarda astronomiya sohasidagi ilmiy kashfiyotlari uchun tazyiq va ta'-qiblarga uchragan Nikolay Kopernik hamda keyinchalik uning izidan borib, johil va aqidaparast ruhoniyalar tomonidan o'tga tashlangan Jordano Bruno, qanchadan qancha ta'na va malomatlarga giriftor etilgan Galileo Galiley kabi allomalarining jasoratida ham haqiqatga sadoqat, e'tiqod uchun kurashning yorqin namunasi yaqqol namoyon bo'lganini ko'ramiz.

XX asr tarixida ham bunday ulug' siymolarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan, Hindiston milliy ozodlik kurashining yetakchisi bo'lib maydonga chiqqan, xalq orasida «Mahatma», ya'ni buyuk qalb egasi deb shuhrat qozongan ulkan mutafakkir va davlat arbobi Mahatma Gandhi ana shunday shaxslardan biri edi. U asos solgan gandizm ta'limotida hind xalqining diliqa behad yaqin bo'lgan g'oya va tushunchalar mujassam topgan. Ayniqsa, o'z yurtini mustamlakachilardan ozod qilish, yagona Hindiston birligi, mustaqil davlat barpo etish masalasi Mahatma Gandhi hayoti va faoliyatining ma'no-mazmunini tashkil etadi.

Butun umr oddiy va kamtarona, lekin ezgu g'oyalar yo'lida tinimsiz kurashib yashagan bu zot-

ning falsafiy-siyosiy qarashlarida insoniyat uchun ibratli jihatlar ko‘p. Jumladan, uning turli muammo va ziddiyatlarni kuch ishlatmasdan, tinch yo‘l bilan hal qilishga oid fikrlari dunyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarda, ijtimoiy hamkorlik masalasida bugun ham o‘z ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmasdan kelmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, xalqimiz tarixning har qanday to‘fon va suronlariga qaramasdan, milliy o‘zligi va azaliy qadriyatlarini saqlab qolib, bugungi dorilamon zamonalarga bezavol yetib kelishida uning qon-qoni, suyak-suyagida bo‘lgan ma’naviy jasorat tuyg‘usi, hech shubhasiz, hal qiluvchi ta’sir o‘tkazib kelmoqda.

Chunki, o‘zbek xalqi dunyo maydonida kuni kecha tasodifan paydo bo‘lib qolgani yo‘q. Biz – boy tarix, yuksak madaniyat, buyuk ma’naviyat vorislarimiz. Qadimiy tariximizni har tomonlama o‘rganib, shunday xulosaga kelish mumkinki, eng qaltis va tahlikali davrlarda millatimizga umid va ishonch bergen, uni yovlarga qarshi kurashga undagan, ajdodlarimizni ilmiy kashfiyotlar, harbiy zafarlarga, ma’rifat mash’alini baland ko‘tarib jaholatga qarshi chiqishga chorlagan beqiyos kuch ham aynan ma’naviy jasorat tuyg‘usidir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Urganchni bosqinchilardan himoya qilishda bayroq tutib jon bergen Najmuddin Kubroning qahramonligida,

dunyoni to‘fondek bosgan Chingizzon qo‘s Shiniga qarshi o‘n bir yil muttasil mardona kurash olib borgan Jaloliddin Manguberdining jangovar ruhida, yurtimizni istilochilardan ozod qilib, buyuk davlat barpo etgan Amir Temur bobomizning bunyodkorlik salohiyatida ham ma’naviy jasorat tuyg‘usi buyuk va ustuvor ahamiyat kasb etgani shubhasiz, albatta.

O‘tgan asr boshlarida, tariximizning og‘ir va murakkab davrida maydonga chiqqan jadid bobolarimizning fidoiyligi zamirida ham ana shunday jasorat namunasi mujassam edi, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mening nazarimda, avvalambor Yaratganimizning o‘zi har bir mavjudotga jasorat ko‘rsatish imkonini beradi va ong-tafakkur sohibi bo‘lgan insonlar bundan ibrat olib yashaydi. Misol uchun, erta bahorda tabiatning qanday uyg‘onishiga e’tibor bering – tosh qotib uqlab yotgan daraxt novdalariiga bir kechada jon kirib, kurtak chiqara boshlaydi, yerga tashlangan urug‘ tuproqni yorib chiqadi. Hatto bir qarashda hayot alomati yo‘qdek tuyuladigan tog‘u toshlarda ham yam-yashil may-salar ko‘karadi, qirmizi lolalar alvon gilamdek ochila boshlaydi. Bularning barchasi tabiat bag‘-ridagi ko‘zga ko‘rinmas mislsiz qudrat – energiya-ning ajib bir tarzda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

Yer-u ko'kdagi bunday buyuk o'zgarishlarni sezish, his qilish va ulardan saboq chiqarish, o'rnak olish uchun odamzot o'zining yon-atrofiga uyg'oq nigoh, qalb ko'zi bilan qarashi lozim, deb o'yayman. Shundagina hayotning ma'nosi tinimsiz kurash, qiyinchiliklarni yengib o'tish, bir so'z bilan aytganda, doimiy jasorat, azm-u shijoat bilan yashashdan iborat ekani ayon bo'ladi.

Haqiqatan ham, tabiat va tarix qonunlarini, uning taraqqiyot jarayonlarini chuqur tushunadigan odamgina o'z hayotini ma'naviy jasorat asosiga qurishga qodir bo'ladi. Shu ma'noda, shaxsan men zahmatkash va bunyodkor xalqimizning hayotini, ayniqsa qish qahratoni va yoz jaziramasida ham, bahor va kuzning yog'in-sochinli kunlarida ham yerdan rizq undirish maqsadida kunni kunga, tunni tunga ulab mehnat qiladigan dehqonlarimiz hayotini tom ma'noda jasorat namunasi, deb bilaman.

Ko'pchilik qatorida, faqat vaziyat taqozo etgan taqdirda maydonga otilib chiqish, qahramonlik ko'rsatish – albatta, bu ham oson emas. Buning uchun ham insonda katta yurak, g'ayrat-shijoat, eng muhimmi, o'ziga, o'zining kuch-qudratiga mustahkam ishonch bo'lishi kerak.

Lekin menga buyursa, **har kuni, har soatda fidoiy bo'lish, o'zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik**

faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlik aslida mana shu, deb aytgan bo‘lar edim.

Nega deganda, kundalik hayotda jonkuyar bo‘lish, har kuni fidoiylik ko‘rsatish, ruhan hech qachon bukilmay, bu fazilatni hayot qoidasi darajasiga ko‘tarish, ochiq aytish lozimki, bu hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Buning uchun insonga buyuk qalb va metin iroda kerak, desam, o‘ylaymanki, yanglishmagan bo‘lamан.

Men o‘z hayotim, ish faoliyatim davomida ma’naviy jasorat sohibi bo‘lgan, har tomonlama yetuk shaxslar bilan muloqotda bo‘lganim, zamondosh bo‘lib yashaganimdan doimo faxrlanib yuraman.

Ana shunday vatandoshlarimizdan biri mashhur arxeologik olim, akademik Yahyo G‘ulomov edi. O‘z davrining fidoyi allomasi bo‘lgan bu insonni men yaxshi bilardim. U o‘zining mustaqil fikriga ega, kerak bo‘lsa, yuqori lavozim egalariga yoqmaydigan to‘g‘ri gaplarni ham dadil ayta oladigan ulkan olim edi.

Tarixchilar yaxshi biladi, odatda tepaliklar qa’rida tarixiy obidalar, butun bir shahar qoldiqlari yastangan bo‘ladi. Sho‘ro davrida, faqat tomlardagina paxta ekilmay qolgan bir paytda ana shunday qadimiy tepaliklarni ham tekislاب, paxta dalasiga aylantirish-dek bema’ni siyosat avj olgan edi. Bunday noma’qul ishga jasur olim Yahyo G‘ulomov qarshi chiqqanini men yaxshi eslayman. Uning ana shu fazilati tufayli

tazyiq ko‘rganini ham eshitganman. Lekin bu inson o‘zining qalbidagi ma’naviy jasorat hissi tufayli hayotiy va ilmiy qarashlarida sobit turganini madaniy jamoatchiligidan yaxshi biladi.

Men o‘ylaymanki, adolatni hamma narsadan ustun deb biladigan, tarix va kelajak oldidagi mas’uliyatni his etadigan, haqiqiy vatanparvar odamgina shunday mardlikka qodir bo‘ladi.

Nafaqat o‘z she’rlari, balki butun hayoti bilan o‘zbek ayolining ma’naviy qiyofasini namoyon etgan atoqli shoiramiz Zulfiyaxonimni ham men ana shunday fidoyi insonlar qatoriga qo‘shtgan bo‘lardim. Uning jahon minbarlaridan yangragan she’rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she’riyat muxlis-lariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergen, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Lekin bu murakkab hayot qalbi o‘z xalqi va Vataniga mehr-muhabbat bilan to‘lib-toshgan, dunyodan ezgulik va go‘zallik izlab yashagan bu ayolni hamma vaqt ham ayagani yo‘q. Aslida, bu dunyoda ayriliq va hijron azobi barchaning ham boshida bor. Ammo g‘am-anduh va hasratlarni matonat bilan yengib, tog‘dek bardoshi bilan vafo va sadoqat ramziga aylangan Zulfiya opa singari ayollar har qanday yuksak hurmat va ehtiromga munosibdir.

Men bilgan va hurmat qiladigan ma’naviy jasorat

sohiblaridan yana biri atoqli olim va jamoat arbobi Ozod Sharafiddinov edi.

Bu ajoyib insonning nomini ko‘pdan buyon eshitib yurgan bo‘lsam-da, men u kishi bilan istiqlol yillarida yaqindan tanishdim. Uning faqatgina ilmiy-pedagogik faoliyat bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy-ma’naviy sohada ham beqiyos faollik ko‘rsatgani olimga bo‘lgan hurmatimni yanada ziyoda qildi.

Ko‘plab yurtdoshlarimiz qatorida men ham ayniqsa Ozod akaning irodasi qanday baquvvat ekaniga, uning qalb jasoratiga qoyil qolganman.

1997-yilning yoz oylarida qand kasalligi zo‘rayib, domla og‘ir operatsiyani boshidan o‘tkazadi, vrachlar uning hayotini saqlab qolish uchun bir oyog‘ini kesishga majbur bo‘ladi. Ammo bu odam shunchalik matonatli ekanki, shunda ham tushkunlikka tushmadi, ilmiy va ijodiy faoliyatdan bir zum bo‘lsin to‘xtamadi.

Keyinchalik kasallik yanada kuchayib, Ozod aka ikkinchi oyog‘idan ham judo bo‘ldi. Bu ham yetmagandek, ko‘rish quvvati ham nihoyatda zaiflashib qoladi. Domlaning hayotini saqlab qolish, sog‘lig‘ini tiklash uchun barchamiz ko‘p sa’y-harakat qildik, hatto xorijdan ham shifokorlar taklif etdik.

Ana shunday og‘ir sharoitda ham bu inson «Jahon adabiyoti» jurnalining bosh muharriri sifatida o‘z burchiga, e’tiqodiga sodiq qolib, lupa yordamida

jurnal materiallarini tahrir qilib borish bilan birga, qirqdan ortiq yirik roman va qissalarni o'zbek tiliga tarjima qilgani, albatta, har qanday odamni ham hayratga solishi tabiiy. Ozod aka bu bilan ham kifoyalanmasdan, respublikamizdagi matbuot nashrlarida, radio-televideniyeda, turli tadbir va anjumanlarda milliy ma'naviyatimizning o'ziga xos jihatlari, buyuk ajdodlarimizning bebahos merosi, mustaqillikning ma'naviy asoslarini mustahkamlash haqida ko'plab chiqishlar qildi. O'nga yaqin salmoqli kitoblar yozdi.

Hayotining aksariyat qismi shifokorlar nazaratida, og'ir, tinkani quritadigan muolajalar ostida o'tadigan odamning shunday ulkan jasorat ko'rsatib yashagani, ehtimol, kimgadir afsona bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin bu kishining sog'lig'i va kayfiyatidan doimo xabardor bo'lib, bu yo'lida qo'lidan kelgan yordamni ayamagan barcha insonlar buning afsona emas, haqiqat ekanini, bizning oramizda butun borlig'ini ma'naviyat va ma'rifatga bag'ishlagan ana shunday mard va jasur bir shaxs yashab o'tganini yaxshi biladi.

Ozod Sharafiddinov mamlakatimizning ma'naviy yuksalishi yo'lidagi buyuk xizmatlari uchun haqli ravishda davlatimizning oliy mukofoti – «O'zbekiston Qahramoni» unvoniga sazovor bo'lganini xalqimiz, jamoatchiligimiz yaxshi biladi, albatta.

O'ylaymanki, o'zini o'zbek xalqining farzandi

degan har qaysi inson ana shunday fidoyi yurt-doshlarimiz bilan cheksiz faxrlanadi, unib-o'sib kelayotgan bolalari, shogirdlariga ma'naviy jasorat timsoli sifatida aynan mana shunday odamlarni namuna qilib ko'rsatadi. Va hech shubhasiz, umr bo'yi el-yurt manfaati, Vatan istiqboli uchun kurashib yashaydigan shunday qahramon farzandlari bor xalq hech qachon kam bo'lmaydi.

Muxtasar qilib aytganda, olis va yaqin tariximiz shuni ko'rsatadiki, **xalqimiz doimo ma'naviy jasorat hissi bilan yashagan va bu ulug' tuyg'u uning hayotida yillar, asrlar o'tgani sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda**. Chunki xalq ma'naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan **kuch-qudrat, g'ayrat va ilhom olib, o'zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi**.

Shu ma'noda, 1991-yil 31-avgust sanasida qo'lga kiritilgan milliy mustaqillik – XX asrda xalqimiz tomonidan amalga oshirilgan buyuk ma'naviy jasorat namunasidir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

XOTIMA

Ma’naviyatning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati haqidagi fikr-mulohazalarimizga yakun yasar ekanmiz, avvalambor, shuni chuqur anglab olishimiz darkorki, ma’naviy yuksalishga erishish – bu bir yillik yoki besh-o’n yillik ish emas. Xalq, millat o‘z milliy ma’naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. **Chunki ma’naviyat qotib qolgan aqidalar yig‘indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo‘lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma’naviy hayot oldiga qo‘yiladigan talablar ham muttasil paydo bo‘laveradi.**

Ya’ni, mamlakatimiz taraqqiyot pillapoyasidan yangi-yangi cho‘qqilar sari qadam qo‘yar ekan, biz yashayotgan zamон sur’atlari shiddat bilan tezlashib, oldimizda yana qancha muammo va mashaqqatlar paydo bo‘lar ekan, tabiiyki, ma’naviy hayotimiz ham ana shu sinovlarda toblanib, yuksalib, jamiyatimiz, millatimizning yorug‘ va sog‘lom kejajagini har qanday tahdid va to‘fonlardan – davr o‘zgarishi bilan ularning ko‘rinishi va shakli o‘zgarishiga qaramasdan – bezavol saqlash va asrab qolishga qodir bo‘lishi darkor.

Ana shu fikr va xulosalardan kelib chiqqan holda, «Biz kimmiz?» degan savolga javob bermasdan turib, eng muhimi, ma’naviy boylikni, ma’naviyatni yuksaltirishga doimiy intilmasdan turib biz o‘z oldimizga qo‘ygan ezgu maqsadlarga erishish mumkin emas, desam, qalbimdan chuqur joy olgan fikrni aytgan bo‘lamani.

Bugungi kunda ma’naviyat dunyosiga nisbatan mavjud bo‘lgan xavf-xatarlardan albatta ko‘z yumib bo‘lmaydi, lekin bizning **ishonchimiz** komilki, **xalqimiz** tarixning murakkab jarayonlarida irodasi chiniqib, har qanday hujum va tazyiqlarga qaramasdan, ma’naviy olami kuchayib va yuksalib borayotgani, bizni ko‘rolmaydigan kuchlar ham bu haqiqatni tan olayotganini mammuniyat bilan qayd etamiz.

Chunki xalq – bamisolli ulug‘ va sharafli yo‘ldan ilgarilab borayotgan ulkan karvon. Uni yo‘ldan chalg‘itishga urinuvchilar, payt poylab orqasidan hamla qiluvchilar hamisha bo‘lgan, bundan keyin ham bo‘lishi mumkin. Karvon bexatar bo‘lmas, degan gap bejiz aytilmagan. Ammo xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi. Nega deganda, xalqning qalbida ne-ne avlodlardan meros yengilmas kuch – ma’naviyat bor.

Barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydigan tomoni shundaki, bizning ezgu intilishlarimiz zamirida ham ana shunday pok niyat, buyuk ishonch

mujassam. Aniq maqsad yo'lidagi buniyodkorlik ishlarimiz amaliy natijalar bera boshlagan, ko'zlagan rejalarimiz bosqichma-bosqich ro'yobga chiqib, dunyo hamjamiyatidan o'zimizga munosib o'rin egallab borayotgan hozirgi kunda xalqimiz, millatimiz qalbidagi ana shu ishonch yanada mustahkamlanmoqda.

Shu bois men shonli tarixiga sadoqat bilan qarab, bugungi ozod hayotini qadrlab, o'z kelajagiga katta umid bilan intilayotgan xalqimizning donishmandligi va matonati, uning iyomon-e'tiqodi, mustahkam irodasi va yuksak ma'naviy ruhi doimo barqaror yashaydi, deb ishonaman.

MUNDARIJA

Muqaddima 3

Birinchi bob. Ma’naviyat – insonning ulg‘ayish va kuch-qudrat manbayidir

Ma’naviyatni anglash 18

Ma’naviyatni shakllanadiragan asosiy mezonlar 29 ✓

Ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi 65 ✓

Ikkinci bob. Mustaqillik – ma’naviy tiklanish va yuksalish

Milliy g‘oya va ma’naviy hayot 71

Ma’naviyat va jamiyatning yangilanishi 76

Islohotlar va ularning ma’naviy mezoni 102

Uchinchi bob. Ma’naviyatga tahdid – o‘zligimiz va kelajagimizga tahdid

Globallashuv jarayonlari va ma’naviy tahdidlar 110

Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya 119 ✓

To‘rtinchi bob. Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori

Inson qalbiga yo‘l 128

Eng buyuk jasorat 159

Xotima 171

ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOV
YUKSAK MA'NAVIYAT – YENGILMAS KUCH

Ikkinchı nashri

Toshkent «Ma'naviyat» 2010

M u h a r r i r M. Qarshiboyev

Nashriyot muharrirlari: *S. Ahmedov, U. Qo'chqorov*
Rassom *N. Popov*

Musahhihlar: *O. Bozorova, S. Abdusamatova*

Texn. muharrir *T. Zolotilova*

Kompyuterda tayyorlovchi *Sh. Sohibov*

Diapozitivdan bosishga 25.08.2010-y. da ruxsat etildi. Bichimi 84×108/₃₂. Tayms garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 9,24 + 1,47 rangli vkl. Nashr t. 10,0 + 1,2 rangli vkl. 10000 nusxa. Buyurtma №10-827. Narxi shartnomaga asosida.

«Ma'naviyat» nashriyoti. Toshkent, Pahlavon Mahmud 2-berk ko'cha, 2-uy. Shartnomaga 17–10.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy, 2010.

Karimov, Islom Abdug‘aniyevich.

Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. I. Karimov.

– T.: «Ma’naviyat», 2010. – 176 b.

ББК 87.7

ББК 66.3 (5Ў)

ISBN 978-9943-04-067-0

9 789943 040670

Manaviyat